

Nikolay Nosov

BILMASVOY VA DO'STLARINING SARGUZASHTLARI



NIKOLAY NOSOV

**BILMASVOY
VA DO'STLARINING
SARGUZASHTLARI**

Roman-ertak

Po'lat Mo'min tarjimasi

YOSHLAR NASHRIYOT UYI
TOSHKENT – 2019

UO'K 821.161.1-3T 343.4
KBK 84(2Ros=Rus)6
N 80

Rus adabiyoti


Nosov, Nikolay.

Bilmasvoy va do'stlarining sarguzashtlari [Matn]: roman-ertak / N. Nosov. Po'lat Mo'min tarjimai. – Toshkent: Yoshlar nashriyot uyi, 2019. – 176 b.

Pinokkio, Jelsomino, Chipollino, Alisa, Garri Potter kabi hayoti sarguzashtlarga boy obrazlar bolalarning sevimli qahramonlariga aylangan.

Ana shunday qahramonlardan biri haqida hikoya qiluvchi, ajoyib va g'aroyib voqealarga boy ushbu asar o'quvchiga zavq-u shavq ula-shish bilan bir qatorda muhim tarbiyaviy ta'sirga ham egadir. Asar-ning quvnoq tili va beg'ubor ruhi bolalar qalbiga yo'l topishda ham-da ularning asar qahramonlari bilan birga yashashini ta'minlaydi.

UO'K 821.161.1-31
KBK 84(2Ros=Rus)6



N1 32366
291

ISBN 978-9943-5529-1-3

© YOSHLAR NASHRIYOT UYI,
2019

*Birinchi bob***GULZOR SHAHRINING MITTILARI**

A fsonaviy bir shaharda mittilar yashashardi. Juda ham kichkina bo'lganidan ularni mitti deb atashardi. Har bir mittining bo'yi kichkina bodringday kelardi. Ular yashagan shahar juda ham chiroyli bo'lib, har bitta hovlining atrofida dastorgul, moychechak va qoqigullar o'sib yotardi. U yerdagi ko'chalar ham gullar nomi bilan – Chuchmoma ko'chasi, Moychechak xiyoboni va Bo'tako'z saylgohi deb yuritilardi. Shaharning o'zi esa Gulzor shahar deyilardi. Shahar kichkina anhor yoqasiga joylashgan bo'lib, mittilar bu anhorni Bodring daryosi deb atashardi, nega desa ngiz, anhor bo'yida rosa bodring o'sib yotardi-da.

Daryoning naryog'i o'rmon edi. Mittilar qayin po'stlog'idan qayiqchalar yasab, anhordan suzib o'tishardi-da, meva, qo'ziqorin va yong'oq tergani o'rmonga borishardi. Mittilar kichkina bo'lganidan meva, yong'oq terib kelishlari qiyin edi, axir baland shoxlarga chiqib uni qirqish uchun yonlarida arra olib yurishlari kerak edi-da. Pastdan turib yong'oq terishga bironta ham mittining qo'li yetmaganidan yong'oqni bandidan arralab tushirishga to'g'ri kelardi. Qo'ziqorinlarni ham arralab yiqitishardi. Qo'ziqorinni eng tagidan arralab, keyin bo'lak-bo'lak qilib uylariga tashib ketishardi.

Mittilar bir xilda emasdi. O'g'il bolalarni mittivoy, qizaloqlarni esa mittioy deyishardi. Mittivoylar nuqul yo uzun shim, yo tasmasi yelkaga ilinadigan kalta ishton kiyishardi. Mittioylar bo'lsa, olachipor, yaltiroq matodan

ko'ylak kiyishni yoqtirishardi. Mittivoylar soch qo'yishni yoqtirmas, shuning uchun doim sochlarini yo oldirib, yo kalta qilib yurishardi; mittioylarning sochlari bo'lsa, belga tushardi. Ular sochlarini uzun o'rib, uchiga lenta taqishar va boshlariga sochpopuk ham qadashardi. Ko'pgina mittivoylar o'g'il bola bo'lishganidan kerilishib, mittioylar bilan hecham do'stlashmay yurishardi. Mittioylar-chi, ular ham qiz bola bo'lganiga kekkayishib, mittivoylar bilan do'stlashgilari kelmasdi. Agar bitta-yarimta mittioy ko'chada birorta mittivoyni uzoqdan ko'rib qolsa bormi, u darrov ko'chani narigi betiga o'tib olardi. Ajab qilardi-da, negaki, ha'zida mitti qizaloqning yonidan jimgina o'tolmaydigan tegajoq mittivoylar ham uchrab qolardi. U albatta xafa qiladigan biror so'z aytar, turtar, hammadan ham yomoni, sochidan tortardi. Albatta, hamma bolalar ham shunaqa shumtaka emasdi-ku-ya, lekin birontasining peshonasiga bu shumtaka emas deb yozib qo'yilmagan-da. Shuning uchun mittioylar mittivoylarni ko'rib qolishganda, yana biror dilxiralik bo'lmasin deb, oldindan ko'chani narigi betiga o'tib olishni ma'qul ko'rishardi. O'g'il bolalar shuning uchun qizaloqlarni «kek-kaymachoq» deyishardi. O'ylab topgan gaplarini qarang! Ko'pchilik qizaloqlar bo'lsa o'g'il bolalarga «urishqoq» va shunga o'xshash kamsituvchi laqablar qo'yib olgan edilar.

Ehtimol ba'zi bir o'quvchilar, axir bu to'g'ri emas, yozuvchi buni ichidan to'qib chiqaribdi, hayotda hech bunaqa bolalar bo'lmaydi, deyishlari mumkin. Lekin hech kim bundaylar hayotda bo'ladi deb aytayotgani yo'q-ku, axir. Hayot – boshqa gap, afsonaviy shaharda esa ahvol tamom bo'lakcha. Unda, shunaqasiyam bo'laverar ekan.

Chuchmoma ko'chasidagi bir uychada o'n oltita mittioy yashardi. Ularning orasida eng mashhuri Bilag'on degan mitti bola edi. Ko'p narsani bilganidan uni Bi-

lag'on deyishardi-da. U har xil kitoblarni o'qigani uchun ko'p narsani bilardi. Kitoblar stolining ustida ham, ostida ham, yana karavotining ustida va tagida ham yotardi. Uyida kitob to'lib ketgandi. Bilag'on kitob o'qiyverganidan aqlli bo'lib ketgan edi. Shuning uchun hamma bolalar uning gapiga quloq solar, uni yaxshi ko'rishardi. U doim qora kostyumcha kiyib yurardi. Bilag'on birorta kitobni o'qiganda-chi, ko'zoynak taqib olardi-da, xuddi professorga o'xshab ketardi.

Bu uyda taniqli doktor Dorijon ham yashar, u mittilarning har xil kasalini davolardi. U doim egniga oq xalat, boshiga esa popukli qalpoq kiyib olardi. Bu yerda yana mashhur mexanik Murvatvoy o'z yordamchisi Tuzatvoy bilan yashardi. Shiringina gazli suvni yaxshi ko'rishi bilan nom chiqargan Shirin Sharbatovich Sharbatjon ham shu yerda yashardi. U juda shirinso'z edi. Uni kimda-kim ismi sharifi bilan aytib chaqirsa, yoqtirar, agarda oddiygina qilib Sharbatjon deyishsa, xush ko'rmasdi. Tag'in bu uyda-chi, O'qtoy degan ovchi ham turardi. Uning Ko'ktoy ismli kuchukchasi va po'kak bilan otiladigan miltig'i ham bor edi. Bo'yoqvoy degan rassom, Mashshoqvoy degan cholg'uchi va yana Shoshqaloq, Sergap, Indamas, Bo'g'irsoq, Dovdirvoy hamda aka-uka Agarqul bilan Magarqul degan mittilar ham turishardi. Bular orasida Bilmasvoy degan eng mashhur mitti ham bor edi. Hech nimani bil-maganidan uni Bilmasvoy deyishardi.

Bu Bilmasvoy degani boshiga to'q havorang qalpoq, egniga sariq shim bilan qizil ko'ylak kiyib, yashil bo'yinbog' taqib yurardi. U to'q rangni yaxshi ko'rardi. To'tiga o'xshab rang-harang kiyimlarni kiyib olgan Bilmasvoy kuni bo'yi shaharda sanqib, bo'lmag'ur gaplarni to'qib, hammaga yoyib yurardi. Ustiga-ustak, u doim qizaloqlarni ranjitardi. Shuning uchun qizaloqlar uning qizil

ko'ylagini olisdan ko'rishgan zahoti shartta orqaga qaytib, uylariga bekinishardi. Bilmasvoyning Dastorgul ko'chasida turadigan Dumbulvoy degan do'sti bor edi. Bilmasvoy Dumbulvoy bilan soatlab gap sotishib o'tiraverardi. Ikkovi bir-biri bilan bir kunda yigirma marta urishib, yigirma marta yarashishardi. Bilmasvoy, xususan, quyidagi voqeadan keyin, tag'inam mashhur bo'lib ketdi. Nima bo'libdi ekan deng?..

U bir kun shaharda o'ynab yurib, adashib dalaga chiqib qoldi. Atrofda hech kim yo'q, faqat tillaqo'ng'iz uchib yurardi. U ko'rmay qolib Bilmasvoyning ensasiga kelib urildi. Bilmasvoy jonholatda yerga ag'anab tushdi. Tillaqo'ng'iz bo'lsa shu zahotiyoq uchib, ko'zdan g'oyib bo'ldi. Bilmasvoy irg'ib o'rnidan turdi-da, meni urgan kim ekan deb, yon-veriga alangladi, qarasa, atrofda hech kim yo'q.

– Meni urgan kim bo'ldi o'zi? – deb o'yladi Bilmasvoy, – balki tepamdan ul-bul tushgandir?»

Bilmasvoy boshini ko'tarib osmonga qaragan edi, hech nima ko'rinmadi. Faqat quyosh nur sochib turardi, xolos.

– E-ha, ustimga quyoshdan ul-bul tushibdi-da, – deb o'yladi Bilmasvoy. – Quyoshning bir bo'lagi uzilib boshimga tushgan bo'lsa kerak».

Uyiga ketayotganda Shishajon degan tanishini uchratib qoldi.

Shishajon mashhur munajjim edi. U shisha idish parchasidan katta qilib ko'rsatadigan oynacha yasay olardi. U bunaqa shishani ko'ziga qo'yib har xil narsalarni ko'rganda-chi, u narsalar juda katta bo'lib ko'rinardi. Bir qancha shunday shisha parchalaridan kattagina durbin yasadi, bu bilan oy va yulduzlarga qarardi. U shunaqa qilib munajjim bo'lgan edi.

- Menga qara, Shishajon, - dedi unga Bilmasvoy, - bilasanmi, nima bo'ldi, quyoshning bir bo'lagi uzilib boshimga tegib ketdi.

- Nimalar deyapsan, o'zing, Bilmasvoy! - deb kuldi Shishajon. - Agar quyoshning bir bo'lagi uzilib tushsa, pachag'ingni chiqarib yuboradi-ya, quyosh judayam katta, axir. U bizning Yer sharimizdan ham katta.

- Bo'lmagan gap, - deb javob berdi Bilmasvoy. - Menimcha, quyosh taqsimchadan katta emas.

- Quyosh bizga shunaqa ko'rinadi, chunki juda ham uzoqda-da. Quyosh - kattakon yumaloq cho'g'. Men buni durbinimda ko'rdim. Agar quyoshning jindakkina parchasi ham uzilib tushguday bo'lsa-chi, shahrimizning tilka-porasini chiqarib yuborgan bo'lardi.

- Shunaqa degin-a! - dedi Bilmasvoy. - Men bo'lsam quyoshning bunday kattaligini bilmas ekanman. Hozir boraman-da, bolalarga aytib beraman, ular ham hali bilmas kerak. Shundoq bo'lsa ham durbiningdan bir qarab ko'rgina, balki rostdan ham u g'adir-budirdir!

Bilmasvoy uyiga jo'nadi, ko'chada ko'ringanlarning hammasiga:

- Og'aynilar, quyoshning qanaqaligini bilasizlarmi? U bizning Yer sharimizdan ham katta. Voy, shunaqayam kattaki. Ana, qaranglar-a, og'aynilar, quyoshning bir parchasi uzilib, to'g'ri biz tomonga uchib kelyapti. U birpasda yetib kelib barchamizning pachag'imizni chiqarib yuboradi. Juda vahima bo'ladi-da. Shishajondan borib so'ranglar, - dedi.

Bilmasvoyning g'irt yolg'onchi ekanini bilishganidan hamma uni mazax qildi.

Bilmasvoy bo'lsa shataloq otib uyiga yugurdi:

- Og'aynilar, qochinglar! Parcha tushib kelyapti! - deb baqirardi u.

– Qanaqa parcha? – deb so‘rashedi undan.

– Parcha, og‘aynilar! Quyoshdan parcha uzilib ketgan. U hozir sharaq etib tushib, hammamizni yakson qiladi-qo‘yadi. Quyoshning qanaqaligini bilasizlarmi? U bizning Yerimizdan ham katta!

– Nimalarni to‘qiyapsan o‘zing!

– Hecham to‘qiyotganim yo‘q. Buni menga Shishajon aytdi. U durbinida ko‘ribdi.

Hamma hovliga yugurib chiqib, quyoshga qarayverishdi. Ko‘zlaridan yosh chiqib ketguncha qarab turaverishdi. Quyoshga ko‘p tikilishgandan, ko‘zlari tinib ketdi, oxirida quyosh ham go‘yo g‘adir-budirga o‘xshab ko‘rina boshladi.

Bilmasvoy bo‘lsa:

– Qochgan qochib qolsin! O‘ldik! – deb baqirdi.

Hamma o‘z buyumlariga yopisha ketdi. Bo‘yoqvoy o‘zining bo‘yoq va mo‘yqalamlarini, Mashshoqvoy cholg‘u asboblaridan skripka, balalayka va mis karnayini ola boshladi. Doktor Dorijon bo‘lsa uy ichida zir yugurib qayoqqadir gumdon bo‘lgan dorixaltasini qidirardi. Bo‘g‘irsoq degan bola kovushcha bilan soyabonchasini olib, darvozadan chiqqan ham ediki, Bilag‘onning ovozi kelib qoldi:

– Qo‘rqmanglar, og‘aynilar! Hech gap yo‘q! Bilmasvoyning g‘irt yolg‘onchi ekanini bilmaysizmi? Bu gaplarni ichidan to‘qiyapti u.

– To‘qiyapti! – deb baqirdi Bilmasvoy. – Borib Shishajondan so‘ranglar, ishonmasalaring.

Hamma Shishajonning oldiga yugurib ketdi, shunda bu gaplarni Bilmasvoyning o‘zi to‘qiganligi ayon bo‘ldi. Shunaqayam bir kulgi bo‘ldiki, asti qo‘ya bering.

Hamma Bilmasvoydan kuldi:

– Senga ishonganimizga o‘zimiz ham hayronmiz! – deyishdi.

– Men ham hayronman-da! – deb javob berdi Bilmasvoy. – Axir o'zim ham ishongan edim-da.

Bilmasvoy mana shunaqa g'alati bola edi!

Ikkinchi bob

BILMASVOYNING KARNAYCHI BO'LGANI

Bilmasvoy biror ishga qo'l ursa, uni boshqalarday to'g'ri bajarolmas, butun ish teskari bo'lib chiqardi. O'qisa, hijjalab o'qir, yozganda faqat bosma harflar bilan yoza olardi. Ko'pchilik Bilmasvoyni qovoqkalla deyishardi, lekin bu to'g'ri emasdi, bo'lmasa u qanday qilib fikrlay oladi? Ochig'i, u yaxshi fikr yurita olmasdi. Lekin botinkasini boshiga emas, oyog'iga kiyardi. Buning uchun ham fikr qilish kerak-ku, axir.

Bilmasvoy o'zi unchalik yomon bola emasdi. U-buni o'rgangisi kelardi-yu, lekin mehnat qilishga bo'yni yor bermasdi, mehnat qilmay osongina o'rganib olsam derdi, bunaqada eng aqlli mittidan ham hech nima chiqmaydi, albatta.

Hamma mittilar musiqani yaxshi ko'rishardi. Mashshoqvoy bo'lsa ajoyib sozanda edi. Unda turli musiqa asboblari bo'lib, bularni tez-tez chalib turardi. Uni hamma maza qilib eshitar, rosa maqtashardi. Mashshoqvoyni maqtashgani Bilmasvoyga alam qilib, undan:

– Mengayam chalishni o'rgat. Mening ham cholg'uchi bo'lgim kelyapti, – deb o'tindi.

– O'rgana qol, – deb rozi bo'ldi bir kuni Mashshoqvoy. – Sen qanday asbobni chalishni o'rganmoqchisan?

– Hammasidan osoni qaysi?

– Balalayka.

– Qani, balalaykani ber-chi, chalib ko'ray.

Mashshoqvoy unga balalaykani uzatdi. Bilmasvoy torini chertib ko'rdi-da:

– Yo'q, balalayka judayam past chalinar ekan. Birorta qattiqroq chalinadiganini ber, – dedi.

Mashshoqvoy unga skripkani berdi, Bilmasvoy kamoncha bilan skripka torini g'ij-g'ijlata boshladi va:

– Bundan ham qattiqroq chalinadigani yo'qmi? – dedi.

– Karnay bor, – deb javob berdi Mashshoqvoy.

– Qani, buyoqqa ol, chalib ko'raylik-chi.

Mashshoqvoy unga kattakon mis karnayni berdi. Bilmasvoy uni chalgandi, karnay rosa bo'kirdi.

– Zo'r ekan-ku! – dedi Bilmasvoy sevinib. – Qattiq chalinar ekan!

– Agar senga shu ma'qul bo'lsa, karnay chalishni o'rgana qol, – dedi Mashshoqvoy.

– O'rganishning nima keragi bor. Shundoq ham bila-man, – dedi Bilmasvoy.

– Yo'g'-e, sen hali chalishni bilmaysan.

– Bilaman, bilaman! Mana, eshitib ko'r! – deb bor kuchi bilan karnayni pufalay ketdi.

– Du-du-du! G'u-g'u-g'u!

– Uni faqat pufalayapsan-ku, chalayotganing yo'q, – dedi Mashshoqvoy.

– Nega chalmas ekanman? – deb xafa bo'ldi Bilmasvoy. – Judayam yaxshi chalyapman-ku, qara, qanday qattiq chalyapman.

– Seni qara-yu! Gap qattiq chalinishidamas, quloqqa yoqadigan qilib chalgin-da.

– Juda ham yoqimli chiqyapti-ku, axir.

– Sirayam yoqimlimas, – dedi Mashshoqvoy. – Musiqaga qobiliyating yo'qligi ko'rinib turibdi.

- O'zingning qobiliyating yo'q! - deb jahl qildi Bilmasvoy. - Sen ko'rolmay shunaqa deyapsan. Faqat o'zing chalsang-u nuqul seni maqtashsa!

- Hech-da, - dedi Mashshoqvoy. - O'rganishning ke-ragi yo'q desang, karnayni olgin-da, xohlaganCHA chala-ver. Mayli, odamlar seni maqtayverishsin.

- Chalaveraman! - deb javob berdi Bilmasvoy.

U karnayni puflashga kirishdi, ming urinsa-da, eplol-madi, karnay goh bo'kirar, goh xirillardi. Mashshoq-voy uni eshitaverib, oxiri joniga tegdi. U katta duxoba kamzulini kiyib, bo'yniga galstuk o'rniga pushtirang popukni qadab, mehmonga ketdi.

Kechqurun hamma mittilar uyga yig'ilganda, Bilmas-voy tag'in karnayni olib chalishga tushdi:

- Bu-bu-bu-bu! Du-du-du-u!

- Bu nima shovqin? - deb baqirdi hamma.

- Bu shovqin emas, men karnay chalyapman, - deb javob berdi Bilmasvoy.

- Hoziroq bas qil! - deb baqirdi Bilag'on, - musiqang quloqni kar qildi-ku!

- Nega deganda, hali sen musiqamga ko'nikmagan-san. Odatlanib qolsang, qulog'ing ham bitmaydi.

- Ko'nikmay qo'ya qolay, karnayingga zormanda emasman!

Lekin Bilmasvoy unga quloq solmasdan, chala berdi:

- Bu-bu-bu! Xr-r-r! Xr-r-r! Viv-viv!

- Yig'ishtirsang-chi! - deb unga yopishdi barcha mittilar, - yo'qol bu yoqlardan karnay-parnaying bi-lan!

- Qayoqqa yo'qolay?

- Dalaga borgin-da, o'sha yerda chal.

- Dalada uni eshitadigan hech kim yo'q-da, axir.

- Sen, hali bu nag'mangni bitta-yarimta eshitadi bit-ta-yarimta deb o'ylayapsanmi?

- Albatta.

- Unday bo'lsa, bor, ko'chaga chiqib chal, qo'shnilar eshitishadi. Bilmasvoy ko'chaga chiqib, qo'shni uyning yonida chala boshladi.

Qo'shnilar bo'lsa deraza tagida shovqin solma, deyishdi. Keyin boshqa uyning oldiga boruvdi, u yerdan ham hayday boshlashdi, u bo'lsa ketmadi, ularga o'chakishib chalaveraman, deb qasd qildi. Qo'shnilar uylaridan chiqib jahl bilan uni quvlay boshlashdi. Bilmasvoy bo'lsa, karnayini ko'tarib, jonholatda tiraqaylab qochib qoldi.

Shu-shu, Bilmasvoy karnay chalishni yig'ishtirdi.

- Mening musiqamni tushunishmayapti, - derdi u.
- Mening musiqamni tushunish darajasida emas ular. Qachon shu darajaga yetishsa, o'zlari ham talab qilib qolishar, lekin unda vaqt o'tgan bo'ladi. Endi hecham chalmayman.

Uchinchi bob

BILMASVOYNING RASSOM BO'LGANI

Bo'yoqvoy juda yaxshi rassom edi. U nuqul «balaxon» degan uzun keng ko'ylak kiyib yurardi. Bo'yoqvoyning balaxon ko'ylagini kiyib, uzun sochini orqaga tushirib, qo'lga bo'yoq soladigan quticha ushlab, bo'z qoplangan chorcho'p qarshisida turganini ko'rsangiz, havasingiz kelardi. Uni ko'rganlarning hammasi mana bu chinakam rassom, derdi.

Musiqasini hech kim eshitmagandan keyin, Bilmasvoy rassom bo'lishga ahd qildi. U Bo'yoqvoyning oldiga kelib:

- Menga qara, Bo'yoqvoy, men ham rassom bo'lmoqchiman, birorta mo'yqalam bilan bo'yoqlaringdan berib tur, - dedi.

Bo'yoqvoy qizg'anchiq emasdi, eski bo'yoq va mo'yqalamini Bilmasvoyga sovg'a qildi. Bir payt Bilmasvoyning oldiga do'sti Dumbulvoy kelib qoldi. Bilmasvoy unga:

- O'tir, Dumbulvoy, hozir sening suratingni chizaman, - dedi.

Dumbulvoy sevinib ketganidan darrov kursiga o'tirdi. Bilmasvoy uning suratini chizishga kirishdi, u Dumbulvoyni chiroyliroq qilib chizmoqchi bo'lib, burnini qizil, qulog'ini yashil, labini havorang va ko'zini novvotrangga bo'yadi. Dumbulvoy o'z suratini ko'rishga oshiqardi. U sabri chidamaganidan kursichada o'tirolmay, hadeb qimirlardi.

- Qimirlamay o'tir, qimirlamay o'tir, - dedi unga Bilmasvoy, - bo'lmasa o'xshamay qolasan.

- Hozir o'xshayaptimi o'zi? - deb so'radi Dumbulvoy.

- Xuddi o'zing, - deb javob berdi Bilmasvoy va labiga gunafsharang bo'yoqni surkab mo'ylov ishlab qo'ydi.

Bilmasvoy rasmni chizib bo'lgandan keyin Dumbulvoy:

- Qani, ko'rsatgin-chi, qanaqa chiqibdi! - dedi.

Bilmasvoy ko'rsatdi.

- Voy, men shunaqa ekanmanmi? - deb cho'chib ketganidan baqirib yubordi Dumbulvoy.

- Albatta, shunaqasan-da, bo'lmasa qanaqa eding?

- Nega mo'ylov chizding? Axir mening mo'ylovim yo'q-ku!

- Yo'q bo'lsa nima qipti, bir kunmas-bir kun chiqadi.

- Burnim nega qizil, bo'lmasa?

- Chiroyliroq bo'lsin dedim-da.

- Nega sochim havorang? Mening sochim havorang ekanmi?

- Agar havorang yoqmasa, - dedi Bilmasvoy, - unda yashilga bo'yashim mumkin.

– Yo‘q, yomon chizibsən, – dedi Dumbulvoy, – bu yoqqa ol, yirtib tashlayman.

– Nima uchun san‘at asarini yirtib tashlar ekansən? – dedi Bilmasvoy.

Dumbulvoy undan suratni tortib olmoqchi bo‘lgan edi, Bilmasvoy uning yoqasiga yopishdi. Bu shovqinni eshitib Bilag‘on, doktor Dorijon va boshqa mittilar chopib kelishdi.

– Nega yoqalashyapsizlar? – deb so‘rashdi ular.

– Mana buni ko‘ringlar! – deb baqirdi Dumbulvoy, – o‘zlaring ajrim qilinglar. Qani, aytinglar-chi, bu kimning surati? Bu men emasman-a, to‘g‘rimi?

– Albatta, sen emassan! – deyishdi mittivoilar. – Bu ekinzordagi allaqanday qo‘riqchining surati-ku.

– Buning tagiga kimligi yozib qo‘yilmagani uchun sizlar topolmadinglar-da. Hozir yozib qo‘ysam, hammasi aniq bo‘ladi – qoladi, – dedi Bilmasvoy.

U qalamini olib suratning tagiga bosma harflar bilan «Dumbulvoy» deb yozdi-da, keyin devorga osib qo‘ydi.

– Shu yerda osig‘liq tursin. Hamma tomosha qilaverishi mumkin, ko‘rish hech kimga man qilinmaydi, – dedi.

– Baribir, – dedi Dumbulvoy, – sen uxlaganingda kelib uni yirtib tashlayman.

– Kechasi uxlamasdan qo‘riqlab chiqaman, – deb javob berdi Bilmasvoy.

Dumbulvoyga alam qilib, uyiga ketib qoldi. Bilmasvoy rostdan ham kechasi uxlamadi. Hamma uyquga ketganda u bo‘yoqlarini olib, barcha mittilarning rasmini chiza boshladi. Bo‘g‘irsoq degan bolani shunaqangi semiz qilib chizdiki, hatto u chorcho‘pga ham sig‘may ketdi. Shoshqaloqni bo‘lsa, ingichka oyoqli qilib chizdi, orqa tarafiga nima uchundir it dumini chizib qo‘ydi. Ovchi O‘qtoyni esa Ko‘ktoy degan itiga minib ketayotgani-

ni tasvirladi. Doktor Dorijonning burni o'rniga harorato'lchagichni ishladi. Nima uchundir Bilag'onning qulog'ini eshakning qulog'iga o'xshatib chizdi. Qisqasi, barchaning rasmini shunaqa g'alati qilib soldi. Erta bilan hamma suratlarni devorga osib, kim ekanligini tagiga yozib ham qo'ydi. Qarabsizki, butun bir ko'rgazma tayyor bo'libdi.

Doktor Dorijon hammadan ilgari uyg'ondi. U devordagi suratlariga ko'zi tushib, qotib kula boshladi. Bular unga rosayam ma'qul bo'ldi, keyin ko'zoynagini taqib suratlarni juda diqqat bilan tomosha qildi. U har bir suratning oldiga kelib, qotib-qotib kular edi.

- Yashavor, Bilmasvoy! - dedi doktor Dorijon. - Hech qachon bunchalik kulmagan edim.

Nihoyat, o'z suratining oldiga kelib:

- Bu kim ekan? Nahotki, shu men bo'lsam? - deb jiddiy qiyofada g'udrandi. - Yo'q, bu men emasman, bu - judayam yomon rasm. Yaxshisi, sen uni olib tashla.

- Nega olib tashlayman? Osig'liq turaversin, - dedi Bilmasvoy.

Doktor Dorijon xafa bo'lib:

- Sen, Bilmasvoy, kasalsan, ko'rinib turibdi. Ko'zingga bir balo bo'lganga o'xshaydi. Burnim o'rnida harorat o'lchagich shisha bo'lganini qachon ko'rgan eding? Kechqurun senga surgidori berishga to'g'ri keladi.

Bilmasvoy surgidorini juda yomon ko'rardi, cho'chib ketdi:

- Yo'q-yo'q! Surat yaramasligini endi o'zim ham ko'rib turibman, - dedi.

U devordan Dorijonning suratini olib yirtib tashladi.

Doktor Dorijonning ketidan O'qtoy uyg'ondi. Unga ham suratlar yoqib tushdi. U portretlarni birma-bir to-

mosha qilib suratiga ko'zi tushgan zahotiy oq ta'bi tirriq bo'lib ketdi.

– Bu qanaqa rasvo rasm, – dedi u, – menga o'xshamaydi. Hoziroq uni yirtib tashla, bo'lmasa seni ovga olib bormayman.

– O'qtoyning suratini ham devordan olib tashlashga to'g'ri keldi.

Oxiri hamma suratlar bir-bir olib tashlandi. Mittivoylarga boshqalarning surati ma'qul bo'lardi-yu, o'zlariniki esa yoqmasdi.

Odatdagidek, hammadan keyin Bo'yoqvoy uyg'ondi. U juda uyquchi edi. Bo'yoqvoy devorda o'z suratini ko'rib qolib, qattiq jahli chiqdi, bu badiiy surat emas, balki san'atga xilof bema'ni chizma-chizarlikdir, – dedi.

Keyin devordan suratni yulib, Bilmasvoyning bo'yoq va mo'yqalamlarini ham tortib oldi.

Devorda yolg'iz Dumbulvoyning surati qoldi. Bilmasvoy uni yulib oldi-da, oshnasinikiga jo'nab ketdi.

– Dumbulvoy, senga o'z suratingni sovg'a qilayinmi? Keyin men bilan yarashasan, – deb taklif qildi Bilmasvoy.

Dumbulvoy rasmni olib, parcha-parcha qilib tashladi,

– Mayli, yarashdik. Ikkinchi marta shunaqa rasmimni soladigan bo'lsang-chi, sirayam yarashmayman, – dedi Dumbulvoy.

– Endi boshqa rasm chizmayman, – deb javob berdi Bilmasvoy. – Ming chizganing bilan senga hech kim rahmat ham demadi, hammasi urishgani-urishgan. Endi rassom bo'lgim kelmay qoldi.

To'rtinchi bob

BILMASVOYNING SHE'R TO'QIGANI

Bilmasvoydan rassom chiqmasligi aniq bo'lgandan keyin, u shoir bo'lishga ahd qildi. Uning Qoqigul ko'chasida turadigan shoir oshnasi bor edi. Bu shoirning asl oti Gulto'ra edi, lekin barcha shoirlarning chiroyli nomni yaxshi ko'rishlari hammaga ma'lum. Shuning uchun bo'lsa kerak, u ham she'r yoza boshlagach, o'z otini o'zgartirib, Gulshaniy qo'yib oldi.

Bir kun Bilmasvoy Gulshaniyning oldiga kelib:

- Menga qara, Gulshaniy, she'r to'qishni o'rgatib qo'yg'in. Men ham shoir bo'lmoqchiman, - dedi.

- Senda qobiliyat bormi o'zi? - deb so'radi Gulshaniy.

- Albatta bor. Juda qobiliyatliman, - deb javob berdi Bilmasvoy.

- Tekshirib ko'rish kerak, - dedi Gulshaniy, - sen qofiya nimaligini bilasanmi?

- Qofiya? Yo'q, bilmayman.

- Ikki so'z bir-biriga o'xshash bo'lsa, uni qofiya deymiz, - deb tushuntirdi Gulshaniy. - Misol uchun: omon-yomon, daftar-kaptar, bildingmi?


- Bildim.

- Qani «bog'cha» degan so'zga qofiya top-chi?

- Kecha, - deb javob berdi Bilmasvoy.

- Yo'q, «bog'cha-kecha» so'zlari hech qanaqasiga qofiya bo'lolmaydi. Bu so'zlarda hech qanaqasiga qofiya yo'q.

- Nega bo'lmas ekan? Axir ular bir xilda «cha-cha» bilan tugayapti-ku.



– Bu hali yetarli emas, – dedi Gulshaniy. – Zo‘r chiqishi uchun so‘z bir-biriga o‘xshagan bo‘lishi kerak. Mana, eshitib tur: kaltak-g‘altak, o‘choq-po‘choq, kitob-xitob.

– Tushundim, tushundim! – deb baqirdi Bilmasvoy.
– G‘altak-kaltak, o‘choq-po‘choq, kitob-xitob. Ey, qoyil! Ha-ha-ha!

– Qani sen, «saqla» degan so‘zga qofiya topgin-chi, – dedi Gulshaniy.

– Taqla, – deb javob berdi Bilmasvoy.

– “Taqla” deganing nimasi? – deb hayron bo‘ldi Gulshaniy. – Shunaqa so‘z bormi?

– Bo‘lmasa-chi, yo‘qmi?

– Albatta, yo‘q-da.

– Unday bo‘lsa, makla.

– Makla deganing nimasi? – deb yana hayron bo‘ldi Gulshaniy.

– Biror narsani mahkamlash kerak bo‘lsa, shunda makla deyiladi-da, – deb tushuntirdi Bilmasvoy.

– Bekor aytibsan, – dedi Gulshaniy, – bunaqangi so‘z yo‘q. Bor so‘zlardan topish kerak, unaqqa o‘zingdan-o‘zing to‘qima.

– Agarda boshqa so‘zlarni topolmasam-chi?

– Topolmagan bo‘lsang, unda senda she‘riy qobiliyat yo‘q ekan!

– Qani, unday bo‘lsa o‘zing topgin-chi, qanaqa so‘z qofiya bo‘lar ekan, – dedi Bilmasvoy.

– Xo‘p, hozir, – deb rozi bo‘ldi Gulshaniy.

U xona o‘rtasida to‘xtab, qo‘lini ko‘ksiga qovushtirdi, boshini yon tomonga engashtirib o‘ylay boshladi. Keyin shiftga tikilganча xayolga toldi. So‘ng qo‘li bilan iyagini ushlab, bir muddat polga tikilib turdi. U shunaqa qilqlarni qilib bo‘lgach, o‘zicha bir nimalar deb g‘o‘ng‘ilaganча xona ichida aylana boshladi.

- Saqla, baqla, vaqla, gaqla, daqla... - u anchagacha g'ung'illab yurdi, keyin: - Tfu! Bu qanaqa so'z o'zi? Al-laqanday qofiyasi topilmaydigan so'z ekan, - dedi.

- Ana! - dedi sevinib ketib Bilmasvoy, - qofiyasini o'zi ham topolmaydigan so'zni beradi-da, tag'in meni qobili-yatsiz deydi.

- Mayli, qobiliyatlisin, faqat mendan nari tur! - deb javob berdi Gulshaniy. - Boshim og'rib qoldi. She'r to'qi-ganingda ham ma'no, ham qofiya kelsa, shundagina she'r bo'ladi.

- Nahotki, bu shunaqangi oppa-oson bo'lsa-ya? - deb hayron bo'ldi Bilmasvoy.

- Albatta oson. Gap qobiliyatli bo'lishda.

Bilmasvoy uyiga qaytib kelib she'r to'qishga kirishdi. U kun bo'yi xonada yurib, bir polga, bir shiftga tikildi, qo'li bilan iyagini ushladi, o'zicha nimalardir deb ming'il-ladi. Oxiri she'r tayyor bo'ldi.

- Og'aynilar, quloq solinglar, qaranglar, men qanaqan-gi she'r to'qidim, - dedi.

- Qani, qani, she'r nima to'g'risida o'zi? - deb qiziqib qoldi barcha.

- Sizlarning to'g'ringizda to'qidim, - deb ochig'ini aytdi Bilmasvoy. - Mana, eng oldin Bilag'on haqidagi she'rni eshiting:

Bilag'on kelib soydan,
Shartta sakradi qo'ydan.

- Nima? - deb baqirdi Bilag'on. - Men qachon qo'y ustidan sakrabman?

- She'rda qofiya uchun shunday deyiladi-da, - deb tushuntirdi Bilmasvoy.

- Sen qofiya deb mening to'g'rimda bo'lmag'ur yolg'on gaplarni to'qiyverar ekansan-da! - deb qizishdi Bilag'on.

- Bo'lmasa-chi, - deb javob berdi Bilmasvoy. - Bor gapni to'qib o'tirishning nima keragi bor? Haqiqatni to'qishning hojati yo'q. U o'zi bor narsa-da.

- Tag'in shunaqa narsa to'qigin-chi, kuningni ko'rsan, - deb qo'ydi Bilag'on. - Qani, boshqalar to'g'risida nimalar to'qiding?

- Mana, Shoshqaloq to'g'risidagisini eshitinglar, - dedi Bilmasvoy.

Shoshqaloq xo'p och edi,
Sovuq dazmolni yedi.

- Og'aynilar! - deb baqirib yubordi Shoshqaloq, - Qarang, mening to'g'rimda nimalar to'qibdi? Hech qanaqangi sovuq dazmolni yeganim yo'q.

- Sen baqirmay tur, - dedi Bilmasvoy. - Shunchaki qofiya uchun sovuq dazmol deb aytdim-da.

- Men na sovuq, na issiq dazmolni yeganman, axir! - deb baqirdi Shoshqaloq.

- Issig'ini yeding deb aytganim yo'q-ku, xavotir olmasang ham bo'ladi, - deb javob berdi Bilmasvoy, - Mana, Agarqul to'g'risidagi she'rni eshitinglar:

Agarqulning yostig'ida,
Non hor uning tagida.

Agarqul karavotining oldiga kelib yostig'ining tagini qaradi.

- Yolg'onchi! Hech qanaqa non-pon yo'q bu yerda, - dedi.

- Sen she'riyatdan bexabarsan, - dedi Bilmasvoy. Faqat qofiya uchun shunaqa deyiladi, aslida u yerda hech nima bo'lmaydi. Mana, men tag'in Dorijon haqida ham to'qiganman.

- Og'aynilar! - deb baqirdi doktor Dorijon. - Bunaqa mazaxni to'xtatish kerak! U hammamiz to'g'rimizda

yolg'on gaplarni aytsa-yu, nahot, biz indamay eshitib tursak?

– Bas endi! – deb baqirdi barcha. – Biz boshqa eshishni istamaymiz! Bu she'r emas, bu allaqanday mas-xarabozlik.

Faqat Bilag'on, Shoshqaloq va Agarqullar norozi bo'lib baqirishdi: – O'qisin! Bizning to'g'rimizda o'qigan-dan keyin boshqalar to'g'risida ham o'qisin-da!

– Kerak emas! Istamaymiz! – deb baqirishdi bosh-qalar.

– Mayli, siz xohlamasangiz, qo'shnilarga o'qib bera-man, – dedi Bilmasvoy.

– Nima-nima, – deb baqirdi hamma. – Hali bizni qo'shnilarga ham sharmanda qilmoqchimisiz? Qani o'qib ko'r-chi? Unda uyga qaytib kelmay qo'ya qol.

– Xo'p mayli, og'aynilar, unday qilmayman, – deb rozi bo'ldi Bilmasvoy, – faqat sizlar mendan xafa bo'lmasala-ring bo'lgani.

Shu-shu, Bilmasvoy boshqa she'r to'qimaslikka ahd qildi.

Beshinchi bob

BILMASVOYNING GAZLI SUV BILAN YURADIGAN AVTOMOBILDA KEZGANI

Mexanik Murvatvoy va uning yordamchisi Tuzat-voy juda yaxshi usta edilar. Ular bir-birlariga o'xshash edilar-u, faqat Murvatvoyning bo'yi sal novcharoq, Tuzatvoy bo'lsa pakanaroq edi. Ikkovi ham charm kamzul kiyishardi. Kamzullarining cho'ntagidan doim gayka kaliti, ombir, egov va boshqa

temir asboblar chiqib turardi. Kamzullari charmdan bo'lmaganda bormi, cho'ntaklari allaqachon o'zilib tushgan bo'lardi. Shapkalari ham charmdan edi. Ish paytida ko'zlariga biror narsa tushmasin uchun konserva idishi-ga o'xshagan ko'zoynaklarini taqishardi.

Murvatvoy bilan Tuzatvoy ustaxonalarida kuni bilan kuymalanishib, primus, kastrul, tova va choynak tuza-tishardi. Tuzatadigan narsa topisha olmaganda mittilar uchun uch g'ildirakli velosipedcha va samokatcha yasa-shardi.

Kunlardan bir kun Murvatvoy bilan Tuzatvoy ustaxo-nalarini ichidan bekitib olib, hech kimga indamasdan ni-madir yasay boshlashdi. Bir oy ichi arralashdi, yo'nish-di, qalaylashdi, ulashdi, lekin hech kimga hech narsani ko'rsatishmadi. Bir oychadan keyin ma'lum bo'ldiki, ular avtomobil yasashgan ekan.

Bu avtomobil shirin gazsuv bilan yurardi. Mashina-ning o'rtasida haydovchi o'tiradigan joy bo'lib, uning oldiga esa gazsuvli bak o'rnatilgan edi. Gaz bakdan qu-vurcha orqali mis silindrga o'tib, temir porshenni itarar, temir porshen gazning bosimi bilan bir u yoqqa, bir bu yoqqa yurib, g'ildirakni aylantirardi. O'tiradigan joyning yuqorisiga sharbat solingan idish o'rnatilgan edi. Shar-bat quvur orqali bakka tomardi, bu sharbat bilan me-xanizmlar moylanardi. Gazli suv bilan yuradigan shu-naqa avtomobillar mittilar orasida juda ko'p tarqalgan bo'lsa-da, Murvatvoy bilan Tuzatvoy yasagan avtomo-bilga ulardan farqli bitta juda muhim yangilik kiritil-gan edi. Mashinani yo'lda to'xtatmay turib, gazli suvdan yo'l-yo'lakay ichib ketish uchun yon tomonidan bakka jo'mrak o'rnatilgan edi. Shoshqaloq bu avtomobilni hay-dashni o'rganib oldi, kim sayr qilmoqchi bo'lsa, yo'q de-may o'ynatib kelaverdi.

Avtomobilida yurishni hammadan ham Sharbatjon yaxshi ko'rardi, nega desangiz, yo'lda ketayotganda sharbatli gazsuvdan ichganicha ichardi-da. Bilmasvoy ham avtomobilga tushishni yaxshi ko'rardi. Shoshqaloq uni ko'pincha sayr qildirib yurardi. Lekin Bilmasvoy avtomobilni o'zim haydasam, deb, o'rganmoqchi bo'ldi. U Shoshqaloqqa:

- Avtomobilni o'zim ham yurgizay! Haydashni o'rganay, - deb yalina boshladi.

- Sen eplolmaysan-da, - dedi Shoshqaloq. - Bu axir mashina-ku. Buni bilish kerak.

- Tag'in nimasini bilish kerak? - deb javob berdi Bilmasvoy. - Qanday haydayotganingni ko'rdim-ku. Ruchkasini tortasan, rulni buraysan - hammasi oppa-oson.

- Oppa-oson tuyulgani bilan, aslida, juda qiyin. O'zing ham o'lasan, avtomobilni ham tamom qilasan.

- Ha, mayli Shoshqaloq, - deb xafa bo'ldi Bilmasvoy. - Sen ham biror narsa so'rab qolarsan, o'shanda men ham bermayman.

Bilmasvoy bir kun Shoshqaloq uyda yo'g'ida hovli-da turgan avtomobilga tushib oldi-da, richagidan tortib, tepkisini bosa boshladi. Oldin qancha urinsa ham, mashina joyidan jilmadi. Keyin birdan pishillab yurib ketdi. Mittilar buni derazadan ko'rib qolib, uydan yugurib chiqishdi.

- Nima qilyapsan? - deb baqirishdi ular. - O'lasan!

- O'lmayman, - deb javob berdi Bilmasvoy. Mashina hovli o'rtasida turgan itning uychasiga borib urildi.

Qars-qurs etib, uycha parcha-parcha bo'lib ketdi. Yaxshiyam Ko'ktoy qochib qoldi, bo'lmasa-chi, Bilmasvoy uni bosib ketgan bo'lardi.

- Ana ko'rdingmi, nima qilib qo'yding! - deb baqirdi Bilag'on. - Hozir to'xtat!

Bilmasvoy qo'rqib ketganidan mashinani to'xtatmoqchi bo'lib qandaydir richagini bosdi. Mashina bo'lsa to'xtamay, yana tezroq yurib ketdi. Yo'lda shiyponchaga duch kelgandi, u ham qars-qurs etib, bo'lak-bo'lak bo'lib ketdi. Bilmasvoyga taxta parchalari kelib urildi. Bitta tarasha uning orqasiga ilinib qoldi, boshqa bittasi bo'yniga taraqlab tushdi. Bilmasvoy rulga yopishgani cha mashinani qaytarmoqchi bo'ldi. Mashina bo'lsa hovli bo'ylab g'izillardi, Bilmasvoy ovozi boricha baqirdi:

– Og'aynilar, tezroq darvozani ochinglar, bo'lmasa hovlidagi narsalar dabdala bo'ladi!

Mittilar darvozani ochishdi, Bilmasvoy darvozadan chiqib, mashinani ko'cha bo'ylab haydab ketdi. Shovqinni eshitib hamma hovlilardagi mittilar yugurib chiqishdi.

– Qochinglar! – deb baqirardi ularga Bilmasvoy va g'izillab o'tib ketardi.

Bilag'on, Agarqul, Murvatvoy, doktor Dorijon va boshqa mittilar uning ketidan yugurishdi. Lekin u ketgan edi. Yetisholmadi. Bilmasvoy shahar bo'ylab aylanib yuraverdi, chunki u qanday qilib to'xtatishni bilmasdi.

Oxiri mashina daryo bo'yiga kelib qolib, pastlikka o'mbaloq oshib ketdi. Bilmasvoy uning ichidan otilib chiqib qirg'oqqa borib tushdi va shu yerda cho'zilib qoldi. Avtomobil bo'lsa suvga tushib, cho'kib ketdi. Bilag'on, Agarqul, Murvatvoy va doktor Dorijonlar Bilmasvoyni ko'tarib uyga olib kelishdi. Hamma uni o'lib qolgan deb o'ylagandi. Ular Bilmasvoyni karavotiga yotqizishgandagina u ko'zini ochdi, atrofiga alanglab:

– Og'aynilar, men hali tirikmanmi? – deb so'radi.

– Tiriksan, tiriksan, – deb javob berdi doktor Dorijon, – Faqat jim yot, seni tekshirib ko'rishim kerak.

U Bilmasvoyni yechintirib, u yoq-bu yog'ini tekshira boshladi:

– Juda qiziq! Suyaklari bus-butun, faqat bir qancha zirapcha bilan lat yegan joyi bor, – dedi.

– Orqamga zirapcha qadalib qolgan edi, – dedi Bilmasvoy.

– Zirapchalarni olib tashlashga to'g'ri keladi, – dedi doktor Dorijon boshini chayqab.

– Olganda og'riydimi? – deb cho'chidi Bilmasvoy.

– Yo'q, hech ham og'rimaydi, qani bundoq qil-chi, men hozir eng kattasini sug'urib tashlayman.

– Vo-o-oy! – deb baqirdi Bilmasvoy.

– Nima bo'ldi senga? Shungayam shuncha dod-voy-mi? – deb hayron bo'ldi Dorijon.

– Og'ridi-da!

– Ha, birpas tishingni tishingga qo'yib chidab tur! Senga shunaqa tuyulyapti-da.

– Yo'q, sirayam shunaqa emas. Voy-voy-voy!

– Nega baqirasana? Seni bo'g'izlayotganim yo'q-ku, axir. Bo'g'izlamayman ham.

– Og'riyapti! O'zing og'rimaydi devding-ku, endi og'riyapti-da!

– Bo'ldi, bo'ldi, jim turgin. Bitta zirapcha qoldi, xolos.

– Voy, kerak emas! Kerak emas! Bundan ko'ra, mayli, zirapcha qolaversin.

– Bo'lmaydi, yiring boylab ketadi.

– Vuy-vuy-vuy!

– Ana endi hammasi bo'ldi. Yod surish qoldi, atigi.

– Yod og'ritadimi?

– Yo'q, yod og'ritmaydi, qimirlamay yot.

– A-a-a!

– Baqirma, baqirma! Mashinada yurishni yaxshi ko'rasana-u, ozgina chidashni yomon ko'rasanmi!

– Voy, kuydirvordi-ku!

– Kuydiradi-da, keyin bosilib qoladi. Senga hozir harorat o'lhagich qo'yaman.

– Voy, keragi yo'q! Kerak emas!

– Nima uchun?

– Og'riydi.

– Harorat o'lhagich og'ritmaydi.

– Nuqul og'ritmaydi deysan-u, keyin og'ritadi.

– Voy jinnivoy, men senga sirayam harorato'lhagich qo'ygan emasmanmi?

– Hech qachon.

– Mana, hozir og'ritmasligini ko'rasan, – dedi-da Dorijon harorato'lhagich olib kelgani chiqib ketdi.

Bilmasvoy karavotdan irg'ib turdi-da, ochiq derazadan sakrab, do'sti Dumbulvoyning yoniga qochib ketdi. Doktor Dorijon harorato'lhagich olib kelib qarasa, Bilmasvoy yo'q.

– Ana xolos, shunaqa kasallarni davola-ya, davola, – deb to'ng'illadi Dorijon. – Uni davolaysan, davolaysan, u bo'lsa derazadan sakrab qochib ketadi. He, yaramas!

Oltinchi bob

BILAG'ONNING HAVO PUFAGI O'YLAB TOPGANI

Oqishni yaxshi ko'radigan Bilag'on uzoq o'lkalardan va turli sayohatlar haqidagi kitoblarni juda ko'p o'qigan edi. Kechqurunlari bekorchilikda ko'pincha o'z o'rtoqlariga kitoblardan o'qiganlarini aytib berardi. Bolalar bu hikoyalarni juda yaxshi ko'rishardi. Ular o'zlari sirayam ko'rmagan mamlakatlar haqidagi hikoyalarni eshitishni yoqtirishardi. Sayohatchilar haqidagi hikoyalarni, ayniqsa, yaxshi

ko'rishardi. Nega deganingizda, sayohatchilar hayotida kutilmagan sarguzashtlar, judayam g'aroyib voqealar ro'y beradi-da.

Bunaqa voqealarni eshitavergach, bolalarning o'zlari ham sayohatga chiqishni orzu qila boshlashdi. Ba'zilari piyoda sayohat qilamiz deyishdi, boshqalari daryoda qayiqda suzishni taklif qilishdi. Bilag'on bo'lsa:

– Kelinglar, havo pufagi yasaymiz-da, osmonga uchamiz, – dedi.

Bu taklif hammaga juda yoqib tushdi. Mittilar hali havo pufagida hech uchishmagan edi. Bu barcha bolalarni qiziqtirdi. Havo pufagini qanday qilib yasashni, turgan gap, hech kim bilmasdi. Bilag'on bo'lsa, men oldin yaxshilab o'ylab ko'ray-chi, keyin sizlarga tushuntirib beraman, – dedi.

Shunday qilib, Bilag'on o'ylay boshladi. Uch kecha-kunduz o'yladi, keyin rezinadan pufak yasashni xayol qildi. Mittilar rezina ishlashni bilishardi. Shaharlarida fikus o'simligiga o'xshagan gullar o'sardi. Agar bu gullarning poyasini kessa, undan suv oqib tushardi. Bu suv sekin-asta quyuqlashib, rezinaga aylanardi. Keyin bundan koptok va kalish qilsa bo'lardi. Bilag'on buni topgandan keyin, bolalarga rezina suvi yig'ib kelishni buyurdi. Hamma yiqqan suvini Bilag'on tayyorlab qo'ygan katta bochkaga to'ka berdi. Bilmasvoy ham suv yiqqani ketib, ko'chada ikkita mittioy bilan arqoncha o'ynayotgan do'sti Dumbulvoyga duch kelib qoldi.

– Menga qara, Dumbulvoy, bilasanmi biz qanaqa narsa o'ylab topdik! – dedi Bilmasvoy. – Og'ayni, nimaligini bilsang bormi, alam qilganidan yorilib o'lasan.

– Yorilmayman, – deb javob berdi Dumbulvoy. – Yorilgim kelib turgani yo'q!

- Yorilasan, yorilasan! – deb ishontirdi uni Bilmasvoy. – Shunaqayam g'alatiki, uni tushingda ham ko'rmasansan.

- U nima ekan o'zi? – deb qiziqib qoldi Dumbulvoy.

- Yaqinda havo pufagi yasab, sayohat qilgani osmonga uchamiz. Dumbulvoyga alam qilib qoldi. Uning ham bir nima bilan maqtangisi keldi-da:

- Havo pufagi emish! Men bo'lsam mittioylar bilan do'stlashib oldim, – dedi.

- Qaysi mittioylar bilan?

- Mana bular bilan, – deb qizaloqlarni barmog'i bilan ko'rsatdi. – Mana bu qizning oti Chivinoy, bunisi Munchog'oy.

Chivinoy bilan Munchog'oy nariroqda Bilmasvoyga xavfsirab qarab turishardi.

Bilmasvoy ularga xo'mrayib qarab qo'ydi-da:

- Iye, hali shundaymi! Axir, sen mening do'stim-san-ku! – dedi Bilmasvoy.

- Men sen bilan ham, ular bilan ham do'st bo'laverman. Biri boshqasiga xalaqit bermaydi-ku.

- Yo'q, xalaqit beradi, – dedi Bilmasvoy, – qizaloqlar bilan do'stlashganning o'zi qizaloq, ular bilan hoziroq janjallash!

- Nega janjallashar ekanman?

- Janjallash deyapman senga! Bo'lmasa o'zim sen bilan janjallashaman.

- Janjallashsang-janjallashaqol, uni qara-ya!

- Mana hozir janjallashaman, Chivinoy va Munchog'oylaringni bir dodini berayki!

Bilmasvoy mushtumini qisib, qizaloqlarga tashlandi. Dumbulvoy bo'lsa uning yo'lini to'sib, peshonasiga bir musht tushirdi. Ular yoqalashib ketishdi, Chivinoy bilan Munchog'oylar esa qo'rqib ketishganidan ura qochishdi.

- Shu qizaloqlarni deb peshonamga musht tushirasanmi hali? – deb baqirdi Bilmasvoy va Dumbulvoyning burniga urmoqchi bo'ldi.

- Nega ularni xafa qilasan? – deb so'radi Dumbulvoy mushtumini ko'tarib.

- Uni qara-ya, qo'riqchi chiqib qolibdi! – dedi-da, Bilmasvoy oshnasining kallasiga bir tushirdi. Dumbulvoy o'tirib qoldi, keyin tura qochib ketdi.

- Endi sen bilan do'st emasman! – baqirdi Bilmasvoy uni quvib ketayotib.

- Bo'пти, juda yaxshi! – dedi Dumbulvoy. – Yarashgani oldin o'zing kelasan.

- Ko'rasan, sirayam bormayman! Biz havo pufagida sayohatga chiqamiz.

- Tomdan boloxonaga ucha beringlar!

- Tomdan boloxonagacha o'zing uhasan! – deb javob berdi-da, Bilmasvoy rezina suvi yiqqani jo'nab qoldi.

Bochka rezina suviga to'lgandan keyin, Bilag'on uni yaxshilab aralashtirdi va Tuzatvoyga avtomobilga ishlatadigan nasosni olib kelishni buyurdi. Bu nasosning uchiga uzun rezina quvur o'rnatdi, quvurning uchiga esa, rezina suvidan quyib qo'ydi, keyin Tuzatvoyga nasos bilan havo yuborishni buyurdi, Tuzatvoy nasosni bosavergan edi, o'sha zahoti rezina suvi shisha boshlab xuddi sovun ko'pigiga o'xshab ko'pirib ketdi. Bilag'on bu shishgan pufakning atrofiga rezina suvidan surkab turdi. Tuzatvoy nasos orqali havo berishni to'xtatmadi, haligi yumaloq pufak borgan sari kengayib kattakon sharga aylandi. Hatto Bilag'on uning hamma yog'iga rezina suvi surkashga ham ulgurolmay qoldi. Shunda boshqa bolalarga ham surkab turinglar, deb buyurdi. Hamma ishga kirishib ketdi. Pufakning atrofida hammaga ham ish

topildi-yu, faqatgina Bilmasvoy atrofda hushtak chalib yurdi, u shardan nariroq turishga urinar, unga uzoqdan qarardi va:

- Pufak yorilib ketadi! Ana, hozir yoriladi! Eh! - derdi nuqul.

Ammo pufak yorilmadi, borgan sari kattalasha bordi. U tez orada shunaqangi katta bo'lib ketdiki, pufakning usti va yoniga rezina suvi surib turish uchun hovli o'rtasida o'sgan yong'oq ustiga chiqishlariga to'g'ri keldi.

Pufakni shishirish ikki kun davom etdi. Sharning kattaligi tom bo'yi bo'lgandan keyingina shishirishni to'xtatishdi. Shundan keyin Bilag'on pufakdan havo chiqib ketmasin deb uning tagidagi trubkani arqoncha bilan bog'lab qo'ydi va:

- Pufak endi qurib tursin, ungacha biz siz bilan boshqa ishni qilamiz, - dedi.

U pufakni shamol uchirib ketmasligi uchun yong'oq shoxiga arqon bilan bog'lab qo'ydi. Keyin bolalarni ikki otryadga bo'ldi. Bir otryadga pilla terib kelishni, undan ipak olib, ip yigirishni buyurdi. Bu iplardan kattakon to'r to'qinglar, dedi. Boshqa otryadga esa ingichka qayin po'stlog'idan kattakon savat to'qishni buyurdi.

Bilag'on o'z o'rtoqlari bilan bu ishlarni qilib yurishguncha, Gulzor shahrining odamlari yong'oq shoxiga bog'lab qo'yilgan bahaybat pufakni kelib ko'rishdi. Hammaning ham pufakni ushlab ko'rgisi kelardi, ba'zi birlari esa, hatto ko'tarib ko'rmoqchi bo'lardi.

- Pufak yengil ekan, - deyishdi ular. - Uni bir qo'lda bermalol yuqoriga ko'tarish mumkin.

- Yengillikka yengil-ku-ya, lekin menimcha, u ucholmaydi, - dedi Tolib ismli bola.

- Nega uchmas ekan? - deb so'rashdi boshqalar.

- Qanaqa qilib uchardi? Ucholganda edi, yuqoriga ko'tarilgan bo'lardi, u yerda yotibdi-ku. Bundan chiqdi, yengil bo'lgani bilan baribir og'ir, - dedi Tolib.

Mittilar o'ylab qolishdi.

- Hm, hm! - deyishdi ular. - Shar yengil-ku, baribir og'ir. Bu to'g'ri. U qanday qilib uchadi?

Ular Bilag'on dan so'ray boshlashdi. Lekin Bilag'on:

- Ozroq oshiqmay turinglar. Tezda hammasini ko'rasizlar, - dedi,

Bilag'on mittilarga hech nima tushuntirib bermagandan keyin, ular battar shubhalana boshlashdi. Tolib shaharga bo'lmag'ur shov-shuv tarqatdi.

- Pufakni qanaqa kuch yuqoriga ko'tara oladi? - deb so'rardi-da, yana o'zi: - bunaqa kuch yo'q?! Qushlar qanoti bo'lgani uchun uchadi. Rezina pufak yuqoriga ucholmaydi. U faqat pastga ucha oladi, - deb javob berardi.

Shaharda endi hech kim bularning ishiga ishonmay qo'ydi. Hamma kulardi. Ular Bilag'onning uyi yoniga kelib devordan sharga qarashar:

- Qaranglar, qaranglar! Uchib ketay deyapti! - deb kesatishardi.

Bilag'on ularning mayna qilishlariga e'tibor bermadi. Ipak to'r tayyor bo'lgandan keyin to'rni shar ustiga yopishni buyurdi. To'rni yoyishib pufak ustiga tashlashdi.

- Qaranglar! - deb chuvillashdi devor orqasidan mittilar. - Pufakni to'rga solishdi. Uchib ketadi deb qo'rqishyapti. Vah-ha-ha!

Bilag'on pufakning tagidan arqon bilan yong'oq shoxiga bog'lab qo'yib, yuqoriga ko'tarishni buyurdi. Shoshqaloq bilan Tuzatvoy shu zahotiyoy arqonni olib shoxga chiqishdi-da, pufakni yuqoriga ko'tara boshlashdi. Bu holat tomoshabinlarni judayam sevintirib yubordi.

– Vah-xah-xah! – deb kulishdi ular. – Bu shunaqa arqon bilan yuqoriga ko'tariladigan pufak ekan-da. Agar uni arqon bilan yuqoriga ko'taradigan bo'lsa, u qanday qilib ucha oladi?

– Shunday qilib ucha beradi, – dedi Tolib. – Ular pufakni ustiga o'tirishadi, arqon bilan yuqoriga tortishadi, qarabsanki, pufak uchadi-ketadi.

Sharni yerdan yuqoriga ko'tarishganda to'rning uchlari to'rt tomondan pastga osilib tushdi. Bilag'on to'rning osilib tushgan uchini qayin po'stlog'idan qilingan savatga bog'lashni buyurdi. Savat to'rtburchak edi. Uning har bir tomonida bittadan kichkina o'rindiqlik qilingan edi, har bir o'rindiqlikka to'rttadan bola sig'ardi.

Savatning to'rt burchagidan to'rga bog'lashdi. Bilag'on pufak uchishga tayyor ekanini e'lon qildi. Shoshqaloq endi uchish mumkin, deb o'yladi. Lekin Bilag'on hamma uchun parashut yasash lozimligini aytdi.

– Parashut nega kerak? – deb so'rab qoldi Bilmasvoy.

– Shar to'satdan yorilib ketishi mumkin. Shunda parashut bilan sakrab tushiladi, – deb tushuntirdi Bilag'on.

Ertasiga Bilag'on va uning sheriklari parashut tayyorlash bilan ovora bo'lishdi. Hamma ham o'ziga qoqigulning paridan parashut yasab oldi, chunki Bilag'on hammaga parashutni qanday yasash kerakligini ko'rsatib bergan edi.

Shahar aholisi pufakning shoxda harakatsiz ilinib yotganligini ko'rib, bir-biriga:

– Yorilib ketguncha shunday osilib turaveradi. Hech ham uchmaydi, – deyishdi.

– Nega endi uchmayapsizlar? – deb baqirishdi yana devor orqasida turib. – Pufak yorilib ketgunicha uchish kerak, axir!

- Xavotir olmanglar, - deb javob berdi ularga Bilag'on. - Ertaga ertalab soat sakkizda uchamiz.

Ko'plar masxara qilib kulishdi, ba'zilar bo'lsa ikkilanib qolishdi.

- Rostdan ham uchadiganga o'xshaydi ular! - deyishdi ular. - Ertaga kelib ko'rish kerak.

Yettinchi bob

SAYOHATGA TAYYORGARLIK

Bilag'on do'stlarini ertalab barvaqt uyg'otdi. Hamma uyg'onib, yo'l tadorigini ko'ra boshladi. Murvatvoy va Tuzatvoy charm kamzullarini kiyishdi. Ovchi O'qtoy eng yaxshi ko'radigan charm etigini kiydi. Bu etikning qo'nji tizzadan baland joyidan tasmacha bilan tortib boylab qo'yilardi. Bunaqangi etiklar sayohatda juda qulay bo'ladi. Shoshqaloq «Shoshilinch» deb ataladigan kostyumini kiyib oldi. Bu kostyum haqida ancha gapirishga to'g'ri keladi. Shoshqaloq doim shoshib, vaqtini bekor o'tkazmaslikka harakat qilganidan o'ziga bitta ham tugmasi yo'q maxsus kostyum o'ylab chiqardi. Nega desangiz, kiyim kiyganda va yechganda tugmani qadash va yechish juda ko'p vaqt oladi. Shoshqaloqning kostyum-shimi bo'lak-bo'lak bo'lmay, korjomaga o'xshab yaxlit edi. Bu korjoma faqat bo'yin tomonidagi bitta tugmacha bilan qadab qo'yilardi. Tugmasini yechib yuborilsa bormi, bu kiyim bir zumda yelkadan sirg'alib, ko'z ochib yumguncha, oyoq ostiga yechilib tushardi.

Bo'g'irsoq degan xo'ppa semiz bola eng yaxshi kostyumini kiydi. U hammadan ham kostyumidagi

cho'ntaklarni ehtiyot qilardi. U kostyumining cho'ntagi qancha ko'p bo'lsa, shuncha yaxshi deb hisoblardi. Uning ajoyib kostyumida o'n yettita cho'ntak bor edi. Kamzulida o'nta cho'ntak bo'lib, ikkitasi ko'kragida, ikkita qiyshig'i qornida, ikkitasi yonida, uchta ichida va bitta yashirin cho'ntagi orqa tomonida edi. Shimida esa, ikkita cho'ntak oldinda, ikkitasi keyinda, ikkitasi yonida, bittasi pastroqda - tizzada edi. Hayotda shunaqangi o'n yetti cho'ntakli, tizzasida ham cho'ntagi bor kostyum-shimni faqat kinooperatorlardagina uchratish mumkin.

Sharbatjon katak-katak kostyum kiyib yasandi. U nuqul katak kostyumda yurardi. Uning shimi ham, kamzuli ham, qalpog'i ham katak-katak edi. Mittilar uni uzoqdan ko'rishganda doim: «Ana qaranglar, qaranglar, shaxmat taxtasi kelyapti», deyishardi. Agarqul degan bola chang'i kiyimini kiyib yasanib oldi. U bu kiyimni sayohat uchun qulay deb o'yladi. Magarqul esa, egniga yo'l-yo'l fufayka, yo'l-yo'l jun ko'ylak kiydi, bo'yniga ham yo'l-yo'l sharf o'radi. Bu kiyimlarda uning hamma yog'i yo'l-yo'l bo'lib ketgandi. Uzoqdan u, Magarqul emas, halki yo'l-yo'l to'shakka o'xshardi. Hamma o'z holiga yarasha kiyindi. Faqatgina, narsalarini qayer to'g'ri kelsa, shu yoqqa uloqtiraveradigan Dovdirvoy kamzulini izlay-izlay topolmadi. Qalpog'ini ham qayoqqadir tiqib qo'ygan ekan, shuncha qidirsam ham topolmadi. Keyin karavotning tagidan qishki quloqchinini topib oldi.

Rassom Bo'yoqvoy bo'lsa, sayohat paytida ko'rganlarini suratga olishni mo'ljallab qo'ydi. U bo'yoq va mo'yqalamlarni olib, havo pufagining savatiga oldindan tashlab qo'ydi. Mashshoqvoy o'zining nayini olmoqchi bo'ldi. Doktor Dorijon ham dori xaltasini olib, savatda-

gi o'rindiq tagiga tashlab qo'yd. Sayohat vaqtida bit-ta-yarimtasi kasal bo'lib qolishi mumkin-da.

Hali soat olti bo'lmasdanq atrofga butun shahar ahli yig'ilib qoldi. Uchishni tomosha qilgani kelgan ko'pchilik mittilar devor va tomlarda o'tirishardi.

Shoshqaloq savatga hammadan oldin tushib, o'ziga juda qulay joyni tanlab oldi. Uning ketidan Bilmasvoy tushdi.

– Ana qaranglar, – deb qichqirishdi atrofga yig'ilgan tomoshabinlar, – chiqib o'tirishyapti!

– Sizlar nima uchun savatga chiqib oldilaring? – dedi Bilag'on. – Tushinglar, hali vaqt erta.

– Nega vaqt erta ekan? – dedi Bilmasvoy.

– Hech narsani bilmaysan! Pufakni avval iliq havob bilan to'ldirish kerak-da, axir!

– Iliq havoning nima keragi bor? – deb so'radi Shoshqaloq.

– Nega deganda, iliq havob sovuq havodan yengil bo'ladi, shuning uchun u yuqoriga ko'tariladi. Biz pufakni iliq havob bilan to'ldirsak, osmonga olib chiqadi, – deb uqtirdi Bilag'on.

– E, hali, bundan chiqdi, iliq havob ham kerak ekan-da, – dedi Bilmasvoy va Shoshqaloq bilan ikkovi savatdan tushishdi.

– Qaranglar, – deb kimdir qo'shni tomdan turib baqir-di, – qaytib tushishyapti! Aynishibdi.

– Albatta, aynishgan, – deb javob berdi boshqa tomdan bir kishi, – shunaga pufakda uchish mumkinmi, axir? Odamlarni shunchaki laqillatishyapti-da.

Shu chog' Bilag'on mittilarga bir necha qopga qum to'ldirib, savatga solishni buyurdi. Shu zahotiyog' Shoshqaloq, Indamas, Agarqul va boshqa bolalar savatga solish uchun qoplariga qum to'ldira boshlashdi.

– Ular nima qilishmoqchi? – deb bir-biridan so‘rashardi tomoshabinlar hayron bo‘lib. – Nimagadir savatga qumli qopni solishyapti?

– Ey, qumli qoplarni nima qilasizlar? – deb baqirdi devorga minib o‘tirgan Tolib.

– Osmonga chiqib olib, boshingizga tashlaymiz, – dedi Bilmasvoy.

Bilmasvoy qopning nimaga kerakligini bilmas edi, albatta. Bu gapni uning o‘zi o‘ylab topdi.

– Oldin bundoq osmonga ko‘tarilib ko‘ringlar-chi! – deb baqirdi Tolib.

Devorda Tolibning yonida o‘tirgan Jinqarcha:

– Ehtimol, ular uchishdan qo‘rqishayotgandir, o‘zlarining o‘rniga qumli qopni uchirishmoqchidir, – dedi.

Atrofdan kulgi ko‘tarildi.

– Albatta, qo‘rqishadi-da! Nimadan ham qo‘rqishadi-a? Baribir pufak uchmaydi-ku.

– Ehtimol hali uchib qolar, – dedi devorning tirqishidan qarayotgan qizaloqlardan biri.

Tevarak-atrofdagilar bahslashgunlaricha, Bilag‘on hovli o‘rtasida olov yoqishni buyurdi. Murvatvoy bilan Tuzatvoy o‘z ustaxonalaridan kattakon mis qozon olib chiqqanini, uni olov ustiga qo‘yganini hamma ko‘rib turdi. Murvatvoy bilan Tuzatvoy havo qizdirish uchun allaqachon shu qozonni yasab qo‘yishgan edi. Qopqog‘i zich yopilgan qozonning chetida teshigi bor bo‘lib, havo yuborib turish uchun qozonning yoniga nasos o‘rnatilgan. Havo qizigandan keyin, qozon qopqog‘idagi teshikdan isib chiqadi.

Qozonning nima uchun kerakligini tomoshabinlardan hech kim bilmasdi, albatta, lekin har kim o‘zicha taxmin qilardi.

– Ehtimol, sayohat oldidan ovqatlanib olish uchun sho'rva qilishmoqchidir, – dedi Moychechak degan qizaloq.

– Albatta ovqatlanishadi-da, – dedi Jinqarcha. – Shunaqangi uzoq yo'lga chiqadigan bo'lsang, ehtimol, sen ham ovqatlanib olarding!

– Rost, – deb gapiga qo'shildi Moychechak, – ehtimol bu, eng oxirgi marta...

– Eng oxirgi marta deganing nimasi!

– Hali, eng oxirgi marta ovqatlanishib keyin uchi-shadi, pufak yorilib, ular ham parcha-parcha bo'lishadi...

– Xavotir olma, yorilmaydi, – dedi unga Tolib, – yori-lish uchun oldin uchishi kerak, bu bo'lsa, ko'rdingmi, bir haftadan beri turibdi, hech qayoqqa uchmaydi.

– Ana endi uchadi! – deb javob berdi uchishni tomo-sha qilishga Chivinoy bilan birga kelgan Munchog'oy.

Hamma tomoshabinlar qizg'in bahslashishga kirish-di. Agarda bitta-yarimtasi pufak uchadi desa, boshqa bi-rovi o'sha zahotiyoy uchmaydi derdi, agarda birov uch-maydi desa, boshqa biri uchadi derdi. Shovqin-suron ko'tarilgani uchun hech nimani eshitib bo'lmasdi. Bir tom tepasida ikkita bola juda qizg'in bahslashishgani-dan bir-biri bilan urishib ketishdi. Ustlariga suv sepib, ularni ajratib yuborishdi.

Bu orada qozondagi havo isib qoldi. Bilag'on pufak-ni issiq havoga to'ldirish mumkin deb o'yladi. Lekin pufakni issiq havo bilan to'ldirish uchun, avval unda-gi sovuq havoni chiqarib yuborish kerak edi. Bilag'on pufak yoniga kelib, rezina quvur qattiq bog'lab qo'yil-gan arqonni yechdi. Sovuq havo pufak ichidan qattiq vishillab chiqa boshladi. Shar uchadi yo uchmaydi deb bahslashayotgan mittilar, sharning kichiklashayotgani-ni ko'rib qolishdi. Shar bujmayib, burishib, nok qoqiga

o'xshab, savatning ichida ko'rinmay ketdi. Juda chiroyli, bahaybat pufak o'rnida endi ustiga to'r yopilgan savat turardi, xolos.

Vishillash tindi. Shu zahotiy oq birdaniga kulgi ko'tarildi. Pufak uchadi deganlar ham, uchmaydi deganlar ham kulishdi. Bilmasvoyning oshnasi Dumbulvoy shunaqangi kuldiki, hatto tomdan dumalab tushib, gardanini shishirib oldi. Doktor Dorijon shu yerning o'zidayoq, uni davolab, shishiga yod surib qo'ydi.

– Mana buni uchish desa bo'ladi! – deb baqirishdi atrofdan. – Bilag'onning pufagi mana shunaqa-da. Pufakka bir haftacha ovora bo'lishdi, u bo'lsa paqillab yorildi-ketdi. Ana tomosha-yu, mana tomosha! Umrimde sirayam bunaqa maza qilib kulmaganman!

Lekin Bilag'on kulgilarga e'tibor qilmadi. U pufak bilan qozonga uzun quvur uladi. Qozonga ulangan nasosdan havo yuborishni buyurdi. Qozonga yangi havo kira boshladi, isigan havo bo'lsa quvur orqali to'ppa-to'g'ri pufakka o'tib ketardi. To'r ostida yotgan pufak asta-sekin kattalashib borib, savatga sig'may ketdi.

– Ana qaranglar, – deb sevinishardi tomoshabinlar, – tag'in shishirishyapti! Voy tentaklar-ey! U yorilib ketadi-ku!

Pufak bo'lsa yana shishib, kattalashib savat ichidan chiqib ketdi, keyin savat ustida to'xtab qoldi. Endi u idishda yotgan bahaybat tarvuzga o'xshardi. Shunda pufakning ohista yuqoriga ko'tarilganini va savatga bog'langan to'rni tortganini bilib qolishdi hamma. Hayron bo'lishganidan «voy» deb baqirishdi. Endi pufakni hech kim arqon bilan yuqoriga ko'tarmayotganini barcha ko'rib turardi.

– Ura! – deb qichqirdi Moychechak va, hatto, chapak ham chalib yubordi.

- Baqirma! – deb qichqirdi unga Tolib.

- Axir, uchdi-ku!

- Hali uchganicha yo'q. Qaragin, u savatga bog'langan-ku. Hali u savatni, yana shuncha bolalarni ko'tara olarmidi!

Tolib pufakning kattalashib, yuqori ko'tarilganini va savatning yerdan uzilayotganini ko'rib, kuchining boricha baqirib yubordi:

- Ushlanglar, ushlanglar! Uchib ketadi bo'lmasa! Nimaga qarab turibsizlar?

Lekin savat yong'oq daraxtiga mahkam bog'langani uchun pufak uchib ketmadi. U yerdan salgina yuqoriga ko'tarildi, xolos.

- Ura-a! – degan ovoz keldi har tomondan. – Ura! Qoyil Bilag'onga, qoyil! Bilag'onning pufagi ana shunaqa! Uni nima bilan shishirishdi ekan? Ehtimol, bug' bilandir.

Pufakning uchishiga endi hamma ishongan edi.

Sakkizinchi bob

SAYOHAT

Pufakni iliq havo bilan to'ldirib bo'lishdi. Bilag'on qozonni olib ketishni buyurdi va iliq havo pufakdan chiqib ketmasin deb rezina quvurni arqon bilan o'zi bog'lab qo'ydi. Keyin hammaga, savatga chiqinglar, deb buyurdi. Eng oldin Shoshqaloq, undan keyin Bo'g'irsoq chiqdi. U sal bo'lmasa boshqa mittilarning ustiga yiqilib tushayozdi. U semizgina, hamma cho'ntaklari mayda-chuyda narsalarga – qandqurs va pechenyega to'la edi. Buning ustiga, har eh-

timolga qarshi kalishini kiyib, qo'liga soyabonni ushlab olibdi. Bo'g'irsoqni ko'plashib savatga chiqarishdi, uning ketidan qolgan bolalar ham amallab chiqib olishdi. Sharbatjon savat atrofida o'ralashib yurib, hammani chiqarardi:

– Marhamat qilib, chiqa qolinglar, – derdi u, – yaxshilab joylashib olinglar, joy hammaga ham yetadi.

– O'zing ham chiqib ol, – deyishdi unga.

– Ha, chiqarman, – deb javob berdi Sharbatjon, – avval sizlar chiqib olinglar-chi.

U hammani qo'ltig'idan ko'tarib, orqasidan suyab yuqoriga chiqishiga yordam berardi.

Nihoyat, hamma savatga chiqdi, pastda Sharbatjonning bir o'zi qoldi.

– Sen nega chiqmayapsan? – deb so'rashdi undan.

– Chiqmasam tuzuk bo'larmikin, – deb javob berdi Sharbatjon. – Juda semizman. Mensiz ham u yer sizlarga torlik qilyapti. Og'irlik qilamanmi deb cho'chiyapman.

– Cho'chimay qo'ya qol, hech qanaqasiga og'irlik qilmaysan.

– Yo'q og'aynilar, o'zlaring ucha qolinglar. Sizlarni shu yerda kutib turaman. Sizni qisib qo'yishning nima keragi bor!

– Sen hech kimni qismaysan, – deb javob berdi Bilag'on, – chiqib ol. Hammamiz uchmoqchi bo'ldikmi, birgalikda uchamiz.

Sharbatjon istar-istamas savatga chiqqan edi, to'satdan osilib turgan savat pufak bilan birga lop etib yerga tushib qoldi.

– Ana uchishdi! – deb kuldi devorda o'tirgan Jinqarcha.

– Sen nega kulyapsan? – deb unga baqirdi Tolib. – Bu yerda ko'ngilsizlik yuz berdi-ku, u bo'lsa kuladi-ya!

– Hech qanday ko'ngilsizlik yo'q, – dedi Shishajon. – Havo pufagi faqat o'n besh bolaga mo'ljallangan, o'n oltitani ko'tarolmaydi.

– Bundan chiqdi, uchishmas ekan-da? – deb so'radi Tolib.

– Birortasini qoldirishga to'g'ri keladi, undan keyin uchadi, – dedi Shishajon.

– Ehtimol, Bilmasvoyni qoldirishar, – dedi Chivinoi.

Havo pufagida uchishdan cho'chigan Sharbatjon xursand bo'lib:

– Ana, aytmadimmi, og'irlik qilaman deb! Yaxshisi, men tushib qolay, – dedi.

U tushib qolish uchun oyog'ini ko'targan ham ediki Bilag'on bir qop qumni savatdan tashlab yubordi. Pufak shu zahotiyuq yengillashib, tag'in yuqoriga ko'tarildi. Bilag'on qumli qoplarni nima uchun savatga soldirganini hamma shundan keyingina payqadi. Barcha chapak chalib yubordi, Bilag'on bo'lsa qo'lini yuqoriga ko'tarib, mittilarga qarata nutq so'zladi:

– Xayr, og'aynilar! – deb qichqirdi u. – Biz uzoq o'lkalarga uchib ketyapmiz. Bir haftadan keyin qaytib kelamiz. Xayr, og'aynilar!

– Xayr! Xayr! Oq yo'! – deb mittilar baqirishar, qo'llarini, bosh kiyimlarini silkishardi.

Bilag'on qalamtaroshini olib savatdan yong'oq shoxiga bog'langan arqonni qirqib yubordi. Pufak bir sirg'alib yuqoriga ko'tarildi-da, yoni bilan shox-shabbalarga ilinib qoldi, lekin shu zahotiyuq ilingan joyidan chiqib, tezlik bilan osmonga ko'tarila boshladi.

– Ura! – deb baqirishdi mittilar. – Yashasin Bilag'on va uning o'rtoqlari! Ura-a!

Hamma chapak chalib, qalpoqlarini osmonga ota boshlashdi. Mittivoylar sevinishganidan bir-birlarini

quchoqlab olishdi. Hatto Chivinoy bilan Munchog'oy o'pishib olishdi. Gunafshaxon bo'lsa yig'lab yubordi.

Pufak balandga ko'tarila bordi. Shamol uni yon tomonga uchirardi. U tez orada zangori osmonda zo'rg'a ko'rinadigan kichkina nuqtaga aylandi. Shishajon tomning tepasiga chiqib olib, durbinida qora nuqtani ko'ra boshladi. Uning yonginasida, tomning chetida shoir Gulshaniy turardi. U qo'lini ko'ksiga qo'yib, go'yo bir narsani o'ylaganday, shovqin solayotganlarga suyunib qarab turardi. U to'satdan qulochini keng ochib, bor ovozi bilan:

– She'r eshitinglar! She'r! – deb baqirdi.

Atrof birdan jim bo'lib qoldi. Hamma boshini ko'tarib, Gulshaniyga qaradi.

– She'r! – deb shivirlashdi mittilar. – Hozir she'r o'qishar ekan.

Gulshaniy jimlik bo'lishini kutib turdi. Keyin uchib ketgan pufakka qo'lini cho'zib, sal yo'talib qo'ydi, yana:

– She'r, – dedi.

Keyin hozirning o'zida to'qigan she'rini o'qiy boshladi:

Ulkan pufakni to'ldirdik parga,
Ko'tarilmadi ko'kka bekorga.
Bizning mittilar qush bo'lmasa ham,
Ko'kka uchishga yarar chinakam.
Bu ish judayam oson-ku, attang!
Endi aqlimiz yetibdi, qarang!

Keyin birdan qiyqiriq ko'tarildi. Hamma yana chapak chaldi. Bolalar Gulshaniyning tomdan tushirib, uyigacha qo'lda ko'tarib borishdi. Ular gul barglarini yulib olib, Gulshaniyga otishardi. Bugun Gulshaniy go'yo havo pufagini o'zi o'ylab topib, unda ko'kka uchganday

dovrug' qozondi. Uning she'rini hamma yodlab olib, ko'chalarda aytib yurishdi.

O'sha kuni ancha paytgacha goh, u yerda, goh, bu yerda:

Bu ish judayam oson-ku, attang!
Endi aqlimiz yetibdi, qarang, -

degan misralar eshilib turdi.

To'qqizinchi bob

BULUTLAR USTIDA

Qo'rqmas sayohatchilarimiz pufakning yerdan shunchalik silliqqina uzilganidan, uning havoga ko'tarilganini ham sezmay qolishdi. Birozdan keyingina savatdan pastga qarashgandi, qo'llarini silkib, qalpoqlarini osmonga otib xayrlashayotgan to'da-to'da do'stlarini ko'rishdi. Pastdan «Ura!» degan qichqiriq eshitalardi.

- Xayr, xayr! - deb qichqirishdi ularga javoban Bilag'on va uning o'rtoqlari.

Bular ham qalpoqlarini silkita boshlashdi. Dovdirvoy qalpoqchasini olish uchun qo'lini boshiga olib borgan ham edi, qalpog'i yo'qligini payqab qoldi.

- To'xtanglar, og'aynilar! - deb baqirdi u. - Pufakni to'xtatinglar! Qalpog'im uyda esimdan chiqib qolibdi.

- Sen nuqul biron narsangni esingdan chiqarib yurasan! - deb vaysadi Sergap.

- Pufakni endi to'xtatib bo'lmaydi, - dedi Bilag'on. - U ichidagi havosi soviguncha ucha beradi, shundan keyin pastga tushadi.

- Bu qanaqasi bo'ldi, qalpoqsiz uchar ekanman-da? - dedi ranjib Dovdirvoy.

- Qalpog'ingni karavot tagidan topgan eding-ku, axir, - dedi Bo'g'irsoq.

- Topishga-ku topgan edim-a, kiyganimda isib ketib stolga tashlab qo'ygan edim. Keyin, jo'nash paytida ki-yishni esdan chiqaribman.

- Sen doim oxirida nimanidir unutib qo'yasan, - dedi Sergap.

- Qaranglar-a, og'aynilar, - deb baqirdi birdaniga Bilmasvoy, - bizning uyimiz pastda qolibdi-ya!

Hamma kuldi, Sergap bo'lsa:

- Sen ehtimol uy ham biz bilan uchadi deb o'ylagan-dirsan, - dedi.

- Sirayam bunaqa deb o'ylaganim yo'q! - xafa bo'ldi Bilmasvoy. - Shunchaki, uyimizga ko'zim tushib qolib, ayta qoluvdim. Oldin hamma vaqt uyda yashagan edik, endi bo'lsa-chi, havo pufagida uchyapmiz.

- Uchishga-ku, mana, uchyapmiz, - dedi Sergap, - ha-li qayoqqa ucharkanmiz!

- Sen, Sergap, doim vaysaganing-vaysagan, - dedi Bilmasvoy. - Sening dastingdan havo pufagida ham tinchlik yo'q,

- Yoqmasa, bor jo'na!

- Bu yerdan qayoqqa ham borardim?

- Bas endi, - deb jerkib tashladi ularni Bilag'on. - Ha-vo pufagida ham janjalmi?

Havo pufagi yanayam balandga ko'tarildi. Gulzor shahri bo'lsa kaftda turganday yaqqol ko'rinardi. Uylar tariqday bo'lib ko'zga tashlanar, mittilarni esa sirayam ilg'ab bo'lmasdi. Pufakni shamol olib ketdi, shahar bo'lsa birpasda juda olisda qolib ketdi.

Bilag'on cho'ntagidan kompasini olib, pufak uchayot-gan tomonni aniqladi.

Kompas – ohanrabodan mili bo'lgan kichkina qu-ticha. Ohanrabo mili doim shimolni ko'rsatib turadi. Kompas miliga qarab hamma vaqt qaytish yo'lini topish mumkin. Bilag'on shuning uchun kompasni olgan edi.

– Shamol bizni to'ppa-to'g'ri shimolga olib ketmoq-da! – dedi Bilag'on. – Bundan chiqdi, qaytishda janubga yurishimiz kerak.

Havo pufagi judayam yuqoriga ko'tarilib, dalalar ustidan uchardi. Shahar ko'zdan g'oyib bo'ldi. Mitti-lar Bodring daryosi deb atashadigan daryocha pastda ingichka tasmaga o'xshab ko'rinardi. Dala o'rtasidagi daraxtlar bo'lsa, kichkina quyuq shoxchaga o'xshar-di. Bo'g'irsoq birdan pastda kichkinagina qora dog'ni payqab qoldi. Dog' pufakning ortidan yugurganday yer bo'ylab chopardi.

– Qaranglar-a, og'aynilar, kimdir ortimizdan chopib kelyapti! – deb qichqirib yubordi Bo'g'irsoq.

Hamma o'sha dog'ga qaray boshladi.

– Ana, qaranglar, daryodan ham sakrab o'tdi, – deb qichqirdi Dovdirvoy.

– Bu nima bo'lishi mumkin? – deb so'radi Shoshqaloq...

– Qaranglar, daraxtlar ustidan ham sakrayapti!

Havo pufagi o'rmon ustida uchsa dov-daraxtlarni oralab o'tib borardi. Doktor Dorijon ko'zoynagini taqib qarasa ham nima ekanligini payqay olmadi.

– Bildim! – deb baqirib yubordi birdan Bilmasvoy. – Eng birinchi o'zim bildim. Bu bizning Ko'ktoy itimiz! Uni yonimizga olishni esdan chiqarib qo'yibmiz. Shuning uchun u ketimizdan chopib kelyapti.

– Nima deyapsan! – dedi O'qtoy, – Ko'ktoy shu yer-da-ku. Mana oyog'imning tagida yotibdi.

– Bu nima ekan unda? Ehtimol, sen toparsan Bila-g'on? – deb so'radi Agarqul.

Bilag'on kompasini yashirib qo'yib, pastga qaradi.

- Bu axir bizning soyamiz-ku! - deb kuldi u.

- Qanaqasiga bizning soyamiz bo'ladi? - deb hayron bo'ldi Bilmasvoy.

- Pufakning soyasi. Biz havoda uchib ketyapmiz, soyamiz bo'lsa yerda chopib ketyapti.

Mittilar soyani anchagacha kuzatib borishdi, u esa borgan sari kichkinalashardi. Oxiri batamom yo'q bo'lib qoldi.

- Soyamiz qayoqqa yo'qolib qoldi? - deb bezovtalanishdi mittilar.

- Biz juda balandga ko'tarildik, - deb tushuntirdi Bilag'on.

- Endi soyani ko'rib bo'lmaydi.

- Bema'nilik-ku! - deb vaysadi Sergap. - Bu yerda o'tirib, hatto o'z soyangni ham ko'rolmasang.

- Tag'in vaysayapsan-a! - dedi Bilmasvoy. - Sening dastingdan hech qayerda tinchlik yo'q.

- Tinchlik, tinchlik, - deb masxara qildi uni Sergap. - Havo pufagida tinchlik nima qilsin? Agarda tinchlikni xohlasang, uyingda o'tir edi.

- O'zing shunaqa qilaqol.

- Menga tinchlik kerakmas.

- Tag'in janjallashyapsizlarmi? - dedi Bilag'on, - Sizlarni yerga tushirishga to'g'ri keladi.

Sergap va Bilmasvoy qo'rqishganidan, janjalni to'xtatishdi.

Havo pufagi bu paytda allaqanday tutunga va tumanga o'xshash narsaga duch kelib qoldi. Pastda yer yuzi ko'rinmay qoldi. Atrof go'yo oq parda bilan o'ralganday edi.

- Bu nima o'zi? - deb baqirib yubordi barcha. - Tutun qayoqdan kelyapti?

- Bu tutun emas, - dedi Bilag'on. - Bu - bulut. Biz bulutga yetdik, endi bo'lsa, bulut orasida uchyapmiz.

- Buni o'zingdan to'qiyapsan. - dedi Bilmasvoy. - Bulut suli sharbatiga o'xshagan suyuq bo'ladi bu bo'lsa allaqanday tuman-ku.

- Bulut seningcha, nimadan qilingan? - deb so'radi Bilag'on. - Bulut axir tumandan bo'ladi-da. U faqat uzoqdan quyuq bo'lib ko'rinadi.

Bilmasvoy uning gapiga ishonmadi:

- Og'aynilar, gapiga quloq solmanglar, - dedi go'yo o'zining bilag'onligini ko'rsatmoqchi bo'lib, - bularning barini o'zidan to'qiyapti. O'zi bo'lsa, hech nimani bilmaydi. Uning bulut va tuman deganiga ishonib bo'pman! Bulut, bu - sharbat. Men sharbat ichmabmanmi?

Havo pufagi tez yuqoriga ko'tarilib, bulut orasidan chiqib oldi-da, bulut ustida uchib keta boshladi. Bilmasvoy savatdan mo'ralab pastdagi bulutlarni ko'rdi. Ular, hamma yoqqa yoyilib yer yuzini batamom bekitib qo'ygan edi.

- Voy, juda g'alati-ku, - deb baqirib yubordi Bilmasvoy. - Osmon pastda qoldi! Biz oyog'imiz osmonda bo'lib uchyapmiz!

- Nega oyog'imiz osmonda bo'lar ekan? - deb hayron bo'ldi barcha.

- Ana qaranglar-a, osmon tagimizda bo'lgandan keyin, oyog'imiz osmonda bo'ladi-da.

- Biz bulutlar ustida uchyapmiz, - deb tushuntirdi Bilag'on. - Biz bulutlardan ham yuqori ko'tarildik, shuning uchun bulut tepamizda emas, ostimizda qoldi.

Ammo Bilmasvoy bunga ishonmadi. U o'tirgan joyida boshidagi qalpog'ini qattiq ushlab o'tirardi. U oyog'im osmonda bo'lib o'tirganimdan keyin qalpog'im tushib ketadi, deb o'ylardi.

Shamol pufakni bulutlar ustida tez uchirib ketayotgan bo'lsa ham, lekin sharning pastga tushayotgani uchun hamma:

– Nega biz pastlab ketyapmiz? – deb bezovtalanishdi bolalar.

– Pufakdagi havo soviyapti, – deb tushuntirdi Bilag'on.

– Bundan chiqdi, biz endi yerga tusharkanmiz-da, – dedi Shoshqaloq.

– Nima uchun qopda qum olgan edik? – dedi Bilag'on, – savatdagi qumli qopdan bittasini tashlab yuborsanglar, tag'in yuqoriga ko'tarilamiz.

Agarqul darrov bir qop qumni olib pastga itqitdi.

– Nima qilyapsan? – deb baqirdi Bilag'on. – Bir qop qumni birdaniga tashlab bo'larmishmi? Bitta-yarim-taning boshiga tushib ketishi mumkin.

– Balki tushib ketmas, – dedi Agarqul.

– Balki tushib ketmas! – deb uni masxara qildi Bilag'on.

– Qopning og'zini ochib, qumni to'kish kerak.

– Hozir to'kaman, – dedi Magarqul.

U qopning og'zini echib, qumni savatning ichiga to'kib qo'ydi.

– Bir-biridan aqlli-ya! – deb boshini liqillatib qo'ydi Bilag'on. – Qum savatning ichida qolgandan keyin, bundan nima foyda chiqdi? Bu bilan pufak yengil bo'lmaydi-ku.

– Men qumni sepib tashlay qolaman, – deb Magarqul savatdagi qumni hovuchlab sepa boshladi.

– Sekinroq-da! – deb baqirib berdi Dovdirvoy. – Ko'zingga qum sepib yuborishing mumkin.

– Balki ko'zingga sepmasman, – dedi-yu Magarqul, shu zahoti bilmasdan uning ko'ziga qum tushirib yubordi.

Hamma Magarqulni urishib berdi. Agarqul bo'lsa pichoqni olib, qum to'kilsin deb savatning tagini katta qilib teshib qo'ydi. Bilag'on ko'rib qolib baqirib berdi:

– To'xta deyman, nima qilyapsan o'zing? Savatni buzib, hammani yerga tushirib yubormoqchimisani!

– Balki savat buzilib ketmas, – deb javob berdi Agarqul.

– Ikkovingning topgan gaping nuqul shunaqa «Balki, mabodo» xolos, – dedi-da, Bilag'on Agarqulning qo'lidagi pichog'ini tortib oldi.

Qum savat teshigidan to'kilib, pufak ancha yengilashdi-yu, yana yuqoriga ko'tarildi. Bolalar suyunib, savatdan atrofga qarashdi. Pufakning yana yuqoriga uchganidan barcha xursand bo'ldi. Faqat Sergapgina odaticha to'ng'illay boshladi:

– Bu qanaqasi o'zi: bir yuqoriga chiqadi, bir pastga tushadi! Pufak ham shunaqa uchar ekanmi?

Tag'in nima deyishini bilmasdan, indamay o'tirib qand chaynayotgan Bo'g'irsoqqa qarab:

– Bu yerda nima yeyapsan? – dedi.

– Cho'ntagimdagi qanddan olib yeyapman.

– Qand yeyishga topgan vaqtini qara! Yerga tushib olaylik, keyin yersan.

– Ortiqcha yukni ko'tarib yurishning nima keragi bor, – dedi Bo'g'irsoq. – Qandni yeb olsam, pufak yengillashib, yana yuqoriga ko'tariladi.

– Qani, kemiraver-chi! Qachongacha kemirar ekan-san, – deb javob berdi Sergap.

*O'ninchi bob***FALOKAT**

Ba'zi birovlar osmonga qancha yuqori ko'tarilsang, shuncha issiq bo'ladi deb o'ylashadi, lekin bu noto'g'ri. Qancha yuqori ko'tarilsang, shuncha sovuq bo'ladi. Nega bunaqa? Chunki havo judayam tiniq bo'lganidan quyosh nurlari uni qattiq isitmaydi. Pastda havo doim iliq bo'ladi. Quyosh yerni nurlari bilan qizitadi, yer bo'lsa havoni issiq pechkaday qizdiradi. Qizdirilgan havo sovuq havodan yengil bo'lganidan yuqoriga ko'tariladi. Qancha yuqoriga ko'tarilsa, shuncha ko'p soviydi. Shuning uchun ham juda balandda doim sovuq bo'ladi.

Mittilar buni havo pufagida juda balandga ko'tarilgandan keyingina payqashdi. Sovuq yeyishganidan ularning burun va yuzlari qizarib ketdi. Hammalari sal bo'lsa ham isinib olish uchun oyoqlarini tipirlatar, qo'llarini bir-biriga ishqalashardi. Uyida qalpog'ini esidan chiqarib qo'ygani uchun hammadan ko'p Dovdirvoy sovuq yedi. Qattiq sovuqdan uning burnida kattagina sumalak paydo bo'ldi. U kuzgi yaproqqa o'xshab titrar, tishlari takirlab ketdi.

– Tishingni takirlatmasang-chi! – deb vaysadi Sergap,
– shusiz ham sovuq, sen bo'lsang hadeb tishingni takirlatasan!

– Sovuq bo'lsa, men aybdormanmi? – dedi Dovdirvoy.
Sergap o'rnidan turdi:

– Qulog'imning tagida birov tishini takirlatsa sirayam chidab turolmayman! Etim jimirlab ketadi.

U turib Bo'yoqvoyning yoniga o'tirdi. Lekin Bo'yoqvoyning tishi ham takirlardi, Sergap unga gumonsirab qaradi:

- Senga nima bo'ldi? Yo jo'rttaga takirlatyapsanmi?
- dedi.

- Sirayam jo'rttaga emas-da, sovuqdan.

Sergap o'rnidan turib boshqa joyga borib o'tirdi. U shunday qilib joyini almashtira berib, boshqalarni bezor qildi.

Havo pufagi sovuqdan qirov bilan qoplandi, u bolalarning tepasida kumushdan yasalganday yaltirardi. Pufakning ichidagi havo borgan sari sovib, u asta pastga tusha boshladi. Bir necha daqiqadan keyin pufak juda tez tusha boshladi. Qumli qop qolmaganidan pufakning harakatini hech narsa bilan sekinlatib bo'lmadi.

- Falokat! - deb baqirdi Sharbatjon.

- O'lib ketamiz! - deb dodlay boshladi Bilmasvoy va o'rindiqning tagiga bekinib oldi.

- Buyoqqa chiq! - deb unga baqirdi Bilag'on.

- Nimaga? - dedi Bilmasvoy.

- Parashutlarimizda sakraymiz.

- Menga shu yer ham yaxshi, - deb javob berdi Bilmasvoy. Bilag'on yoqasidan ushlab uni o'rindiq tagidan tortib chiqardi.

- Haqqing yo'q bunday qilishga! - deb baqirdi Bilmasvoy. - Men tegishli joyga arz qilaman!

- Baqirma, - bosiqlik bilan javob berdi Bilag'on. - Vahima qilma. Parashutda sakrashimga qarab tur-da, mening ketimdan sakragin.

Bilmasvoy biroz tinchlandi. Bilag'on savatning chetiga keldi.

- Diqqat, og'aynilar! - dedi u. - Hammalaring mening ketimdan navbat bilan sakranglar. Kim sakramasa, pufak yuqoriga ko'tarilib ketadi. Qani, parashutlarni tayyorlanglar... Ketdik!

Bilag'on birinchi bo'lib sakradi va pastga qarab uchdi. Undan keyin Shoshqaloq sakradi. Shunda birdan kutilmagan voqea ro'y berdi. Shoshqaloq shoshib, oldin sakrab, keyin parashutni ochish o'rniga, oldin parashutni ochib keyin sakrasa bo'ladimi. Parashut bo'lsa savatning chetiga ilinib qoldi. Shoshqaloqning bir oyog'i ipga o'ralashib, boshi pastga osilib qoldi. U baliqchining qarmog'iga ilingan chivalchangga o'xshab, egilib-bukilib, hadeb oyog'ini likillatardi. Shuncha urinsa ham parashut ilingan joyidan chiqib ketmadi.

- Og'aynilar! - deb baqirdi doktor Dorijon. Agarda parashut chiqib ketguday bo'lsa, Shoshqaloq boshi bilan yerga tushadi.

Bolalar parashutdan ushlab Shoshqaloqni savatga tortib olishdi.

Bilmasvoy pufakning yuqoriga ko'tarilayotganini ko'rib qolib, baqirib yubordi:

- To'xtanglar, og'aynilar! Sakrashning keragi yo'q endi. Yana yuqoriga qarab uchyapmiz.

- Nega biz tag'in yuqoriga uchyapmiz? - deb hayron bo'ldi Agarqul.

- Seni qara-yu! - dedi Sergap. - Bilag'on sakragandan keyin yengil bo'lib qoldi-da.

- Bizlarsiz Bilag'on endi nima qiladi? - deb so'radi Bo'g'irsoq.

- Ha, nima qipti... - dedi qo'lini silkib Agarqul. - Astagina uyiga qarab jo'naydi.

- Bilag'onsiz biz nima qilamiz endi?

- Nima bo'пти? - dedi Bilmasvoy. - Bilag'onsiz turol-maysanmi?

- Birovga itoat qilish kerak-da, axir, - dedi Bo'g'irsoq.

- Menga itoat qilasizlar, - dedi Bilmasvoy. - Endi men boshliq bo'laman.

- Sen-a? - deb hayron bo'ldi Sergap. - Shu kallang bilan boshliq bo'lasanmi?

- Xah, shundaymi? Mendan boshliq chiqmaydimi? - deb baqirdi Bilmasvoy. - Agar senga kalam yoqmasa, marhamat qilib pastga sakragin-da, Bilag'oningni qidira qol.

Sergap pastga qaradi:

- Men uni endi qayerdan topaman? - dedi. - Uzoqqa uchib ketib qoldik-ku. Barchamiz baravar sakrashimiz kerak edi.

- Yo'q, sakra, sakra!

Sergap bilan Bilmasvoy naq kechgacha bahslashishdi. Bilag'on yo'qligidan, ularning janjalini hech kim bostirolmasdi. Quyosh ufqqa og'ib ketdi. Shamol zo'raydi. Pufak sovib, tag'in pasaya boshladi. Sergap bilan Bilmasvoy hamon tinchishmagandi.

- Bo'ldi, bahslaringni has qillaring, - dedi Sharbatjon Bilmasvoyga qarab. - Agar boshliq bo'lishni istasang, biror ilojini top. Qara, yana pastga tushyapmiz.

- Hozir topaman, - deb javob berdi Bilmasvoy.

U o'rindiqqqa o'tirib, barmog'ini peshonasiga tirab o'ylay ketdi. Pufak tobora pastlab borardi.

- Endi nimani ham o'ylay olarding? - dedi Murvatvoy. - Agar qumli qoplarimizdan bo'lganda bormi, bittasini tashlagan bo'lardik.

- To'g'ri! - deb ma'qulladi Bilmasvoy, - boshqa qop yo'q, endi oramizdan bittamizni tashlashimizga to'g'ri keladi. Bir odamni parashut bilan tashlasak, pufak yengillashib, tag'in yuqoriga uchadi.

- Kimni tashlaymiz?

- Qani, kimni tashlasak ekan? - dedi o'ylanib Bilmasvoy. - Kim judayam ko'p gapiradigan bo'lsa, o'shani tashlashimiz kerak!

– Men rozi emasman, – dedi Sergap. – Ko'p gapiradigan odam tashlab yuborilsin, degan gap yo'q. Kim eng og'ir bo'lsa, o'shani tashlash kerak.

– Ha, mayli, – deb rozi bo'ldi Bilmasvoy. – Bo'g'irsoqni tashlaymiz. Oramizda eng semizi shu.

– To'ppa-to'g'ri, – deb ma'qulladi Sharbatjon.

– Nima-nima? – deb baqirdi Bo'g'irsoq. – Eng semiz kim ekan? Men eng semiz ekanmanmi? Sharbatjon mendan ham semiz.

– Gappa qaranglar! – deb baqirdi Sharbatjon, qiqirlab barmog'i bilan Bo'g'irsoqni ko'rsatib. – Qaranglar, men undan semizmishman! Ha-ha! Qani, kel, o'lchashamiz.

– Xo'p, mana, mana! – deb Bo'g'irsoq xo'rozday sakrab uning oldiga bordi.

Hamma Bo'g'irsoq bilan Sharbatjonni o'rab oldi. Bilmasvoy cho'ntagidan arqoncha olib, Bo'g'irsoqning belidan aylantirdi. Keyin Sharbatjonni ham shu xilda o'lchaganda, Sharbatjon Bo'g'irsoqdan salkam bir yarim baravar yo'g'on chiqdi.

– Bu to'g'ri emas! – deb baqirdi Sharbatjon. – Bo'g'irsoq hiyla ishlatdi. U qornini ichiga tortib turdi, men ko'rib turuvdim!

– Hecham-da, tortib turganim yo'q! – deb o'zini oqladi Bo'g'irsoq.

– Yo'q, tortib turdi. Men ko'rdim. Kel, bo'lmasa boshqatdan o'lchashamiz! – dedi Sharbatjon.

Bilmasvoy Bo'g'irsoqni o'lchay boshladi. Sharbatjon bo'lsa uning atrofida aylanardi.

– Ey, ey, nima qilyapsan? Xo'ppayding! – deb baqirdi u.

– Nega men xo'ppayar ekanman? – dedi Bo'g'irsoq. – Agar xo'ppaysam, unda, albatta sendan yo'g'on bo'lib ko'rinaman-ku.

- Ha, mayli, xo'ppaymay qo'ya qol. Lekin, qorningni ichingga tortishga haqqing yo'q. Og'aynilar, ana qaranglar, u nima qilyapti! Haqiqat qayoqda o'zi? Hech qanaqa haqiqat yo'q. Bu - ko'zbo'yamachilik!

Bilmasvoy Bo'g'irsoqni o'lchab bo'lgandan keyin Sharbatjonni ham xuddi shunday sinchiklab o'lchadi. Bu safar ularning yo'g'onligi bab-baravar chiqdi.

- Ikkalasini tashlashga to'g'ri keladi, - deb hayron bo'lib qo'llarini yozdi Bilmasvoy.

- Bittasi yetarli bo'lganidan keyin ikki kishini tashlashning nima hojati bor? - dedi Sharbatjon.

O'qtoy savatdan qarab, yerning juda tez, vahimali tarzda yaqinlashayotganini ko'rib qoldi.

- Menga qara, Bilmasvoy, - dedi u, - tezroq hal qil, bo'lmasam yerga borib urilamiz.

- Parashutdan kim sakraydi, sanashmashoq kerak, - dedi Agarqul.

- To'g'ri, - deb ma'qulladi Sharbatjon. - Faqat yo'g'onmi, ingichkami, barcha birday sanalsin, hech kim xafa bo'lib qolmasin.

- Bo'пти, qani sanaymiz, - deb rozi bo'ldi Bilmasvoy. Barcha doira bo'lib turdi. Bilmasvoy barmog'i bilan har bittasini turtib sanay boshladi:

Chumchuq uchdi,
Jarga tushdi.
Eh, beh,
Sen tur, sen chiq!

Keyin;

- Yo'q, bunaqasi ketmaydi. Men bunaqasini yaxshi ko'rmayman! - deb boshqasini ayta boshladi.

Semiz, oriq,
Yeydi tariq,
Sen tur, sen chiq!

Shu payt savat kuch bilan yerga urildi-da, to'ntkarilib ketdi. Agarqul qo'li bilan Magarqulni, Magarqul bo'lsa Agarqulni ushlab savatdan birga otilib tushdi. Keyin boshqa mittilar ham no'xatday sochilib ketishdi. Yolg'iz Bilmasvoygina savat chetini ushlab qoldi. Ko'ktoy bo'lsa uning shimidan tishlab oldi. Yerga koptokday urilgan pufak yuqoriga bir sakrab, havoda ulkan yoy hosil qilganча, yana pastga tushdi. Savat umbaloq oshib yerga urilib ag'darildi. Pufak allaqanday qattiq narsaga tegib paqillab yorildi. Ko'ktoy havoda bir umbaloq oshib tushdi-da, jon-jahdi bilan angillab ura qochdi. Bilmasvoy bo'lsa, savatdan otilib chiqib, yerda qimir etmay yotib qoldi.

Havo sayohati shu bilan tamom bo'ldi.

O'n birinchi bob

YANGI JOYDA

Bilmasvoy butunlay boshqa bir joyda hushiga keldi. U karavotda, par to'shaklar ichida yotardi. To'shaklar shunaqayam yumshoq ediki, go'yo qoqigulning pari to'ldirilganday edi. Bilmasvoyni allaqanday ovoz uyg'otdi. Ko'zini ocha solib, u yoq-bu yoqqa alanglab, begona xonada yotganini ko'rdi. Burchak-burchakda kichkina yumshoq kursilar qo'yilgan. Devorlarda esa gilamlar va rang-barang gullar solingan suratlar bor edi. Deraza oldida bir oyoq-

li aylana stol turardi. Uning ustida esa kashta tikish uchun rang-barang iplar va yostiqlar yotardi. Igna va to'g'nog'ichlar qadalganidan u hurpaygan tipratikonga o'xshardi. Unga yaqin turgan stolda yozuv-chizuv asboblari bor edi. Yonida kitob javoni. Narigi tomonda – eshik yonida katta oyna, oyna oldida ikki jajji qizaloq gaplashib turishardi. Bittasining egnida yaltiroq ipakdan tikilgan ko'k ko'ylakcha, belida esa o'sha matodan qilingan belbog' bo'lib, orqa tomoniga halqa qilib bog'langandi. Uning ko'zlari moviy, uzun, o'rig'liq tim qora sochlari bo'lsa orqasiga tashlangan edi. Boshqasi bo'lsa pushti va gunafsharang guldor ko'ylak kiygan edi. Uning yaltiroq oq-sariq sochlari yelkasiga jingalak bo'lib tushib turardi. U oynaga qarab boshiga qalpoqcha kiyar ekan, zag'izg'onga o'xshab qaqillardi:

– Juda ham beo'xshov qalpoq ekan. Qanday kiysang ham yarashmaydi. Qalpoqni keng soyabonli qilmoqchiydim, mato yetmaganidan ensiz bo'lib qoldi. Soyaboni ensiz bo'lganda-chi, yuzing yumaloq bo'lib ko'rinadi, xunuk bo'lasan.

– Oyna oldida ko'p aylanishaverma, yetar endi! Oyna oldida aylanishganlarni ko'rsam xunob bo'laveraman, – dedi moviyko'z qizaloq.

– Bo'lmasa, oynani nima uchun chiqarishgan? – dedi sariq sochli qizaloq.

U qalpog'ini orqasiga surib qo'yib, boshini orqaga tashladi-da, ko'zini qisib oynaga qaray boshladi.

Bilmasvoyga bu kulgili tuyuldi. O'zini tutolmay, piqillab kulib yubordi. Sariq sochli qizaloq oyna oldidan qochib, gumonsirab Bilmasvoyga tikildi. Bilmasvoy bo'lsa ko'zini yumib, o'zini uxlaganga soldi. U ikkala qizaloqning sezdirmasdan astagina karavoti yoniga kelishganini payqab turdi.

- Menimcha, u nimadir deganday bo'ldi, - degan shivirlagan ovoz Bilmasvoyning qulog'iga kirdi. - Menga shunday tuyulgandir-da... U qachon hushiga kelarkin? Kechadan beri hushsiz yotibdi.

Boshqa ovoz:

- Asalxon uyg'otmanglar, agar u uyg'onib qolsa, meni darrov chaqirib kelinglar, degandi, - dedi.

«Asalxon degani nimasi?» - deb o'yladi Bilmasvoy, lekin o'zini ularning gapini eshitmaganga solib yotaverdi.

- Juda botir bola ekan! - degan shivirlash yana eshitildi. - Havо pufagida qo'rqmasdan uchibdi-ya!

Bilmasvoy o'zini botir deyishganini eshitib, naq og'zi qulog'iga yetdi. Biroq o'z vaqtida payqab qolib, kulgisini to'xtatdi.

- Men kechroq, u uyg'onganda kelarman. Undan havо pufagi to'g'risida so'ramoqchiman. Bordi-yu, uning miyasi lat yegan bo'lsa-chi!

«Bekor gap! - deb o'yladi Bilmasvoy. Mening hech qanaqasiga miyam lat yeganmas».

Sariq sochli qizaloq xayrlashib chiqib ketdi. Xona jimjit bo'lib qoldi. Bilmasvoy ko'zini yumib, anchagacha quloq solib yotdi. Oxiri bir ko'zini sal ochib, tepasida engashib turgan moviyko'z qizaloqni ko'rib qoldi. Qizaloq muloyimgina jilmaydi, keyin xo'mraydi-da barmog'ini o'qталib:

- Siz nuqul shunaqa, oldin bir ko'zingizni, keyin ikkinchi ko'zingizni ochib, uyg'onasizmi? - deb so'radi.

Bilmasvoy boshini liqillatib, ikkinchi ko'zini ham ochdi.

- Bundan chiqdi, uyg'oq ekansiz-da?

- Yo'q, men hozirgina uyg'ondim.

Bilmasvoy tag'in nimadir demoqchi edi, lekin qizaloq uning labini qo'li bilan bekitib:

– Jim bo'ling, jim bo'ling! Gapirish mumkin emas. Siz og'ir kasalsiz, – dedi.

– Hech-da!

– Qayoqdan bilasiz? Siz hali doktormisiz?

– Yo'q.

– Ana ko'rdingizmi, tag'in gapiryapsiz. Vrachni chaqirguningcha qimirlamasdan yoting. Otingiz nima?

– Bilmasvoy, o'zingizniki-chi?

– Mening otim Ko'kko'z.

– Yaxshi ot, – deb ma'qulladi Bilmasvoy.

– Sizga otim yoqqan bo'lsa, judayam xursandman. Siz odobli bolaga o'xshaysiz.

Bilmasvoyning yuziga tabassum yugurdi. Maqtagini uchun u juda mamnun bo'lib ketdi, nega desangiz uni hech kim hech qachon maqtamas, nuqul urishishgani-urishishgan edi. Bilmasvoyning oldida bolalar yo'q edi. Shuning uchun, u, qizaloqlar bilan sang'ib yuribsan deb dakki berishlaridan qo'rqqmasdi. Ko'kko'z degan qizaloq bilan bemalol va muloyim gaplashaverdi.

– Anavi sherigingizning oti nima? – deb so'radi Bilmasvoy.

– Qaysi sherigimning?

– Siz gaplashgan-chi, malla sochli, chiroylikkina.

– Ho! – deb hayratda qoldi Ko'kko'z. – Bundan chiqdi, siz anchadan beri uyg'oq yotgan ekansiz-da?

– Yo'q, men atigi bir zungina ko'zimni ochuvdim, keyin o'sha zahotiyiq uxlab qoldim.

– Yolg'on, yolg'on! – deb boshini qimirlatdi Ko'kko'z va qoshini chimirdi. – Bundan chiqdi, sizningcha men unchalik chiroyli emaskanman-da?

– Yo‘q, qo‘ying-ey! – cho‘chib ushdi Bilmasvoy. – Siz ham chiroylisiz.

– Ikkalamizdan kim chiroyli, umi yo menmi?

– Siz... va u ham. Ikkalangiz ham juda chiroylisiz.

– Siz g‘irt yolg‘onchi ekansiz, lekin mayli, sizni kechiraman, – dedi Ko‘kko‘z. – Go‘zalingizning ismi Oppog‘oy. Siz uni tag‘in ko‘rasiz. Bo‘ldi, sizga ko‘p gapirish zarar. Qimirlamasdan yoting. Hozir Asalxonni chaqirib kelaman.

– Asalxon kim?

– Asalxon – bizning vrachimiz. U sizni davolaydi.

Ko‘kko‘z ketdi. Bilmasvoy shu zahoti o‘rnidan irg‘ib turib kiyimlarini qidirishga tushdi. U tez qochib ketmoqchi bo‘ldi, chunki vrachning kasalga surgu berishini, baddanni juda achitadigan yod surishini bilardi. Kiyim-kechagi atrofda yo‘q ekan. Shunda kichkina o‘rindiqa devorga o‘tqazib qo‘yilgan qo‘g‘irchoqni ko‘rib qoldi.

Bilmasvoy shu zahotiyuq qo‘g‘irchoqni yorib, – ichi paxtami yoki qipiqmi, – ko‘rmoqchi bo‘ldi. U kiyimini unutib, pichoq qidirishga tushib ketdi. Shunda birdan oynada o‘z aksini ko‘rib qoldi. Qo‘g‘irchoqni polga tashlab, o‘z basharasiga qarab yuzini burishtirib ko‘rib, keyin: – Men ham chiroyliman, yuzim ham unchalik dumaloq emas, – deb qo‘ydi.

Shu payt eshik orqasidan oyoq tovushi eshitildi. Bilmasvoy lip etib ko‘rparasiga kirib ustini yopib oldi.

Xonaga Ko‘kko‘z va oq xalatli, oq peshonabog‘li, qo‘lida jigarrang chamadon ko‘targan qizaloq kirib keldi. Uning yuzi lo‘ppi va qip-qizil edi. Dumaloq ko‘zoynak ortidan kulrang ko‘zlari jiddiy boqardi. Bilmasvoy Ko‘kko‘z aytgan Asalxon shudir deb o‘yladi.

Asalxon kursini Bilmasvoyning karavoti yoniga surib, uning ustiga chamadonchasini qo‘ydi va kallasini chayqab:

– Eh, bu bolalarni ko'ring! Nuqul sho'xlik qilishgani-qilishgan! – dedi. – Qani aytib bering-chi, havo pufagi-da uchish nimaga zarur bo'lib qoldi? Gapirmang, gapirmang! Bundan keyin sirayam bunaqa ish qilmayman, deyishingizni bilaman. Hamma bolalar shunaqa deyi-shadi-da, tag'in sho'xlik qilaverishadi.

Asalxon chamadonchasini ochishi bilan uy ichida yodmi, yo allaqanday boshqa bir doriningmi hidi tutib ketdi. Bilmasvoyning qo'rqqanidan eti junjikdi. Asalxon unga o'girilib:

– Turing-chi, bemor, – dedi.

Bilmasvoy o'rnidan tura boshladi.

– Turish shart emas, bemor! – dedi jiddiy ohangda Asalxon. – Men sizga turib o'tiring demoqchiydim.

Bilmasvoy yelkasini qisib, o'rniga o'tirdi.

– Yelkani qisish kerak emas, bemor, – dedi Asalxon, – tilingizni ko'rsating.

– Nimaga?

– Ko'rsating, ko'rsating, ko'rishim kerak.

Bilmasvoy tilini chiqardi.

– «A» deng-chi.

– A-a-a!

Asalxon chamadonchasidan yog'och trubkachasini olib Bilmasvoyning ko'kragiga tutdi:

– Chuqur nafas oling, bemor.

Bilmasvoy parovozga o'xshab pishillay boshladi.

– Endi nafas olmang.

– Hi-hi-hi, – deb kulib yubordi Bilmasvoy.

– Nimaga kulyapsiz, bemor? Kulgili hech nima dema-dim shekilli.

– Qanday qilib nafas olmasdan turolaman? – deb so'-radi Bilmasvoy hiq-hiq kulib.

– Albatta, nafas olmay turolmaysiz, lekin birpasgina nafasni ichga yutib turish mumkin-ku, axir.

– Mumkin, – dedi Bilmasvoy va nafas olmay turdi. Asalxon ko'rib bo'lgach, stolga o'tirib dori-darmonlar yozishga kirishdi.

– Bemoringizning yelkasida qon to'plangan joy bor, – dedi u Ko'kko'zga. – Dorixonaga borsangiz, sizga asal malham berishadi. Malhamdan bir bo'lakchasini olib, kasalning yelkasiga qo'ying. O'rnidan turishiga ruxsat bermang. Agar o'rnidan turguday bo'lsa-chi, unda bor-yo'q idishlaringizni sindirib, bitta-yarimtaning peshonasini yoradi. Bolalarga ehtiyotlik bilan muomala qilish kerak.

Asalxon trubkasini chamadoniga solib, Bilmasvoyga tag'in bir marta jiddiy qaradi-da, chiqib ketdi. Ko'kko'z stoldan dori qog'ozini olib:

– Eshitdingizmi? Yotishingiz kerak, – dedi.

Bilmasvoy uning gapini eshitib yuzini burishtirdi.

– Yuzingizni burishtirmay qo'ya qoling, – dedi Ko'kko'z. – Kiyim-boshingizni qidirib o'tirmang, uni boplab bekitib qo'rganman. – U dori qog'ozni ushlaganicha xonadan chiqib ketdi.

O'n ikkinchi bob

YANGI TANISHLAR

Bilmasvoy Ko'kko'z ketgandan so'ng biroz yotdi, keyin qo'g'irchoqning nimadan yasalganini bilmoqchi bo'lganini eslab o'rnidan turmoqchi edi, lekin eshik orqasida tag'in oyoq tovushi va kimningdir shivirlagani eshitildi:

– U qayerda?

– Shu yerda.

- Nima qilyapti?
- Karavotda yotibdi.
- O'likmi?
- Yo'q, tirik bo'lsa kerak.
- Bundoq tur-chi, men ham ko'ray.
- Shoshmagin.

Bilmasvoy eshikka qarab, kimningdir qulfning teshigidan mo'ralayotganini payqadi.

- Qani, men ham ko'ray-da, qizg'anchiq. Mening ham ko'rgim keladi, axir, - degan ovoz eshitildi tag'in.

- Senga ko'rsatib bo'pman, meni qizg'anchiq deysan-ku!

Eshik orqasida to'polon ko'tarildi.

- Meni itarma, itarma deyman! - g'azabli shivirlash eshitildi. - Qani, meni tag'in itarib ko'rgin-chi, sochingdan ushlab uloqtiraman!

- Men ham sochingdan ushlab turib tepaman!

Bilmasvoy janjallashayotganlarning kimligini bilgisi keldi. U o'rnidan irg'ib turib, bora eshikni shartta ochib yuborgan edi, taq etgan tovush eshitildi. Bilmasvoy ikkita qizaloqni ko'rdi. Ular bir chetga qochishib borishdi-yu, peshonalarini ushlagancha Bilmasvoyga qo'rqib qarab turaverdi. Ulardan bittasining etakchasiga yashil quyuncha rasmi, bittasinikiga bo'lsa, qip-qizil olmaxonning rasmi tikilgan edi. Ikkovi ham birov buyruq berganday ko'zlarini pirpiratishib turib birdan yig'lab yuborishdi, keyin eshikning o'ng tomonidagi torgina taxta narvondan yuqoriga chiqib ketishdi.

O'rilgan kalta sochi bo'ynida dikkayib turgan qizaloq qattiq baqirib:

- V-a-a-a! - deb yig'ladi.

Boshining qoq tepasiga katta havorang lenta boylagan qizaloq bo'lsa:

- U-u-*ni* - deb unga jo'r bo'ldi.

Bilmasvoy bo'yini qashib:

- Ana xolosi! Ularni eshik bilan rosa boplaganga

o'xshayman-ku, - deb go'ydi.

Shundan keyin Bilmasvoy begona joyda bitta-yarim-

ta ish ortirib go'yamay tag'in deb, o'rninga yotib uxlamog-

chi bo'ldi. Ammo dahlizda yana oyog tovushi eshitildi.

Eshik ochilib xonaga boshqa qizaloq mo'raladi. Uning

sochlarini jingalak, ko'zlarini quvnoq, qitraburun, yuzidan

mug'ombirliigi shundodqina sezilib turardi.

- Ey bolal! - dedi u. - Urshoq!

Bilmasvoy kutilmagan bu holdan hayron bo'lib, shart-

ta o'rmdan turdi. Lekin shu zahoti eshik yopilib, tez-tez

uzoqlashayotgan oyog tovushlari eshitildi. Bilmasvoy

yelkasinini qisdi-da, uning orqasidan jahli bilan:

- Maqtanchoq! - deb baqirdi.

U boshini yostiqqa qo'yib mudray boshlagan ham

edi, yana eshik ochilib, haligi jingalak sochli qiz tag'in

xonaga mo'raladi.

- Urshoq! - deb baqirdi u. - Ha-ha-ha!

Eshik shu zahoti qarsillab yopildi. Bilmasvoy irg'ib

turib dahlizga chopib chiqib qaradi, ammo u yerda hech

kim yo'q edi.

- Ha, mayli, shoshmay tur! - deb go'ydi Bilmasvoy.

U yozuv stolida turgan chizg'ichni olib, eshik orqasi-

ga bekindi. Ko'p kutib qolmadi. Yo'lakda oyog tovushlari

eshitildi. Bilmasvoy chizg'ichni yugort ko'targancha kutib

turdi. Eshik ochilib xonaga Ko'kko'z kirdi. Bilmasvoy

bo'lsa, uning peshonasiga chizg'ich bilan doplab tushirdi.

- Voy!

Ko'kko'z go'li bilan peshonasini ushlab qoldi.

- Nega chizg'ich bilan hazillashasiz? - deb baqirdi

u. - Endi peshonam ko'kari b chiqadigan bo'ldi.

- Balki ko'karmas, - dedi uyalib, Bilmasvoy qo'lida chizg'ichni aylantirarkan.

- Yo'q, ko'karadi dedimmi, ko'karadi. Mening qanday nozik ekanligimni bilasizmi? Meni po'kak bilan ursangiz ham shu zahoti ko'karadi.

- Ozingina malham qo'ysak yaxshi bo'ladi, - dedi Bilmasvoy. - Axir siz dorixonadan malham olib kelgandigiz-ku.

- Uni sizga olib keluvdim.

- Ikkalamizga ham yetadi! - deb javob berdi Bilmasvoy. U malhamni olib, qaychi bilan to'rt bo'lakka bo'ldi.

- Tezroq yopishtira qolsangiz-chi, - dedi bezovtalanib Ko'kko'z. - Mana bu yoqqa, bu yoqqa...

U peshonasini tutib, malhamni qayerga yopishtirishni barmog'i bilan ko'rsatdi.

Bilmasvoy malhamni yopishtirdi, lekin qiyshiq yopishtirilganiga ko'zi tushib qolib, uni ko'chirib ola boshladi.

- Sekinroq, sekinroq, - deb baqirdi Ko'kko'z. - Bu yaramas malhamni hamma yog'imga surkab tashlayapsiz-ku.

- Endi durust bo'ldi, - dedi Bilmasvoy ishni tamomlab. Ko'kko'z chopqillab oyna oldiga bordi:

- Yaxshi emish! Bitta-yarimtasi peshonamdagi malhamni ko'rib qolsa nima bo'ladi? Qani yelkangizni ko'rsating-chi. Ko'kargan joyini ko'ray.

Endi Ko'kko'z Bilmasvoyning yelkasiga malham yopishtirishga kirishdi.

- Men sizni urmoqchi emasdim, - dedi Bilmasvoy.

- Bo'lmasa kimni?

Bilmasvoy notanish bir qizaloq jahlimni chiqardi demoqchi bo'ldi-yu, lekin bu chaqmacha qarlik bo'ladi deb o'yladi.

– Hech kimni, – dedi u. – Men o‘zimcha shu chizg‘ich bilan bitta-yarimtani ursa bo‘larmikan deb o‘ylovdim-da.

– Siz, bolalar, nuqul bitta-yarimtani urishni o‘ylaysiz. O‘zingizga tegsa bormi, sirayam yoqmaydi... Nima-ga kulyapsiz? Peshonamdagi malhamga kulyapsizmi?

U yana oyna oldiga keldi:

– Peshonangizga shunaqa to‘rtburchakli narsa yopishtirilsa rostdanam kulgili bo‘larkan-da.

– Dumaloq qilib qirqib yopishtira qoling, – deb maslahat berdi Bilmasvoy.

Ko‘kko‘z malhamni ko‘chirib olib, qaychi bilan dumaloq qilib qirqdi-da, qaytadan yopishtirib qo‘ydi.

– Sizningcha shunisi ma‘qulmi? – deb Bilmasvoyga o‘girilib so‘radi.

– Albatta, – deb tasdiqladi Bilmasvoy. – Meningcha, bu sizga yarashdi ham.

Ko‘kko‘z ko‘zini qisib oynaga qaray boshladi.

– Endi mening ko‘ylak-ishtonimni bering, – dedi Bilmasvoy.

– Oldin yuvinib oling, undan keyin kiyimingizni olasiz.

Ko‘kko‘z Bilmasvoyni oshxonaga boshlab keldi. U yerdagi devorda yuvinadigan idish bor edi. Uning shundoq yonginasida mixda sochiq ilingan va kichkina tokchada sovun bilan tish pastasi turardi.

– Mana sizga cho‘tka, mana tish pastasi. Tishingizni yuvasiz, – dedi Ko‘kko‘z.

– Tish pastasiga sirayam toqatim yo‘q? – deb g‘o‘ldiradi Bilmasvoy.

– Nega?

– Bemaza-da!

– Axir, uni yemaysiz-ku.

– Baribir, u tilimni achishtiradi.

- Achishtirsa, keyin hosilib qoladi.

Bilmasvoy istar-istamas tishini yuvishga kirishdi. U cho'tkani tishiga ikki marta surtgan bo'lib, aftini bujmaytirib tuflab tashladi. Keyin og'zini chayqab, qo'lga sovun surta boshladi. Qo'lini yuvib, sovunni joyiga qo'ydi-da, yuzini yuvdi.

- Yuzni ham sovunlab yuvish kerak, - dedi Ko'kko'z.

- E, qo'ysangiz-chi! - dedi Bilmasvoy. - Sovun ko'zni achishtiradi.

- Yo'q, bo'lmaydi, - dedi qat'iy Ko'kko'z. - Yuvmasangiz, kiyimingizni ololmaysiz.

Bilmasvoy noiloj yuziga sovun surtdi va shosha-pisha yuvib tashlashga kirishdi.

- Huv-huv-huv, - deb seskandi u. - Suv judayam sovuq ekan. U yuzini nari-beri chayqab, ko'zini ochmay qo'lini oldinga cho'zdi-da, devorni timirskilay boshladi.

Ko'kko'z unga qarab turib, o'zini kulgidan zo'rg'a tutib qoldi.

- Nimani qidiryapsiz?

- So-sochiqni, - dedi sovuqdan qaltirab Bilmasvoy.

- Nega ko'zingizni yumib qidirasiz? Ko'zingizni ochavering.

- Bu sovuni qurg'ur shundoq ham ko'zga tushyapti, qanday qilib ochib bo'lardi ko'zni.

- Uni yaxshilab yuvib tashlang-da.

Ko'kko'z sochiqni olib Bilmasvoyga uzatdi. U sochiq bilan yuzini artgandan keyingina ko'zini ochdi.

- Mana, siz endi tozagina emas, hatto chiroyli bo'lib ketdingiz, - dedi Ko'kko'z sochiqqa yuqqan kirlarni ko'rib:

- Ha, mayli, birinchi marta bo'lgani uchun kechiraman, ammo ikkinchi marta yaxshilab yuvinasiz, - deb qo'shib qo'ydi.

U Bilmasvoyning kiyimlarini keltirdi:

– Kiyining-da, yuqori qavatga chiqib choy iching. Qorningiz ham ochib qolgandir, – dedi.

– Shunaqangi ham qornim ochganki, qo‘ya berasiz, – deb iqror bo‘ldi Bilmasvoy. – Ehtimol butun boshli filni ham yeb qo‘yarman!

– Voy, sho‘rlig-ey! Qani, tezroq bo‘la qoling bo‘lmasa, sizni kutib turibmiz.

O‘n uchinchi bob

STOL ATROFIDAGI SUHBAT

Bilmasvoy tez kiyinib, g‘ichirlaydigan yog‘och zidanadan yuqoriga ko‘tarildi. Bu xona pastki xonaga qaraganda torroq bo‘lishiga qaramay, shinamgina edi. Chiroyli parda tutilgan, yarim doirali ikkita deraza ko‘chaga qaragan, derazalar orasida peshayvonga chiqadigan eshik bor edi. Xona o‘rtasidagi stol ustiga qo‘yilgan guldon, likopcha va boshqa idishlarda har xil qiyom, pechenye, somsa, o‘rama, bo‘lka non va bo‘lak noz-ne‘matlar qo‘yilgan edi. Qizaloqlarning Bilmasvoy sharafiga ziyofat qilishayotgani bilinib turardi. To‘kin-sochin bu ziyofatni ko‘rib Bilmasvoyning ko‘zlari o‘ynab ketdi.

Sochpopuk taqqan va sochi kalta o‘rilgan qizaloq choy quyardi. Jingalaksoch qiz bo‘lsa, bufetdan olma qiyomi oldi.

Ko‘kko‘z Bilmasvoyni o‘z dugonalari bilan tanishtirib qo‘ydi. Sochi o‘rilgan qizaloqni Olmaxon, popukli qizaloqni Quyoncha, jingalaksoch qizaloqni bo‘lsa Ninachi deyisharkan. Bilmasvoyning tezroq stolga o‘tirgisi kelar-

di, lekin eshik ochilib, xonaga yana to'rtta qizaloq kirib keldi. Ko'kko'z o'rnidan turib, ular bilan Bilmasvoyni tanishtirib qo'ydi:

- Bular bizning qo'shnimiz: Zag'chaxon, Archaxon, Gunafshaxon va Do'mboq qiz.

Qizaloqlar Bilmasvoyni o'rab olishdi.

- Siz bu yerga havo pufagida uchib keldingizmi? - deb so'radi qora sochli Zag'chaxon.

- Ha, shundog', - deb gerdayib javob berdi Bilmasvoy. U hadeb dasturxonga tikilardi.

- Havo pufagida uchish qo'rqinchli bo'lsa kerak-a? - dedi semizgina Do'mboq qiz.

- Shunaqangi qo'rqinchlik, asta qo'yaverasiz!.. Yo'g'-e, ya'ni sirayam unaqamas! - deb maqtandi Bilmasvoy.

- Judayam botir ekansiz. Men bo'lsam havo pufagida sirayam uchmasdim, - dedi Archaxon.

- Siz qayoqdan uchib keldingiz? - deb so'radi Gunafshaxon.

- Gulzor shahridan.

- U shahar qayoqda?

- Huv u yoqda, - deb, qo'lini silkib noma'lum tomoni ko'rsatdi Bilmasvoy. - Bodring daryosi tomonda.

- Bunaqa daryoni sirayam eshitmaganmiz, - dedi Zag'chaxon. - Olis bo'lsa kerak?

- Juda olis, - deb tasdiqladi Bilmasvoy.

- Qani endi dasturxonga marhamat, choy sovib qolmasin. - deb Ko'kko'z mehmonni taklif qildi.

Bilmasvoy ko'p izzatlablik qilmasdan, shu zahoti stolga o'tirib somsa, non va qiyomlardan tushira boshladi. Qizaloqlar Bilmasvoyning havo pufagida qanday uchganini so'ramoqchi bo'lib, hech nima yeyishmadi. Ninachi degan qizaloq Oxiri chidab turolmay:

- Havo pufagida uchishni kim o'ylab topganini aytib bera qoling, - dedi.

- Buni topgan - men, - dedi Bilmasvoy va bir bo'lak pirogni tezroq chaynab yutishga shoshildi.

- Voy, nima deyapsiz! Nahotki siz bo'lsangiz? - deb qolishdi atrofdan hammalari.

- Rost, o'lay agar! - deb qasam ichdi va sal bo'lmasa pirog tiqilib qolayozdi.

- Juda qiziq! Shu haqda gapirib bersangiz-chi, - deb so'radi Do'mboq qiz.

- Nimasini gapiray... - qo'l siltadi Bilmasvoy. - Ko'pdan beri bolalar menga: «Biror nima topgin, oshna, kel, topa qolgin», deb yalinib yurishardi. Men bo'lsam: «Oshnalar, o'ylab topa berish jonimga tegib ketdi. O'zinglar ham topinglar-da», der edim. Ular bo'lsa: «Bizga yo'l bo'lsin! Axir bizning aqlimiz yetmaydi, sen bo'lsang aql-lisan, senga hech gapmas. Kel, o'ylab topa qol!» deyishardi. «Ha, mayli, - dedim. - Ne ilojim bor. O'ylab topaman». Shunday qilib o'ylay boshladim.

Bilmasvoy o'ylagan kishi bo'lib pirogni yeyar edi. Qizaloqlar sabrsizlik bilan unga qarab turishardi. Oxiri Olmaxon Bilmasvoyning yana pirogga qo'l cho'zayotganini ko'rib, oradagi jimlikni buzmoqchi bo'ldi:

- Siz o'ylay boshladim degan gapda to'xtagan edingiz.

- Ha! - deb qo'ydi Bilmasvoy, go'yo hushiga kelgan kishiday va pirog bilan stolni tiqillatdi. - Uch kecha-yu uch kunduz o'yladim, siz nima deb o'ylaysiz? O'ylay-o'ylay topdim! «Mana, - dedim, - oshnalar, sizga pufak o'yladim!» Shunday qilib pufak yasadik. Mening haqimda shoir Gulshaniy... shunaqa shoirimiz bor... she'r to'qibdi: «Bizning Bilmasvoy pufak topgan»... Yoki bunday. «Pufak topgan bizning Bilmasvoy...» Yo'q bunday «Pufagimiz top-

gan Bilmasvoy»... Yo'q, unutibman. Mening to'g'rimda, bilasizmi, ko'p she'r to'qishadi, hammasini eslab bo'larmidi.

Bilmasvoy yana pirog yeyishga tushdi.

- Pufakni qanday qilib yasadingiz? - deb so'radi Ko'k-ko'z.

- O'-ho', bu juda katta ish edi! Hamma bolalar kechayu kunduz ishlashdi. Birov rezina surkar, birov nasosni bosar, men bo'lsam hushtak chalib aylanib yurardim. Yo'g'-e, hushtak chalmasdim, kimning nima ish qilishini ko'rsatib turardim. Mensiz hech kim hech nimaga tushunmasdi, hammasiga tushuntirasan, hammasiga ko'rsatasan. Ish juda mas'uliyatli, nega deganingizda, har lahza pufakning yorilib ketish xavfi bor edi. Mening har qanday ish qo'lidan keladigan Murvatvoy va Tuzatvoy degan yordamchilarim bo'lardi. Hamma narsani qilisha olardi-yu, ammo miyalari sust ishlardi. Ularga hammasini tushuntirib va ko'rsatib berish kerak. Men ularga qozonni qanday yasash kerakligini o'rgatdim. Qarab-sizki, ish qizib ketdi; qozondagi suv vaqir-vuqir qaynar, bug' vishillardi, juda g'alati!

Qizaloqlar nafaslarini chiqarmay Bilmasvoyning gaplarini eshitishardi.

- Keyin? Keyin nima bo'ldi? - deb qolishdi Bilmasvoy gapidan to'xtashi bilan.

- Oxiri uchadigan kun yetib keldi, - davom etdi Bilmasvoy. - Minglarcha mittilar yig'ilishgan. Ba'zilari pufak uchadi, boshqalari uchmaydi, deyishadi. Janjal boshlandi. Pufak uchadi deganlarni uchmaydi deganlar urar, uchmaydi deganlarni uchadi deganlar urardi. Yoki, yo'g'-e... aksincha, uchadi deganlar uchmaydi deganlarni... yoki yo'g'-e, aksincha... ochig'ini aytganda, kim-kimni urayotganini bilib bo'lmasdi. Hamma bir-birini urardi.

– Xo'p yaxshi, – dedi Ko'kko'z. – Siz janjal haqidamas, havo pufagi haqida gapirib bering.

– Mayli, – deb rozi bo'ldi Bilmasvoy. – Demak, ular janjallashaverishdi, biz bo'lsak savatga tushdik, osh-nalar, xayr endi, uchyapmiz deb, men nutq so'zladim. Shunday qilib, yuqoriga uchdik. Osmonda uchib yurib birdan qarasak, yer pastda shu pirogday bo'lib ko'rindi.

– Yo'g'-e, rostdanmi? – deb hayron qolishdi qizaloqlar.

– O'lay agar, yolg'on gapirsam! – deb qasam ichdi Bilmasvoy.

– Gapini bo'lmanglar! – dedi Ko'kko'z achchig'lanib. – Xalaqit bermanglar. U yolg'on gapirarmidi.

– Rostdanam, yolg'on gapirishimga xalaqit bermanglar... Yo'q-e, tfu! To'g'ri gapirishimga xalaqit bermanglar, – dedi Bilmasvoy.

– Ayta bering, ayta bering! – deb bir ovozdan chuvillashishdi barcha.

– Mana shunday, – davom etdi Bilmasvoy. – Demak, yuqoriga uchyapmiz. Birdan bir nima taq etdi! Qarasak, bulutga yetibmiz. Nima qilish kerak? Boltani oldik-da, bulutni yorib teshik ochdik. Tag'in balandga ucha ketdik, qarasak, oyog'imiz osmonda bo'lib uchyapmiz, osmon pastda, yer bo'lsa tepamizda.

– Nega bunaqa ekan? – deb hayron bo'lishdi qizaloqlar.

– Tabiat qonuni, – deb tushuntirdi Bilmasvoy. – Bulutdan yuqorida doim oyoq osmonda bo'lib uchadi, eng balandga uchib chiqsak, u yerdagi sovuq ming daraja-yu o'ndan bir ekan. Barcha muzlab qoldi. Shar sovib pastga tusha boshladi. Men juda quvman-da, oldindan savatga qopda qum solinglar deb buyurgan edim. Qoplarni tashlay boshladik. Tashlab, tashlab,

qoplarni ham tugatdik. Nima qilish kerak? Oramizda Bilag'on degan bola bor edi. Juda qo'rqoq! Sharning pastga tushayotganini ko'rib qolib, yig'ini boshladi, keyin parashutda pastga sakrab tushib, uyiga ketib qoldi. Pufak yengillashib, tag'in yuqoriga ucha boshladi. Keyin tag'in pasayib, yerga urilar, sakrab chiqib, yana urilardi. Men savatdan otilib ketib, boshim bilan yerga shunaqangi urildimki!..

Bilmasvoy gapga ovora bo'lib, mushtumini stolga uraman deb likopchadagi pirogga urdi. Pirogning ichidagi shirinlik atrofga sachrab ketdi. Qizaloqlar cho'chib tushishganidan kursichadan yiqilayozdilar.

- Undan keyin nima bo'ldi? - deb so'rashdi ular o'zlariga kelib.

- Undan keyingisini eslay olmayman.

Jimlik cho'kdi. Qizaloqlar hayron qolib, Bilmasvoyga qarashardi. Ularning ko'ziga u chinakam qahramon bo'lib ko'rinardi. Oxiri Ko'kko'z:

- Siz havo pufagingiz bilan bizni judayam cho'chitib yubordingiz, - dedi. - Kecha kechqurun peshayvonda, choy ichib o'tirardik. Bunday qarajak, bir bahaybat havo pufagi to'ppa-to'g'ri biz tomonga uchib kelib, devorga urilib ketdi... Keyin birdan paqillab, yorilib ketdi. Yugurib kelib, faqat qayin po'stlog'idan qilingan savatnigina ko'rdik.

- Siz jonsiz bo'lib yotardingiz! - deb gap qo'shdi Quyuncha. - Juda qo'rqinchli edi!

- Bir botinkangiz oyog'ingizda, boshqasi devorda ilinib yotardi, qalpog'ingiz bo'lsa daraxtda osilib qolgandi, - deb qo'shib qo'ydi Olmaxon.

- Kamzulingizning yengi uzilib tushgan ekan, bugun ertalab topib oldik, - dedi Ninachi degan qizaloq, - uni darrov joyiga tikib qo'ydik.

- Nega men bu uydaman? - deb so'radi Bilmasvoy.

- Biz olib keldik. Sizni kechasi hovlida qoldirib bo'lar-midi, axir, - dedi Ko'kko'z.

- Siz jonsiz edingiz-da, - deb yana gap qo'shdi Qu-
yoncha. - Lekin Asalxon sizni hali o'lmaydi, nega degan-
da zuvalasi pishiq, deb aytdi.

- Ha, to'g'ri, mening zuvalam pishiq, boshim undan
ham pishiq, - deb maqtandi Bilmasvoy. - Mening o'rnim-
da boshqa birov bo'lganda bormi, turgan gap, miya qal-
qishiga duchor bo'lardi.

- Siz, ehtimol, miyasi lat yerdi, demoqchidirsiz-a? -
deb qo'ydi Ko'kko'z.

- Ha-ha, shunday, miyasi lat yerdi, - deb tuzatdi Bil-
masvoy.

- Lekin siz havo pufagida ko'pchilik bo'lib uchdik de-
gan edingiz-ku? - deb so'radi Ko'kko'z.

- Albatta, bitta o'zim emas. Biz o'n olti kishi edik.
To'g'risi, anavi qo'rqqoq Bilag'on parashutda sakrab tush-
gandan keyin o'n beshta qolgan edik.

- Qolganlaringiz qani? - deb so'radi Zag'chaxon.

- Bilmayman, - deb yelkasini qisdi Bilmasvoy. - Sa-
vatda mendan bo'lak hech kim yo'qmidi?

- Biz savatdan faqat rasm bo'yog'i va ko'chma dori-
xaltanigina topdik.

- Bu Bo'yog'voy degan bolaning bo'yoqlari, dorixal-
ta esa Dorijonniki, - dedi Bilmasvoy.

Shu zahoti eshik ochilib, Oppog'oy yugurib kirdi.

- Yangilikni eshitdinglarmi? - deb baqirdi u. - Yana
yangilik! Tag'in bitta havo shari uchib kelib yorilib-
di. Unda o'n to'rtta mitti bola uchgan ekan. Ular kecha
kechqurun shahar chetiga tushgan ekan. Ularni qizaloq-
larimiz bugun ertalab, tong yorishishi bilan topishib
kasalxonaga olib borishibdi.

– Demak, ular dabdala bo'lishibdi-da? – deb achindi Olmaxon.

– Hech gap emas, – deb qo'lini siltadi Oppog'oy, – Asalxon bularni tuzatsa bo'ladi, deb aytdi.

– Ehtimol, ular mening o'rtoqlarimdir, – dedi Bilmasvoy. – Hozir kasalxonaga borib, anig'ini bilaman.

– Men sizni boshlab boraman, – deb taklif qildi Ko'kko'z. Men ham sizlar bilan birga boraman, – dedi Oppog'oy.

U endigina Ko'kko'zning peshonasiga yopishtirilgan malhamni ko'rib qoldi:

– Voy, o'rtoqjon, peshonangda judayam chiroyli dumaloq narsa bor ekan, bir yarashibdiki... Peshonaga dumaloq narsa yopishtirish yangi modami? Men ham o'zimga xuddi shunaqasidan yopishtirib olsam, deyman.

– Yo'q, – dedi Ko'kko'z, – bu yopishtirganim malham. Men bilmasdan peshonamni eshikka urib oldim.

– Voy, hali shundoqmidi... – dedi cho'zib, hafsalasi pir bo'lgan Oppog'oy.

U oyna oldiga kelib, qalpoqchasini kiya boshladi. Xona bir zumda bo'shab qoldi. Hammalari bu yangilikni qo'ni-qo'shnilarga aytib berish uchun yugurib ketishdi.

O'n to'rtinchi bob

SHAHAR BO'YLAB SAYOHAT

Oppog'oy bilan Ko'kko'z Bilmasvoyni boshlab ikki tomoni ingichka chetan devorli ko'chaga chiqishdi. Devor orqasida qizil va yashil tomli uylar ko'rinib turardi. Uylar tepasida katta-katta olma, nok va olxo'rilar qad ko'targan edi. Ko'chada ham, hovlilarda ham daraxtlar ko'kargan, shahar yam yashil

daraxtlarga ko'milib yotardi. Shuning uchun ham uni Yashil shahar deyishardi.

Bilmasvoy atrofga qiziqib alanglardi. Ko'chalar had-dan tashqari ozoda edi. Barcha hovlilarda qizaloqlar ishlashardi. Ba'zilari o't g'ovlab ketmasin deb qaychi bilan qirqishar, boshqalari bo'lsa, supurgi olib, yo'lkalarni supurishar, yana boshqalari zo'r berib uzun sholchanning changini qoqishardi. Sholchalar Yashil shaharda faqat uydagi polgagina emas, hatto ko'chadagi yo'lkalarga ham to'shalardi. Ba'zi bir uy egalari, o'tkinchilar sholchani kir qilib qo'yishmasin deb, bezovta bo'lgandek, sholchani bosmanglar, agarda sholchadan yurgingiz kelsa, oyog'ingizni tozalab arting, deb turishardi. Ko'p hovlidagi yo'laklarga ham sholcha solingandi. Hatto uylarning tashqi devorlariga ham guldor chiroyli gilamlar qoqilgan edi. Yashil shaharda qamish nayidan qilingan vodo-provod bor edi. Ma'lumki, qamishning ichi bo'sh bo'ladi, shuning uchun suv qamish ichidan quvurdan o'tganday o'taveradi. Bu qamish quvurlar hamma ko'chalar bo'ylab o'tqazilgandi. Lekin, ular yerda yotmasdi, balki yog'och ustunlarga birlashtirilib, ancha balandga ko'tarib qo'yilgandi. Shuning uchun ham bu quvurlar chirimay, ko'pga chidardi. Shunday bo'lsa-da, ochilib qolib suv tommasin deb ularni ta'mir qilishar va qarab turishardi. Suv ko'chadagi asosiy quvurdan ketgan tarmoq orqali har bir hovliga oqib kirardi. Yana, har bir uyning oldida favvora ham bor edi. Favvoraning suvi juda chiroyli bo'lib turar va bu foydali edi, chunki undan otilgan suv bilan ekin sug'orishardi. Har kimning o'z tomorqasi bo'lib, sholg'om, rediska, lavlagi, sabzi va boshqa har xil sabzavotlar ekishardi.

Bilmasvoy bir hovlida mittivoylarning sabzavot yig'ishtirishayotganini ko'rib qoldi. Oldin sabzi yoki shol-

g'omning atrofini kavlashar, keyin bandiga arqon boylab, bor kuchlari bilan tortishar edi. Sabzi yoki sholg'om shunda ildiz-pildizi bilan sug'irilib chiqar, mittivoylar bo'lsa kulishib, qiyqirishib, arqon bilan sudrab uylariga olib ketishardi.

– Bu yerda faqat qizaloqlargina yashaydimi, bitta ham o'g'il bola yo'q-ku? – deb hayron bo'lib so'radi Bilmasvoy.

– Ha, shaharda nuqul qizaloqlar qolishgan, chunki barcha o'g'il bolalar sohilga ko'chib ketishgan. Ularning Varrakxona degan o'z shaharlari bor.

– Ular nimaga sohilga ketishgan? – deb so'radi Bilmasvoy.

– Nega deganingizda, u yerda yashash ularga juda qulay: ular kun bo'yi oftobda qorayishni, cho'milishni yaxshi ko'rishadi. Qishda bo'lsa daryo muzlaydi, ular yaxmalak uchishadi. Keyin o'zlari sohilda yashashni yaxshi ko'rishadi, nega deganingizda, bahorda daryo toshib, butun shaharni suv bosib ketadi.

– Buning nima yaxshiligi bor? – deb hayron bo'ldi Bilmasvoy.

– Menimcha ham, hech qanaqa yaxshi joyi yo'q, – dedi Oppog'oy. – Bizning bolalarga yoqib qolgan-da shu. Ular toshqinda qayiqqa tushib bir-birlarini qutqarishadi. Ular har xil sarguzashtlarni yaxshi ko'rishadi.

– Men ham sarguzashtni yaxshi ko'raman, – dedi Bilmasvoy. – Ular bilan tanishsam bo'ladimi?

– Bo'lmaydi, – dedi Oppoq qiz. – Birinchidan, Varrakxonaga borishga bir soat ketadi, chunki sohil daryoning pastki tomonida, ikkinchidan, ulardan birorta yaxshilikni o'rganmaysiz, uchinchidan, biz ular bilan urishib qolganmiz.

– Nima sababdan urishib qoldinglar? – deb so'radi Bilmasvoy.

- Bilasizmi, ular nima qilishdi? – dedi Oppoq qiz. – Qishda bizni archa bayramiga taklif qilishdi. Musiqa va o'yin ham bo'ladi deyishdi. Borganimizdan keyin bilasizmi nima qilishdi? Ular bizni qorbo'ron qilishdi.

- Qorbo'ron qilsa, nima qilibdi? – dedi Bilmasvoy.

- Keyin biz do'stlashmay qo'ydik. Shu-shu, hech-kim ularnikiga bormaydi.

- Ular kelishadimi?

- Ular ham biznikiga kelishmaydi. Oldin ba'zi bolalar kelishgan, lekin hech kim ular bilan o'ynamay qo'ydi. Shunda ular zerikib to'polon qila boshlashdi, goh derazani sindirishar, goh devorni buzib qochishardi, – dedi Oppoq qiz.

- Keyin ular bizga Mixvoy degan bolani yuborishdi, – dedi Ko'kko'z. – Juda g'alati voqea bo'ldi!..

- Ha, – deb quvvatladi Oppoq qiz, – bu Mixvoy degani kelib, sizlar bilan do'st bo'laman, u bezori bolalarni o'zim ham yoqtirmayman deb, bizni ishontirdi. Unga shahrimizda turishga ruxsat berdik. Oxirida nimalar qildi deng? Tunda uydan qochib chiqib, har xil bemazagarchiliklarni qildi. Bir uyning eshigiga ertalab ochib bo'lmaydigan qilib tamba qo'yib ketgan, boshqa bir uyning eshigiga kirgan kishining boshiga tegadigan qilib yog'och ilib ketgan. Uchinchi bir uyning eshigi oldiga chiqqan odam qoqilib yiqilib tushsin deb arqon tortib ketgan. To'rtinchi uyning tomiga chiqib mo'risini buzgan, beshinchi uyning derazalarini sindirgan.

Bilmasvoy bu voqeani eshitib, kula-kula ichagi uzilayozdi.

- Siz bunga kulyapsiz, – dedi Ko'kko'z. – Talaygina qizaloqlar bo'lsa, burunlarini pachoq qilishdi! Bitta qizaloq, mo'ri tuzataman deb, tomdan yiqilib tushib, oyog'ini sindirayozdi.

- Men qizaloqlardan kulayotganim yo'q, anavi Mixvoyga kulyapman, - deb javob berdi Bilmasvoy.

- Undan kulish kerak emas. Ikkinchi shunaqa qilmasin deb, adabini berish kerak, - dedi Oppog'oy.

Ular shu chog' ko'cha o'rtasida o'sgan olma yonidan o'tib qolishdi. Shoxlarda qip-qizil bo'lib pishgan olmalar shig'il edi.

Olmaga uzun narvon qo'yilgan edi. Narvon daraxtning yarmigacha yetgan. Undan u yog'idagi shoxiga arqon narvon bog'langan edi. Arqon boylangan butoqda ikkita mittioy o'tirardi. Bitta qiz hadeb olmaning bandidi arralar, boshqasi bo'lsa yerga tushib ketmasin deb, uni ushlab turardi.

- Bu yerdan ehtiyot bo'lib o'ting, - deb Bilmasvoyni ogohlantirib qo'ydi Ko'kko'z, - olma tushib ketib o'ldirib qo'yishi mumkin.

- Meni o'ldirib bo'пти! - deb maqtandi Bilmasvoy. - Mening kallam pishiq.

- Bolalar faqat biz botirmiz deb chiranishadi, lekin qizlar ham qo'rqqoq emas. Ko'rdingizmi, shundoq daraxtning eng uchiga chiqib ketishibdi, - dedi Oppog'oy.

- Lekin, o'g'il bolalar havo pufagida uchishadi, avtomobilda yurishadi, - dedi Bilmasvoy.

- Yursa nima bo'пти! - dedi Oppog'oy. - Qizaloqlarning ham ko'pi avtomobilda yura oladi.

- Hali avtomobillaring ham bormi?

- Bor. Ammo buzilib qolgan-da. Uni tuzataverib, tuzataverib sirayam epga keltira olmadik. Balki avtomobilimizni tuzatishga yordam berarsiz?

- Yordam beraman, - deb javob berdi Bilmasvoy. - Men bu sohani uncha-muncha tushunaman. Murvatvoy bilan Tuzatvoy kasalxonadan chiqishsin, ularga ayta-man, tuzatib berishadi.

– Juda yaxshi bo'lardi-da! – deb chapak chalib yubordi Oppog'oy.

Bilmasvoy umrida hech bunaqa ajoyib narsani ko'rmagan edi. Ko'chaning o'rtasida ikki qavatli uyday keladigan, ehtimol, undan ham katta yashil pufaklar dumalab yotardi.

– Bu nima, havo pufagimi? – deb hayron bo'ldi Bilmasvoy.

Oppog'oy bilan Ko'kko'z undan kulishdi.

– Bu tarvuz-ku, – deyishdi ular. – Sira tarvuzni ko'rmaganmisiz?

– Sira ko'rmaganman, – deb tan oldi Bilmasvoy. Biz tomonda tarvuz o'smaydi. Uni nima qilishadi?

Oppog'oy piqillab kulib yubordi.

– Voy, anov bolani, tarvuzning nimaligini bilmas ekan! Siz hali olma bilan nokning ham nima keragi bor dersiz?

– Nahotki uni yeyishsa? – deb hayron bo'ldi Bilmasvoy. – Bunaqa kattasini bir yilda ham yeb tamom qilolmaysan.

– Biz ularni yemaymiz, – dedi Ko'kko'z, – ulardan sharbat olamiz. Agar tarvuzni teshsang, undan shirin suv oqa boshlaydi. Bitta tarvuzdan bir necha bochka sharbat olsa bo'ladi.

– Tarvuz ekishni kim o'ylab topgan? – deb so'radi Bilmasvoy.

– Bizda bitta juda ham aqlli qiz bor. Uning oti Maysaoy, – dedi Ko'kko'z. – U turli o'simliklar o'stirib, ularning yangi-yangi navlarini yetishtirishga qiziqadi. Oldin bizlarda sirayam tarvuz bo'lmagan. Kimdir Maysaoyga o'rmonda yovvoyi tarvuz ko'rganini aytgan. Maysaoy kuzda bir kuni o'rmonga qidiruv uyushtirib, o'rmon yalangligida o'sgan yovvoyi tarvuzni topdi. Yovvoyi tarvuz

urug'ini olib keldi. Maysaoy ko'klamda urug'larni ekdi. Tarvuzlar katta bo'ldi, lekin taxir chiqib qoldi. Maysaoy ular ustida erinmasdan ish olib bordi, har birining suvini tatib ko'rdi. U birdan suvi uncha taxir bo'lmagan tarvuz navini topdi. Kelgusi yil shu tarvuz urug'ini ekdi. Bu safar unchalik taxir bo'lmagan tarvuzlar yetishdi, ular ichida shirinlari ham uchrab qoldi. Maysaoy eng shirin tarvuzning urug'ini olib, kelgusi yil ekib ko'rdi. Bir necha yil shu usulni qo'llab, asalday shirin tarvuz yetishtirdi.

- Endi hamma Maysaoyni maqtaydi, oldinlari uni shunaqayam so'kishardi... - dedi Oppog'oy.

- Nima deb so'kishardi? - deb hayron bo'ldi Bilmasvoy.

- Bu taxir tarvuzdan tuzukroq bir nima chiqadi deb hech kim o'ylamasdi. Yana shaharning qayeriga qarasang, tarvuz bosib ketgan, yurib bo'lmasdi. Tarvuz ko'pincha ba'zi bir uylarning devorlari yonida ham o'sa boshladi. Kichkinaligida-ku, mayli-ya, ammo o'sib ketgandan keyin-chi, devorga yonboshlab, uni qulata boshladi. Bu tarvuzning dastidan bir uy qulab tushdi. Ba'zi bir qizaloqlar Maysaoyga tarvuz ekishni man qilishmoqchi ham bo'lishdi, lekin boshqalari uning yonini olib, unga yordam ham berishdi.

Sayohatchilarimiz shu payt daryo bo'yiga chiqib qolishdi.

- Bu - Tarvuz daryosi, - dedi Oppoq qiz. - Tarvuzlarning ko'pligini ko'ryapsizmi?

Daryoning u betidan-bu betiga uzun sholchaga o'xshagan narsadan ko'prik qurishgan edi. U qandaydir qalin va pishiq narsadan qilingan edi.

- Bu ko'prikni qizaloqlarimiz yasashgan, - dedi Ko'kko'z. - Biz buni zig'ir poyasidan bir oyda to'qidik, keyin uni suv ustidan o'tkazishga o'g'il bolalar yordam berishdi.

– Voy, bir qiziq bo'lgan ediki, – deb maqtandi Oppog'oy. – Bitta bola suvga tushib ketib, sal bo'lmasa cho'kib ketayozdi, lekin suvdan chiqarib olishdi.

Ko'kko'z ko'prikdan pildirab o'tib ketdi. Bilmasvoy ham ko'prikka dadil qadam qo'ydi-yu, ko'prikning lopillayotganini sezib shu zahotiyiq to'xtab qoldi.

– Nega u yerda to'xtab qoldingiz? – deb so'radi Oppog'oy, – cho'chiyapsizmi?

– Sirayam cho'chiyotganim yo'q. Ko'prik kulgili ekan, xolos.

Bilmasvoy engashib ikki qo'li bilan ko'prikni ushlab oldi. Yana birov qo'rqqaypti demasin deb, qiqir-qiqir kulib ham qo'ydi.

Bilmasvoyning bir qo'lidan Oppog'oy, bir qo'lidan Ko'kko'z yetaklab ko'prikdan o'tkazishdi. Qizaloqlar Bilmasvoyning qo'rqayotganini bilishsa ham unga kulishmadi. Nega deganingizda, o'g'il bolalardan kulasangiz, ularga juda alam qiladi. Sayohatchilarimiz daryoning narigi betiga o'tib, ko'cha bo'ylab ketishdi. Sal yurgandan keyin yashil tomli oq uychaga yetishdi.

– Kasalxonamiz mana shu bo'ladi, – dedi Ko'kko'z.

O'n beshinchi bob

KASALXONADA

Oppog'oy eshik oldida to'xtab, qo'ng'iroqning bandidan tortdi. Jiringlagan tovush eshitildi. Eshik ochilib, ostonada oq xalat kiygan, ro'molining tagidan oltin kokillari chiqib turgan hamshira paydo bo'ldi.

- Voy o'lmasam, - deb qichqirdi u va cho'chigani-dan chapak chalib yubordi. - Tag'in bitta kasalni olib kelishibdi. Joy yo'q, ishoning, joy yo'q! Yil bo'yi kasalxona bo'shligidan hech kim davolanishni xohlamagan edi, bugun bo'lsa, o'n beshinchi kasalni olib kelishdi-ya!

- Bu bola kasal emas, - dedi Oppog'oy, - u o'rtoqlarini ko'rgani keldi.

- Unaqa bo'lsa, kira qolinglar.

Qizaloqlar bilan Bilmasvoy vrach xonasiga kirishdi. Asalxon stolda o'tirib nimanidir yozardi. Uning oldida bir uyum kasallik varaqalari yotardi. Oppog'oy bilan Ko'kko'zni ko'rib:

- Kasallarni ko'rgani kelgandirsiz-a? - dedi, - Bo'lmaydi, bo'lmaydi! Kasallarga tinchlik kerakligini o'zinglar ham bilasizlar. Ko'kko'z, halitdan peshonangizda malham paydo bo'libdimi? Tabriklayman! Men buni sizga oldindan aytuvdim-a, uyda bittagina o'g'il bola aylanishdimi, bo'ldi, g'urrani kutaver deb, ular menga ko'pdan ma'lum.

- Biz kasallarni ko'rmoqchi emasmiz, - deb javob berdi Oppog'oy, - Kasallarni manavi bola ko'rmoqchi, bu - ularning o'rtog'i.

- Men bu bolaga o'rinda yotgin deb buyurgan edim, u bo'lsa vrachning ruxsatisiz turib ketgan, halitdan janjal boshlaganini ham ko'rib turibman. Men unga ruxsat berolmayman, kasalxona janjalxona emas.

- Men sira janjal qilmayman, - dedi Bilmasvoy.

- Yo'q, yo'q! - deb qat'iy gapirdi Asalxon va yog'och karnaychasini stolga urib qo'ydi. Bolalar doim: «Janjal qilmayman», deydi-da, keyin baribir boplaydi.

Asalxon Bilmasvoy bilan gapni kalta qilib, Ko'kko'zga o'girildi.

– Qani, menga peshonangizni ko'rsating-chi, jonginam, – dedi.

U malhamni ko'chirib olib, Ko'kko'zning peshonasini ko'ra boshladi.

– Malhamning endi keragi yo'q, – dedi Asalxon ko'rib bo'lib, – men bilan yuring, jonginam, peshonangizga ko'k nur bersak, dog' qolmaydi.

U Ko'kko'z bilan birga xonadan chiqdi. Bilmasvoyning ko'zi qoziqdagi oq xalat bilan qalpoqqa tushdi. U uzoq o'ylab o'tirmasdan xalatni kiydi-da, qalpoqni boshiga qo'ndirdi. Asalxon stol ustida qoldirgan ko'zoynakni taqib, yog'och karnaychani ham oldi-da, xonadan chiqdi. Oppog'oy Bilmasvoyning dadilligi va epchilligiga hayron qolib, qarab turdi.

Yo'lakdan borib bir eshikni ochgan edi, o'z o'rtoqlari – mittilar yotgan kasallar palatasini ko'rdi. Birinchi karavotga yaqinlashgan edi, unda Sergapni ko'rdi. Sergapning yuzidan g'amginlik va norozilik alomatlari sezilib turadi.

–O'zingizni qanday sezyapsiz, bemor? – deb so'radi Bilmasvoy ovozi o'zgartirishga harakat qilib.

– Juda yaxshi, – deb javob berdi Sergap va bir necha daqiqadan keyin o'ladigan odamday yuzini burishtirdi.

– Turing-chi, bemor, – deb buyurdi Bilmasvoy.

Sergap istamasdan o'rnidan qo'zg'alib, o'tirib oldi va indamay qarab turdi. Bilmasvoy uning ko'kragiga yog'och karnaychasini qo'yib ko'rdi:

– Nafas oling, – dedi.

– Bu qanaqasi, axir! – deb vaysadi Sergap. – Bir turing, bir yoting, bir nafas oling, bir nafas olmang, deydi!

Bilmasvoy uning kallasiga karnaycha bilan shaq etib solib qoldi:

- Sen, Sergap, sirayam o'zgarmabsan. Hamon vaysaganing-vaysagan, - dedi.

Sergap unga anqayib qarab qoldi:

- Bilmasvoy!

- Jim! - deb pichirladi Bilmasvoy.

- Menga qara, Bilmasvoy, bu yerdan chiqishingga yordam ber, - dedi Sergap. - Men soppa-sog'man, chin so'zim! Tizzam sal lat yegan, og'rimaydi hisob, o'ringa yotqizib qo'yishdi, kiyimlarimni berishmayapti. Juda tamom bo'ldim. Ketgim kelyapti!

Sergap Bilmasvoyning yengiga osilvolib uni qo'yib yubormadi.

- Mayli, - deb javob berdi Bilmasvoy, - ozroq sabr qilib tur, o'ylab, bir ilojini topay. Endi gapimga quloq solishga va'da ber, agar mittioylar, havo pufagini kim ishlatdi, deb so'rashsa, meni aytasan.

- Bo'пти, bo'пти, - deb kallasini liqillatdi Sergap. - Faqat tezroq qimirla!

- Xavotir olma, - deb ishontirdi uni Bilmasvoy.

Bilmasvoy ikkinchi karavot oldiga bordi, unda doktor Dorijon yotardi.

- Og'aynijon, yordam qil! - deb pichirladi Dorijon. - Sira toqatim qolmadi! Umrим bo'yi boshqalarni davolardim, endi meni davolashyapti.

- Hali sen ham kasalmasmisan?

- Kasallik qayoqda deysan. Yelkam sal shilingan, burnim jindak qirilgan. Buning uchun kasalxonada yotishning hojati yo'q.

- Seni nega bu yerda ushlab turishibdi?

- Bilasanmi, ularning kasalxonasi bo'm-bo'sh, davolashga hech kim yo'q. Ular qanday bo'lmasin kasalni davolamoqchi bo'lishadi. Bular qizaloqlar-da axir! Nima bo'lardi! Davolash ham rasvo, tfu! Oldin asal mal-

hami yopishtirib, keyin asal ichirishadi. Bu axir to'g'ri emas: oldin yaraga yod surtish kerak-da, ichish uchun surgidori berish kerak. Men ularning davolash usuliga qo'shilmayman.

– Men ham qo'shilmayman, – deb arz qildi yonidagi o'rinda yotgan Magarqul. – Yurish mumkin emas, chopish mumkin emas, quvlashmashoq o'ynash mumkin emas. Hatto qo'shiq aytish ham mumkin emas. Hammaning kiyim-kechagini olib qo'yib, atigi bittadan dastro'mol berishdi. Yotasan-u burningni artasan, xolos.

– Nima uchun kasalxonaga bordilaring?

– Kecha biz shahar chetida savatdan sochilib ketib, o'sha yerda uxlab qolibmiz. Tong paytida bizni qizlar uyg'otishdi: «Qayerliksizlar, bolalar?» – deyishdi. «Bizlar havo pufagida uchib yuruvdik, yiqilib tushdik», – dedik. «Voy, sizlar yiqildinglarmi? E, sizni davolash lozim! Qani, kasalxonaga yuringlar!» – deyishdi. Biz boraverdik.

– Bundan chiqdi, hech kim kasal emas ekan-da? – deb so'radi Bilmasvoy.

– Yo'q, yolg'iz O'qtoy kasal, xolos.

Bilmasvoy O'qtoyning yoniga keldi.

– Senga nima qildi?

– Oyog'im chiqdi. Sira yurolmayman. Ammo, bu meni bezovta qilayotgani yo'q. Bilasanmi, Ko'ktoyim yo'qolib qoldi. Og'ayni, bir yaxshilik qilib, itimni qidirib ko'rgin, ehtimol, u shu yaqin oradadir. O'rnimdan qo'zg'alolmayman, axir.

– Xo'p, – dedi Bilmasvoy. – Ko'ktoyningni qidirib ko'rgan, sen-chi, pufakni Bilmasvoy topgan, deb aytgin hammaga.

Bilmasvoy barcha bolalar bilan gaplashib chiqdi. Ularga pufakni topgan men denglar, deb uqtirdi. Keyin

vrach xonasiga qaytib keldi. Oppog'oy uni betoqat bo'lib kutib turardi.

- Bemorlarning ahvoli qalay? - deb so'radi u.

- Qanaqasiga ular bemor bo'lsin? - deb qo'l siltadi Bilmasvoy. - Faqatgina O'qtoy sal kasal.

- Bundan chiqdi, tezda ularni chiqarisharkan-da? - deb sevinib ketdi Oppog'oy. - Bilasizmi, men nima o'ylab topdim? Kasallarning tuzalishi sharafiga bazm uyushtiramiz. Juda yaxshi bo'ladi, o'ynab-kulamiz!

- Ularni chiqarishadiganga o'xshamaydi, - dedi Bilmasvoy.

Shunda Asalxon bilan Ko'kko'z qaytib kelishdi.

- Siz nima uchun xalat kiyib oldingiz? Bu qanday o'zboshimchalik! - deb Asalxon Bilmasvoyga tashlandi.

- Hech qanday o'zboshimchalik emas, - dedi Bilmasvoy. - Men shunchaki tekshirib chiqdim.

- Tekshirishning natijasi nima bo'ldi? - mayna qilib so'radi Asalxon.

- Tekshirish shuni ko'rsatdiki, bitta kasaldan boshqa hammasi soppa-sog', ularni chiqarib yuborsa bo'ladi.

- Yo'q, yo'q! - dedi jon holatda Asalxon, - birdaniga o'n to'rtta bolani chiqarib yuborsa, nima bo'lishini bilasizmi? Butun shaharni ostin-ustun qilib yuborishadi! Bittayam butun oyna qolmaydi, hammaning bosh-ko'zi yorilib, g'urra paydo bo'ladi. G'urra kasalidan ehtiyot qilish maqsadida, kasallarni kasalxonada olib turishga majburmiz.

- Ehtimol, oz-ozdan chiqarish mumkin bo'lar? - dedi Ko'k ko'z. - Jilla bo'lmaganda bir kunda bittasini.

- Bittadan juda oz, eng kamida ikkitadan bo'lsa, - dedi Oppog'oy. - Biz yaqinda ularning tuzalishi sharafiga bazm uyushtirmoqchimiz.

– Ha, durust, – deb rozi bo'ldi Asalxon. – Ro'yxat tuzamiz-da, ertadan boshlab bittadan kasalni chiqaramiz.

Oppog'oy chapak chalib, Asalxonni quchoqlab oldi:

– Yo'q, ikkitadan, jonginam, ikkitadan! Men hammalarining tezroq chiqishini istayman. Sizning ham bazmga borgingiz keladi-ku, axir. Siz ajoyib raqs tushasiz-ku!

– Ha, durust, ikkitadan, – deb yumshadi Asalxon. – Boshlab eng yuvoshlarini chiqaramiz. Siz bizga yordam berishingiz kerak, – deb u Bilmasvoyga murojaat qildi, – eng yuvoshi kim?

– Hammalari ham yuvosh! – deb javob berdi Bilmasvoy.

– Mana bu gapga men hech ham ishonmayman. O'g'il bolalarning yuvoshi bo'lmaydi. Ularni sho'xlik qilishdan qaytarish uchun, albatta biror ishga ovora qilib qo'yish kerak.

– Unday bo'lsa, birinchi galda anov Murvatvoy va Tuzatvoy degan ustalarni chiqara qolamiz. Ular chiqa solib mashina tuzatishga kirishadi, – dedi Ko'kko'z.

– Yaxshi fikr! – deb ma'qulladi Asalxon. – Shu Murvatvoy, Tuzatvoylardan boshlay qolamiz.

Murvatvoy bilan Tuzatvoyni qog'ozga yozib oldi.

– Bulardan keyin Sergapni chiqara qolsak deyman, – dedi Asalxon. – U shunaqangi yomon! Hech kimga tinchlik bermay vaysagani-vaysagan.

– Yo'q, kerak emas, – deb norozi bo'ldi Bilmasvoy, – yaxshisi, Sergapni kasalxonada ushlab turish kerak, bundoq ko'zi ochilsin.

– Undoq bo'lsa, Dorijonni chiqarish mumkin. U bizning kasalxonadan norozi. Davolash usulimizni tanqid qilgani-qilgan. Juda bezovta kasal. Umuman, men undan qutulishga qarshi emasman.

– Yo'q, Dorijonning ham keragi yo'q, – dedi Bilmasvoy. – U umr bo'yi boshqalarni davolardi. Keling, endi

uning o'zi ham bir davolansin. Yaxshisi, Bo'yoqvoyni chiqaramiz. U juda yaxshi rassom, unga darrov ish topiladi. U – mening shogirdim. Uni rasm solishga men o'rgatganman.

– To'ppa-to'g'ri, jonginam! – dedi Oppog'oy. – Bo'yoqvoyni bugun chiqarsa bo'lmaydimi, deb yalindi. Men undan suratimni ishlab berishini iltimos qilardim.

– Va Mashshoqvoyni ham, – deb qo'shib qo'ydi Bilmasvoy. – Bu ham mening shogirdim. Nay chalishni men o'rgatganman.

Oppog'oy Asalxonni yana quchoqlab:

– Bo'yoqvoy bilan Mashshoqvoyni chiqara qolaylik! Keling, chiqara qolaylik! – dedi.

– Ha, yaxshi, bularga ruxsat beramiz, – deb yumshadi Asalxon.

– Ammo boshqalarini navbat bilan chiqaramiz.

Oxiri ro'yxat tuzildi. Asalxon Bo'yoqvoy va Mashshoqvoyni olib chiqishni buyurdi, ular bir necha lahzadan keyin Asalxon xonasida paydo bo'lishdi, sevinganlaridan yuzlari qizarib ketgan edi.

– Sizlarni chiqaramiz, – dedi Asalxon. – O'zingizni yaxshi tutishga harakat qilinglar, aks holda, sizni yana kasalxonaga tiqishga to'g'ri keladi.

O'n oltinchi bob

KONSERT

Mashhur sayyoh, Bilmasvoy va uning kasalxonaga tushib qolgan o'rtoqlari haqidagi xabar butun shaharga yoyildi. Zag'chaxon bilan Do'mbog'oy charchamasdan uyma-uy yugurib,

yangilik haqida o'z sheriklariga aytib berishdi. Eshitgan o'rtoqlari, o'z navbatida, boshqa o'rtoqlariga, boshqalari bo'lsa, yana boshqalariga aytib berishdi. Butun shahar aholisi buyruq olganday kasalxonaga yo'l oldi. Har bir qizaloq nima bilan bo'lsa-da, yiqilgan bolalarga yordam bermoqchi bo'lardi.

Ular har xil narsa olib kelishgan edi. Ba'zi birida xushxo'r pirog, boshqasida esa qiyom, yana birida shirinlik yoki sharbat bor edi.

Kasalxona yo'li yarim soat ichida qizaloqlarga to'lib ketdi. Buncha ko'p kishini kasalxonaga kiritib bo'lmaydi, albatta. Asalxon eshik oldidagi zinaga chiqib, kasallar hech nimaga muhtoj emas, shuning uchun deraza tagida shovqin solmasdan barcha uy-uyiga tarqalsin, dedi. Ammo qizaloqlar ketishni xohlashmasdi. Bilmasvoy nomli eng mashhur bola o'z o'rtoqlari Bo'yoqvoy va Mashshoqvoy bilan kasalxonadan chiqar ekan, degan gap ularga ma'lum bo'libdi.

Asalxon hamma tarqalib ketmaguncha Bilmasvoy chiqmaydi deb yana e'lon qildi. Lekin qizaloqlar uy-uy-lariga ketmay, kasalxona ko'chasidagi dugonalarinikiga kirishdi. Bilmasvoy, Bo'yoqvoy va Mashshoqvoylar Oppog'oy bilan Ko'kko'z boshchiligida ko'chaga chiqishganda hamma derazalardan o'nlab qizaloqlar qarashayotganini ko'rishdi. Bilmasvoy bu e'tibordan juda mamnun edi. Ba'zi ovozlar unga ham eshitilardi:

- Aytinglar-chi, aytinglar-chi, mashhur Bilmasvoy qaysi biri?

- Bilmasvoy - huv anovi sariq shimligi.

- Anovi shalpanquloqmi? Hech ham uni Bilmasvoy demasdim. Ko'rinishidan ancha tentakka o'xshaydi-ku.

- Yo'q, aniq, aniq! Ko'rinishidan tentakka o'xshasa ham, lekin ko'zidan aqliga o'xshaydi.

Burchakdagi uyning ikkinchi qavatidan bitta qizaloq Bilmasvoyni ko'rib qo'llarini silkib, ingichka, chiyildoq tovush bilan qichqirdi:

- Bilmasvoy, Bilmasvoy, ura!

U derazadan ko'chaga shunday intildiki, yiqilishiga sal qoldi. Yaxshiyam boshqa qizaloqlar oyog'idan ushlab tortib olishdi.

- Voy anovini, uyat-ku! Hali bu Bilmasvoy kim bilsin, o'zini nimalar deb o'ylab yurarkan! - dedi ozg'ingina yuzli, qirra og'izli qizaloq.

- Sizniki to'g'ri, Qaldirg'och, - deb javob berdi unga tepa labi qayrilib, oq tishlari yarqirab turgan boshqa qizaloq. - Bolalarga qaraganingni o'zlari sezmasin. Sho'xligini hech kim pisand qilmaganiga ishonsa, o'zi sho'xlik qilmay qo'yadi.

- Mana shuni aytyapman-da, Moshxon, - deb tasdiqladi Qaldirg'och. - Bolalarni pisand qilmaslik kerak. Pisand qilmaganingizni ko'rishsa bormi, pisand qilmas ekan deb bizni kamsitishdan cho'chishadi.

Qaldirg'och bilan Moshxon pichir-pichir, vijir-vijir qilib, pufakda uchib kelgan bolalarga nazar-pisand qilmaslik zarurligini uqtirishardi. Hamma qizaloqlar, agar ko'chada ularni uzoqdan ko'rib qolguday bo'lsak, e'tibor bermay yo orqaga qaytamiz, yo bo'lmasa ko'chani boshqa tomoniga o'tib olamiz, deb shartlashishdi.

Ammo bu shartlashishdan foyda chiqmadi. Bo'yoqvoy rassom, Mashshoqvoy bo'lsa nay chaladigan mashhur musiqachi ekanligi, tasodifan, hammaga ma'lum bo'lib qoldi. Hamma ham tezda nay ovozini eshitishni istardi, nega deganingizda Yashil shaharda faqat chiltor chalishni bilishar, sirayam nayni eshitishmagan edi. Ko'plar hatto shunaqa cholg'u asbobi borligini ham bilishmas edi.

Bo'yoqvoy bilan Mashshoqvoyning Olmazor maydonchasida o'z dugonalari bilan yashaydigan Tugmaoy degan qizaloqning uyiga kelishganini hammalari tezda bilib olishdi. Uying ikkinchi qavatida derazalari katta, yop-yorug', kenggina xona bor edi. Bu xona yorug' bo'lganidan Bo'yoqvoyga yoqib qoldi. Mashshoqvoy bilan ikkalasi shu yerga joylashishni istab qoldi. Bu tepadagi xonaning derazasi to'ppa-to'g'ri Olmazor maydonchasiga qaragan edi. Hech qachon bunchalik gavjum bo'lmagan Olmazor maydoni bugun kechqurun sayr qilib yurgan qizaloqlarga to'lib ketdi. Ular ikkitadan bo'lishib maydonchadan o'tishar va ikkinchi qavatdagi yorug' derazaga zimdan qarab qo'yishardi. Turgan gap, ular Bo'yoqvoy bilan Mashshoqvoyni ko'rish uchun kelishmagan, balki sabrsizlanib, musiqa eshitishni istardilar.

Ular ochiq derazadan goh sochlari silliq taralgan Mashshoqjonning boshini, goh Bo'yoqvoyning hurpaygan sochini o'qtin-o'qtin ilg'ab qolishardi. Keyin derazadan boshlar ko'rinmay qoldi, qizaloqlar deraza tokchasiga suyanib, uzoqlarga qarab xayol surib turgan Bo'yoqvoyni ko'rishdi. Bo'yoqvoyning ketidan Mashshoqvoy deraza yonida paydo bo'ldi. Ular ikkovi atrofga alanglab, qo'llarini siltab allanimani muhokama qilisha boshlashdi. Keyin ikkovi derazadan boshini chiqarib, pastga engashib qarashdi. So'ngra ikkinchi qavatdan bir martadan tuflashdi-da, tag'in derazadan g'oyib bo'lishdi.

Endi hech qanaqa qiziq voqea bo'lmasa kerak deb o'ylashsa-da, lekin qizaloqlar tarqab ketishmadi. Shu zahoti derazadan ariqdagi suvning shildirashiga o'xshagan mayin, yoqimli nay ovozi eshitildi. Nayning ovozi ba'zan to'lqinga o'xshab birining ketidan biri astagina oqib ketar, ba'zan bo'lsa havoda umbaloq oshganday, sakraganday bo'lar, bir-birining orqasidan quvlashar va o'zaro to'qnashib oli-

shardi. Bundan hammaning ko'ngli to'ldi. Nayning yoqimli ovozi go'yo hammaning qo'lidan, oyog'idan tortganday tuyular, beixtiyor o'yinga tushib ketgisi kelardi.

Uylarning derazasi astagina ochildi. Maydonda harakat to'xtadi. Hamma jimib, kuyni berilib eshitardi.

Oxiri nay ovozi tindi. Lekin shu zahotiy oq qarshi tomondagi uyning derazasidan chiltorning ovozi eshitildi. Chiltor hali hech kim eshitmagan bu yangi kuyni qaytarishga harakat qilardi. Kimningdir barmoqlari chiltor torlarini ohista chertardi. Oldiniga tezkor boshlangan kuy sekin-asta susaydi, oxiri batamom tinib qoldi. Ammo shu ondayoq nay yordamga kelib davomini boshlab yubordi. Chiltor jonlanib qat'iyroq kuylay boshladi. Unga qo'shni uydan ikkinchisi jo'r bo'ldi, keyin yana boshqasi. Musiqa balandroq va quvnoqroq jaranglay boshladi. Bo'yoqvoyga bo'yoq va mo'yqalamlarini beraman deb yugurib kelgan Bilmasvoy uy oldidagi maydonda bo'layotgan tomoshani ko'rib qoldi. Butun maydon ajoyib konsert tinglayotgan qizaloqlar bilan to'lib ketgan edi. Konsertni Bilmasvoy ham eshitdi, u hatto bir oyoqlab sakradi ham. Lekin o'yiniga hech kim e'tibor bermayotganini payqab, qo'l siltadi va uyya kirib ketdi.

*O'n yettinchi bob***MURVATVOY BILAN TUZATVOYNING
VARRAKXONA SHAHRIGA SAYOHATI**

Do'stlar chiqing qator-qator,
Zaryadkaga bo'ling tayyor.
Badantarbiyani boshlang,
Yalqovlikni tezda tashlang.

SHoir Gulshaniy yozgan badantarbiya haqidagi bu qo'shiqni Murvatvoy bilan Tuzatvoy aytib yurardi. Yashil shaharda hali hamma uxlab yotardi. Murvatvoy bilan Tuzatvoy bo'lsa, tong sahardan turvolib ko'chadan qo'shiq aytib, yo'l-yo'lakay badantarbiya qilib o'tib qolishdi.

Ularni mashina tuzatish uchun kasalxonadan bo'shatishmoqchi bo'lishganini kechayoq bilishgan edi. Shuning uchun ular saharlab uyg'onib, tezda bo'shatishni talab qilishdi. Dunyoda hammadan ko'ra shovqin-surondan qo'rqadigan Asalxon tezroq ularning kiyimboshlarini berishga ruxsat etgandi.

Uzoqdan kelayotgan qo'shiq ovozi eshitib, ko'pchilik qizaloqlar uyg'onishdi, ba'zilari derazadan qarashar, ba'zilari esa ko'chaga ham chiqib olishgandi.

– Ey qizaloqlar, garajlaringiz qayoqda? – deb so'radi Murvatvoy.

– Yuringlar, o'zim ko'rsatib qo'yaman, – deb talabgor bo'ldi boshiga qizil qalpoqcha, qora kapalaknusxa yoqali ko'k palto kiygan qizaloq.

– Qani, ko'rsat-chi, biz chapga yuramizmi, yo o'nggami? – deb so'radi Murvatvoy.

- O'ngga, - deb javob berdi qizaloq ularning egnidagi charm libosga qiziqib qarab.

- O'ngga! Qani, olg'a! - deb buyruq berdi Murvatvoy va qayrilib ko'chadan yurib ketdi. - Bir-ikki! Bir-ikki!

Tuzatvoy uning ketidan baravar qadam tashlashib ketdi. Qizaloq bo'lsa, ular ortidan sakrab-sakrab chopib, zo'rg'a yetib olardi.

Murvatvoy bilan Tuzatvoy shu yurishda mo'ljallangan darvoza oldidan o'tib ketishdi.

- To'xtanglar! To'xtanglar! - deb qichqirdi qizaloq. - O'tib ketdinglar.

- Orqaga! - deb buyruq berdi Murvatvoy.

Ikkalasi orqasiga qaytib kelishdi. Qizaloq eshikni ochdi. Uchalovi hovliga kirishdi. Uydan sal narida usti gumbaznamo saroy bor edi.

- Mana bu garajni ko'r! Bu garajmas, saroy-ku, - dedi Tuzatvoy ikki tavaqali enli eshikni ocha turib. Murvatvoy saroy ichiga qarab, mashinani ko'rdi. Saroyga yana bir necha qizaloqlar kelishdi.

- Bu yer qorong'i ekan, - dedi Murvatvoy. - Qani kelinglar, mashinani tashqariga olib chiqamiz.

- U yurmaydi, buzilib qolgan-ku axir, - deyishdi qizaloqlar.

- Hech gapmas, biz uni itarib yurgizamiz. Qani, orqasidan itaringlar-chi! Ha, qani, baravariga, qani, ha!

Mashina g'ichirladi. U garajdan chiyillab, g'ildirab chiqdi.

Murvatvoy bilan Tuzatvoy shu zahotiy oq mashinaning tagiga kirib ketishdi. Qizaloqlar atrofda, hayron bo'lib g'ildirak ostiga qarab turishardi.

- Voy-bo', - degan tovush eshitildi mashinaning tagidan, - suvdon teshilib ketibdi-ku! Voy-bo', gaykasi ham yo'q, voy-bo', sharbat o'tkazadigan quvuri yori-libdi!

Keyin ular mashinaning tagidan chiqishdi.

– Qani, endi bizlarga gayka kaliti, ombir, bolg'a va kavsharlagichlarni beringlar-chi, – dedi Murvatvoy qizaloqlarga.

– Bizda bunaqa narsalar yo'q.

– Qanaqasiga yo'q? Nima bor bo'lmasa?

– Arra bor, bolta bor yana.

– E, sizlarni qarang! Bolta bilan mashinani tuzatib bo'larmidi? Yaqin joyda o'g'il bolalar bormi?

– Bolalar faqat Varrakxonada bo'lishadi.

– Uzoqmi?

– Bir soatlik yo'l.

– Sizga bir soatlik bo'lsa, biz tezroq yetamiz. Boradigan yo'lni ko'rsatib beringlar-chi.

– Huv anavi, o'ng tomondagi ko'chadan ketaverasiz, ketaverasiz. Keyin dala yo'li keladi. O'sha yo'ldan to'ppa-to'g'ri ketaversangiz, Varrakxonaga borasiz.

– Tushunarli, – deb javob berdi Murvatvoy. – Qani, olg'a! To'xta! – deb birdan buyruq berdi u. – Siz, qizaloqlar, biz borib kelguncha latta-putta topib, mashinani yaxshilab artib qo'yinglar. Mashina-chi, singilchalar, parvarishni yaxshi ko'radi.

– Xo'p, – deb rozi bo'lishdi qizaloqlar.

– Qani, endi olg'a!

Ikkovlari jo'nab ketishdi. O'ngga burilishlari bilan Murvatvoy buyruq berdi:

– Qo'shiq aytamiz!

Bizning do'stlarimiz baqirib qo'shiq aytishdi:

Kezdik o'rmon, o'tloq bilan,
 Dilga yaqin o'rtoq bilan.
 Tepalardan o'tdik oshib,
 Gulzorlardan gul hidlashib.

Birdan chiqib bir qurbaqa,
 Qochib qoldik biz shunaqa.
 Uyg'a yetdik omon, dedik,
 Ikkalamiz «voy, jon!» dedik.

Bu qo'shiq tugagandan keyin boshqasini boshlashdi, keyin yana boshqasini aytishdi.

Ular tez orada shahardan chiqib, katta yo'l bo'ylab ketishdi.

Bir soat bo'lmasdanoq uzoqdan Varrakxona shahri ko'rinib qoldi. Xuddi shu vaqtda Murvatvoy bilan Tuzatvoy yo'l o'rtasida turgan mashinani ko'rib qolishdi. Ular yaqinroq kelib, mashina tagida mitti bola borligini payqashdi. Uning boshi, ko'kragi mashina yukxonasi tagida ko'rinmas, faqatgina oyog'i, moyli shimi tashqariga chiqib yotardi.

- Ey og'ayni, o'tobda toblanyapsanmi? - dedi Tuzatvoy.

Qora jingalaksoch mitti bola mashina tagidan boshini chiqarib:

- Mana, ko'rib turibsan-ku, mashina tagida toblanishga to'g'ri kelib qoldi, - dedi.

- Nima bo'ldi o'zi?

- Bu la'natini ko'r, yurmayapti! Yo sharbat yetib kelmayapti, yo gazli suv me'yori buzilgan. Sirayam topolmayapman.

Mitti bola mashina tagidan chiqib, jahl bilan g'ildirakni bir tepdi.

Uning ustidagi qora kamzuli ham shimi kabi moyga belangandi, u xuddi charmdan qilinganga o'xshardi. Bechora bola, mashina ustida yurib haydashdan ko'ra, ko'proq mashinaning tagida yotib tuzatsa kerak. Gazli suv bilan yuradigan talay avtomashina haydovchilarining holi ham ko'pincha shunaqa bo'lib turadi.

Murvatvoy avtomashinaning atrofini aylanib, mexanizmlarini ko'rdi, hech qanaqa qusurini topolmay, mashina tagiga kirdi. Uning tagini kavlab ko'rib, qaytib chiqdi. To'xtab, bo'ynini qashib o'ylab turdi. Uning ketidan mashina tagiga Tuzatvoy kirib ko'rdi, keyin yana mashina egasi kirdi. Shunday qilib, ular birin-ketin mashina tagiga kirib-chiqishar, hayron bo'lib, bo'yinlarini qashib turishardi.

Oxiri Murvatvoy motorning to'xtab qolish sababini topdi. Mashina ishladi. Haydovchi xursand bo'lib ketganidan, minnatdor bo'lib Murvatvoy va Tuzatvoyning qo'lini qisdi.

– Rahmat, og'aynilar, siz bo'lmasangiz kechgacha oftoabda kuyib yotardim. Qayoqqa ketyapsiz? O'tiringlar, olib borib qo'yaman.

Murvatvoy bilan Tuzatvoy unga maqsadlarini aytishdi.

– Gayka kaliti, ombir bilan holg'a menda bor, berishim mumkin. Faqat kavsharlagich yo'q menda, – dedi haydovchi.

– Shahringizda bitta-yarimtdan kavsharlagich topilmasmikin?

– Nega topilmasin? Albatta topiladi. Buramavoy degan mexanigimizda kavsharlagich bor. Yuringlar, unikiga boramiz.

Uchovi mashinaga o'tirishdi va bir necha daqiqadan so'ng Varrakxonaning katta ko'chalaridan biriga chiqishdi.

*O'n sakkizinchi bob***VARRAKXONADA**

Varrakxona shahri daryo sohilida joylashgan. Bu shaharda daraxt o'smaganidan ko'chalari Yashil shahar ko'chalariday chiroyli emasdi. Ammo Gulzor shahridagidek hamma yoqda gullar ochilib yotardi. Bu yerdagi uylar juda chiroyli edi. Har bir tomning tepasida nayza bo'lib, ba'zilarining uchiga shamol qayoqdan essa, o'sha yoqqa qaraydigan – yog'och xo'rozchalar qo'ndirilgan, ba'zi birlarining uchida to'xtovsiz aylanib turadigan o'yinchoq shamol tegirmonining parragi bo'lardi. Bularga osilgan tartarak to'xtovsiz tarillab yotardi. Shaharning tepasida varraklar varanglab uchib turardi. Bu yerdagilar varrak uchirishni juda yaxshi ko'rganidan shaharni Varrakxona deyishardi. Varraklarning dardaragi bo'lardi. Buni qilish juda oson: bir parcha qog'ozni ipga yopishtirib, varrakning qulog'iga tortib qo'yiladi. Bu qog'ozga shamol tegib varanglaydi.

Varraklarning turli-tuman varanglashi shamol tegirmonidagi tartarakning ovozi bilan qo'shilib, shahar ustida to'xtovsiz shovqin-suron eshilib turardi.

Har bir uyning derazasiga panjara qoqilgan edi. Bu yerda yashovchilar futbolga juda qiziqardi. Ko'chada futbol o'yini boshlanganda derazaning panjarasini bekitib qo'yishardi. Bunaqangi panjaradan uy ichiga yorug'lik bemalol tushib turar, shuningdek, panjara deraza oynasini koptokdan ham saqlardi. Koptok bo'lsa nima uchundir mo'ljallangan joyga tegmay, hadeb oynaga tegaveradi.

Katta ko'chadan o'tishgach, mashina tor ko'chaga burilib, kichkina eshikchali taxta darvoza oldida to'xtadi.

Darvoza tepasida yog'och nayza bor edi, uning ustiga yaltiroq shisha pufak o'rnatilgan bo'lib, unda oynaga o'xshab butun ko'cha, uy, devorlar hamda darvoza oldiga kelib to'xtagan mashina ham teskari bo'lib ko'rinardi.

Aytmoqchi, haligi haydovchining oti Kulchavoy edi. U mashinadan tushib eshikcha oldiga keldi-da, devordagi tugmachani bosdi. Eshik o'zidan-o'zi sekin ochilib ketdi.

– Kiraveringlar, – deb Kulchavoy Murvatvoy bilan Tuzatvoyni taklif qildi, – Sizni Buramavoy bilan tanishtirib qo'yaman. Hozir ko'rasiz, u juda ajoyib.

Uchala oshna hovliga kirib chappa burilishdi-da, uyu tomonga yurishdi. Torgina tosh zinadan chiqishdi. Kulchavoy devordan tugmacha qidirib topib, uni bosdi. Bu eshik ham sekingina ochildi. Ular xonaga kirishdi.

Devorga tortilgan arg'imchoqni hisobga olmaganda xonada hech qanday jihoz yo'q, bo'm-bo'sh edi. Arg'imchoqda oyog'ini chalishtirib, qo'lini cho'ntagiga solib, havorang korjoma kiygan mitti bola yotardi.

– Haligacha uxlab yotibsanmi, Buramavoy? – deb salomlashdi Kulchavoy. – Tong otgani qachon edi.

– Men uxlayotganim yo'q, o'ylayapman, – deb javob berdi Buramavoy, kelgan mehmonlar tomon o'girilib.

– Mana, Murvatvoy va Tuzatvoy degan ustalar bilan tanish! – Bularga kavsharlagich zarur bo'lib qolibdi.

– Salom, qani o'tiringlar! – dedi Buramavoy. Murvatvoy bilan Tuzatvoy xonada o'tiradigan hech narsa topisholmay atrofga hayron bo'lib alanglashdi. Ammo Buramavoy qo'lini cho'zib, arg'imchoq ilingan devordagi tugmachani bosdi. Shu zahotiyuq qarshi tomondagi devordan ochilib-yopiladigan uchta kursi otilib chiqdi. Ular teatrdagi kursilarga o'xshardi.

Murvatvoy bilan Tuzatvoy o'tirishdi.

– Payqagandirsiz, mening hamma narsam tugmali, – dedi Buramavoy. – Bir tugmachani bossang – eshik ochiladi, boshqasini bossang – kursi paydo bo'ladi, mabodo sizga stol kerak bo'lsa, marhamat...

Buramavoy boshqa tugmachani bosdi. Devordan stol kelib tushdi, u sal bo'lmasa kursida o'tirgan Murvatvoyning boshiga tegay dedi.

– Juda qulayda bu, to'g'rimi? – dedi Buramavoy.

– Juda ham ajoyib, – deb ma'qulladi Murvatvoy.

Tag'in ustimga ul-bul tushib ketmasin deb atrofga xavotir olib qarab qo'ydi.

– Texnika afsonaga yaqinlashib qolgan! – deb maqtandi Buramavoy.

– Bittagina noqulaylik – faqat devor yonidagina o'tirishga to'g'ri keladi, – dedi Kulchavoy.

– Men ham xuddi shuni, kursilarni o'rtaroqqa qanday sursa bo'lar ekan deb o'ylab yuribman, – deb javob berdi ixtirochi.

– Oddiy kursi qilinsa qanday bo'lar ekan? – dedi Tuzatvoy.

– Bu juda yaxshi fikr! Oddiygina kursi o'ylab chiqarish kerak! – deb sevindi Buramavoy. – Axir eng ulug' ish soddalikda-da. Sen ham, og'ayni, mexanikka o'xshaysan-a?

– Mexanikman. – deb javob berdi Tuzatvoy. – Ikkalamiz ham mexanikmiz.

– Bundan chiqdi, sizlarga kavsharlagich kerak ekan-da?

Buramavoy o'tirganlarni hayron qoldirish uchun yana bir tugmani bosdi. Keyin arg'imchoq asta-sekin pastga tusha boshladi. Unda yotgan Buramavoy to polga yaslanib qolganga qadar arg'imchoq pastga tusha berdi.

– Oddiy arg'imchoqdan chiqishda oyog'ingiz arqonga o'ralib, yiqilishingiz, burningizni pachoq qilishingiz

mumkin, – dedi Buramavoy o'rnidan turar ekan. – Mening mexanizatsiyalashtirilgan to'r arg'imchog'imni ko'rib turibsiz, hech qanday xavf-xatar yo'q. Bemalol polga tushasiz-da, keyin turaverasiz. Uxlamoqchi bo'lsangiz ham xuddi shunga o'xshab, polga yotasiz, keyin tugmachani bosasiz, arg'imchoq sizni istagan balandlikka chiqarib qo'yadi.

Buramavoy xona bo'ylab yurib, har xil tugmachalarni bosa boshladi. Shunda yangi stol, kursi va tokchalar otilib chiqdi; shkaf va omborchalarning eshiklari ochilib ketdi. Oxiri bitta tugmachani bosgandi, o'zi tagxonaga tushib ketdi. Bir daqiqadan keyin hovlidan:

– Qani, buyoqqa kelinglar! – degan ovoz eshitildi. Do'stlar hovliga chiqishdi.

– Bu yer – mening garajim! – dedi Buramavoy Murvatvoy bilan Tuzatvoyni keng temir eshikli tosh saroyga boshlab kirib.

U tugmachani bosgan edi, eshik teatrdagi pardaga o'xshab yuqoriga ko'tarilib ketdi. Garaj ichida ko'p g'ildirakli ajoyib mashina turardi.

– Bu pista bilan sovutiladigan sakkiz g'ildirakli bug' avtomobili, – deb tushuntirdi Buramavoy. – Uning to'rt g'ildiragi tagida, to'rttasi ustida, Mashina pastki g'ildiragi bilan yuradi, ustki g'ildiraklar bo'lsa ag'darilib ketish xavfidan saqlanish uchun ehtiyotdan qilingan. Mashinaning sakkiz g'ildiragi ham qiyalama o'rnatilgan. Shuning uchun bu avtomobil faqat boshqa avtomobillarga o'xshab yurishidan tashqari, yoni bilan ham, to'ntarilib, ya'ni oyog'i osmondan bo'lib ham yuraveradi. Shunday qilib, har qanday halokatdan qutulish imkoniyatiga ega.

Buramavoy mashinaga chiqib to'rt holatda yurishini ham ko'rsatib berdi. Keyin yana tushuntira boshladi:

- Oddiy suvdon o'rniga, - dedi u, - mashinada gazli suvni isitadigan qozon bor. Suv isigandan keyin hosil bo'lgan bug' porshenda bosimni oshiradi, natijada g'ildirak tez aylanadi. Qozon orqasidagi suvdonda esa, pista muzqaymoq tayyorlanadi. Bu silindrni shamolatish uchun kerak. Issiqlikdan erigan muzqaymoq quvur orqali qozonga o'tib, motorni moylash ishini bajaradi. Mashinada to'rtta: ya'ni, birinchi, ikkinchi, uchinchi va to'rtinchi tezlik bor. Shuningdek, mashina ketiga va yoniga yurishi mumkin. Mashinaning orqa qismida kir yuvishga moslangan joyi bor. Mashina kirni har qanday tezlikda yurib ketayotganda ham yuvaveradi. Mashina tinch turganda, ya'ni to'xtagan paytda o'tin yoradi, loy qoradi, g'isht quyadi, shuningdek, kartoshka ham archadi.

Bu g'alati mashinaga hayron qolgan oshnalar keyin, Buramavoyning velosipedlar, uning qismlari, samokat-kalar va allaqancha har xil yog'och bizbizaklar hamda pipiraklarini ko'rdi. Buramavoy ustaxonada kavsharlagichni izlab ancha sandiraqladi. Ammo hech qayerdan topolmadi. U qaqir-quqirlarni timirskilab yurib, birdan peshonasiga shartta urib qoldi:

- Voy men shalpaygan! Axir kavsharlagichni Fahmdornikida esimdan chiqarib qoldiribman-ku. Fahmdornikiga borishingizga to'g'ri keladi.

- Hechqisi yo'q, mashinada g'izillab boramiz, - dedi Kulchavoy.

- Bu Fahmdor deganlaring kim? - deb so'radi Murvatvoy Buramavoy bilan xayrlashib darvozadan chiqishganda.

- Fahmdor - yozuvchi, - deb javob berdi Kulchavoy.

- Rostdanmi? - deb hayron bo'ldi Tuzatvoy. - U bilan tanishish juda qiziq bo'ladi. Men hali tirik yozuvchilar bilan sirayam gaplashmaganman.

– Ana endi siz u bilan tanishasiz. U ham o'ziga xos g'alati shaxs, – deb javob berdi Kulchavoy mashinaga minar ekan.

O'n to'qqizinchi bob

FAHMDORNIKIDA MEHMONDA

Fahmdor o'z xonasidagi ochiq deraza oldida ikki qo'lini ko'kragiga qovushtirib, uzoqlarga o'ychan tikilib turardi. Uning sochi orqasiga silliq taralgan, bir-biriga qo'shilgan qora quyuc qoshlari chimirilgan edi, bu esa uning yuzida donishmandlikni ifoda qilardi. Xonaga bizning uchala do'stimiz kirib kelishganda u hatto qimirlamadi ham. Kulchavoy u bilan baqirib salomlashdi va Murvatvoy hamda Tuzatvoy bilan tanishtirib, ularning kavsharlagich uchun kelishganini aytdi. Ammo Fahmdor pinagini buzmasdan derazadan tikilib qarab turar, go'yo boshida aylanib yurgan allaqanday juda ajoyib va o'tkir fikrning dumidan ushlay-ushlay deganda tutqich bermayotganga o'xshardi. U Kulchavoyga ajablanib yelkasini qisdi va Murvatvoy bilan Tuzatvoyga qarab: «Ana ko'rdingizmi, men sizga aytmovdimmi!» – deganday kulimsirab qo'ydi.

Oxirida Fahmdor uyqudan uyg'ongandek keluvchilarga o'girilib, mayin, yoqimli tovush bilan cho'zib gapirdi:

– Sa-a-lom! Sa-a-lom! Meni kechirasiz, do'stlarim. Men, haligi, xayolga berilib ketibman. Fahmdor, – deb o'z nomini aytib Murvatvoyga qo'lini cho'zdi.

Murvatvoy uning yumshoqqina qo'lini qisib, u ham o'z otini aytdi.

– Fahmdor, – deb qaytardi Fahmdor mayin ovoz bilan va Tuzatvoyga qo'lini cho'zdi.

– Tuzatvoy, – deb javob berdi Tuzatvoy va uning yumshoqqina qo'lini qisdi.

– Fahmdor, – dedi uchinchi marta Fahmdor va Kulchavoyga qo'lini uzatdi.

– Biz tanishmiz-ku! – dedi Kulchavoy.

– E, bu axir Kulchavoy-ku! – deb hayratda qolib tirdi Fahmdor. – Sa-alom! Sa-a-lom!

– O'tiringlar, do'stlar, – deb taklif qildi.

Hammalari o'tirishdi.

– Sizlar Buramavoy bilan tanishdilaringmi? – deb so'radi Fahmdor va o'z savoli bilan go'yo xayolga berilib ketib, ularni ko'rmaganligini isbot qilmoqchi bo'ldi, lekin u Kulchavoyning gapini eshitgan edi. – Bundan chiqdi u o'zining stol va kursilarini ko'rsatibdi-da? Hi-hi-hi!

Murvatvoy boshini qimirlatib tasdiqladi. Fahmdorning yuzida istehzoli tabassum paydo bo'ldi. U go'yo maza qilganday tizzalarini silab:

– Hi-hi! Bu ixtirochilarning bari tentak, – dedi. – Qani, menga marhamat qilib aytinglar-chi, mana bu otilib chiqadigan stollar, ochiladigan shkaflar va pasayadigan arg'imchoqlarning nima hojati bor? Menga-chi, misol uchun, oddiygina qulay kursida o'tirish rohat beradi, bunday kursilar turganingizda, o'tirganingizda tagingizda qimirlamay turadi. Pastga, balandga tushib-chiqmadingan karavot ham menga ma'qul. Qani, marhamat qilib ayting-chi, buning nima hojati bor? Kim meni bunaqa karavotda uxlashga majbur qila oladi? Aytganday, men xohlamasam-chi? Istamasam-chi?

– Sizni, axir, hech kim majbur qilmaydi-ku? – dedi Kulchavoy. – Buramavoy – ixtirochi, nimaiki qo'liga tushsa, hammasini takomillashtirishga urinadi. Bu har doim

muvaffaqiyatli chiqa bermaydi, lekin foydali ixtirolari ko'p. U – durustgina usta.

– Men uni yomon deyayotganim yo'q, – deb e'tiroz bildirdi Fahmdor. – U-chi, juda yaxshi usta. Ha-ha, tan berish kerak, juda o'tkir usta. Menga u ajoyib bormotograf yasab berdi.

– Bu bormotograf qanaqa narsa? – deb so'radi Murvatvoy.

– Gapiradigan mashina. Ana, qaranglar-a.

Fahmdor mehmonlarni ustida kichkina asbob turgan stol yoniga boshlab keldi.

– Bu quticha yoki chamadonchani nima deb atasangiz – o'zingiz bilasiz, uning yon tomonida kichkinagina teshik-chasi bor. Bu tuynukcha oldida bir qancha so'z aysangiz kifoya, keyin tugmasini bossangiz, bormotograf shundoqqina so'zingizning o'zini qaytaradi. Qani, siz shunday qilib ko'ring-chi, – Murvatvoyga taklif qildi Fahmdor.

Murvatvoy o'sha asbobning tuynukchasi yoniga kelib:

– Murvatvoy, Murvatvoy! Tuzatvoy, Tuzatvoy! – dedi.

– Va Kulchavoy, – deb qo'shib qo'ydi Kulchavoy asbobga engashib.

Fahmdor tugmani bosdi, hamma qiziqib turgandi, bormotograf, birdaniga g'amgin ovozda shivirlab:

– «Murvatvoy, Murvatvoy, Tuzatvoy, Tuzatvoy, Kulchavoy», – dedi.

– Bu gapiradigan mashinaning sizga nima hojati bor? – deb so'radi Tuzatvoy.

– Hojati bor-da! – dedi Fahmdor. – Bunaqa asbobsiz yozuvchining qo'li cho'loqdek gap. Men bu asbobni istagan kishimning uyiga qo'yishim mumkin. Kim nima deb gapirsa, u hammasini yozib oladi. Menga faqat ko'chirish qoladi. Qarabsizki, mana, siz uchun qissa yoki roman ham tap-tayyor-da!

– Bu judayam oddiy ekan-ku! – dedi Tuzatvoy. – Men qayerdadir yozuvchida niyat va qandaydir xayolda yaratilgan narsa bo'lishi kerak, deb o'quvdim.

– E, o'ylab topishni qo'ysang-chi! – deb toqat qilolmay uning so'zini bo'ldi Fahmdor. – Bu, o'ylab chiqarish kerak deb faqat kitobda yoziladi. Qani, bir nimani o'ylab topib ko'r-chi, hamma narsa sensiz ham allaqachon o'ylab topilgan: nimani olsang, bari bo'lgan narsa. Aytganday, hali hech qaysi yozuvchi aytmagan narsalarni tabiiy, o'z holicha o'zgartirmay ola bersang, ul-bul chiqadi.

– Har kim ham uyida bormotografni qo'yishingizga ko'na bermaydi-ku? – dedi Murvatvoy.

– Men buni ustalik bilan qilaman, – deb javob berdi Fahmdor. – Men bitta-yarimtanikiga bormotografim bilan mehmonga boraman-da, siz ko'rdingiz-ku, chamadonchaga o'xshaydi. Ketar chog'imda o'sha chamadonchamni stol, yo stul ostida esimdan chiqarib qoldirgan bo'laman. Keyin ular men yo'g'imda nimalarni gapirishganini eshitib olaman.

– Nimalar gapirishar ekan? Bu juda qiziq bo'lsa kerak? – dedi Tuzatvoy.

– Haddan tashqari qiziq, – deb ma'qulladi Fahmdor. – Hatto o'zim shunaqa bo'lishini kutmagandim. Ma'lum bo'lishicha, hech narsa haqida gapirishmasdan, bekor-dan-bekorga kulishar, xo'roz bo'lib qichqirishar, itday hurar, xirillar, miyovlashar ekan.

– Juda ajoyib-ku? – deb hayron bo'ldi Murvatvoy.

– Men ham ajablanarli deyapman-da! – deb ma'qulladi Fahmdor. – Ular birga o'tirganingda tuppa-tuzuk, o'ylab gapirishadi-da, ketgan zahoting allaqanday bo'lmag'ur narsalar boshlanadi. Mana, kechagi yozilganini eshitinglar. Men bir tanishimnikiga borib, ketar chog'imda bormotografni stol ostida qoldiruvdim.

Fahmdor chamadon qopqog'i ostidagi allaqanday gardishni aylantirdi-da, tugmachasini bosdi. Pichir-pichirlar, keyin eshik ochilganday shovqin eshitildi. Bir daqiqa jimlikdan so'ng baralla kulgi ko'tarildi. Kimdir: «Stol ostida», dedi. Qiy-chuv eshitildi. Yana kulgi ko'tarildi. Kimdir qichqirdi, kimdir miyovladi, vovilladi. Keyin kimdir qo'yga o'xshab ma'radi. Kimdir: «Meni qo'yib yuboring, eshakka o'xshab hangrayman», dedi. Birdan: «xar, xar» deb xarilladi. Undan keyin toyga o'xshab «Hi-hi-hi!» deb kishnadi. Yana kulgi ko'tarildi.

- Ana, ko'rdingizmi... Yo'g'-ey, eshityapsizmi?

- To'g'risi, bundan romanga ko'p narsa ololmaysan, - deya mulohaza bilan gapirdi Murvatvoy.

- Men sizga bir sirni ochay, - dedi Kulchavoy Fahmdorga. - Bu bormotografni butun shahardagilar bilishadi, ketishingiz bilan mashina oldiga kelib jo'rttaga har xil bo'lmag'ur narsalarni baqirishadi.

- Nega bo'lmag'ur narsalarni aytishadi?

- Siz ularni aldamoqchi bo'lasiz, ular bo'lsa, sizni aldashadi. Siz yo'g'ingizda nimalarni gapirishganini eshitib olmoqchi bo'lasiz, ular bo'lsa, sizning ustingizdan kulish uchun jo'rttaga chiyillashadi, xirillashadi.

Fahmdor qovog'ini soldi:

- Hali, shundog'mi? Shoshmay turishsin, mayli, ularni shunday aldayki. Bormotografni deraza tagiga berkitib qo'yaman. Bu mashina hali ko'p ish beradi. Mana, marhamat qiling, sizningcha bu nima?

Fahmdor ularga allaqanday beso'naqay buklangan narsani ko'rsatdi, u buklangan chodirga ham, katta soyabonga ham o'xshardi.

- Ehtimol, soyabondir? - deb o'z taxminini aytdi Tuzatvoy.

- Yo'q, soyabon emas, bu yozuvchilarning buklnadigan, qulay stol va kursisi, - deb javob berdi Fahmdor. - Misol uchun aytsam, mana siz, o'rmon haqida yozmoqchisiz. Siz stolni buklab olasiz-da, o'rmonga borasiz. Shunga bemalol o'tirib, ko'rganlaringizni yoza berasiz. Qani o'tirib ko'ring-chi, - deb taklif qildi u Tuzatvoyga.

Fahmdor soyabon deb o'ylagan narsaning bandidagi tugmachasini bosgandi, soyabon o'sha zahotiy oq ochilib, kichkina stol va kursichaga aylandi. Tuzatvoy stolga o'tirgan edi, oyog'ini bukishga to'g'ri keldi.

- Siz qulaygina joylashib olasiz-da, - dedi Fahmdor, - to'satdan ilhomingiz keladi. Yo o't ustida, yo quruq yerda o'tirib yozgandan ko'ra, bunda yozish anchagina qulay, bunga tan bersangiz bo'ladi.

Tuzatvoy bunga o'tirib na qulaylikni va na ilhomni sezdi, faqat oyog'ining juda qattiq og'riyotganini payqadi. U shuning uchun stoldan turib, gapni boshqa yoqqa burmoqchi bo'lib:

- Qani, marhamat qilib ayting-chi, siz qanaqa kitoblar yozgansiz? - dedi.

- Men hali bittayam kitob yozganim yo'q, - deb bo'yniga oldi Fahmdor. - Yozuvchi bo'lish juda qiyin. Yozuvchi bo'lishdan oldin ul-bul buyumlarni topib olishga to'g'ri keldi, buni ko'rib turibsiz. O'zidan-o'zi bo'lavermaydi. Eng oldin qulay stol tayyor bo'lishini kutdim. Bu kutish uzoq yillarga cho'zildi. Keyin men bormotograf bitishini kutdim. Ustalar ishni cho'zishni, kechiktirishni yaxshi ko'rishini siz ham bilasiz. Buramavoy bo'lsa, ayniqsa shunday qiladi. Bilasizmi, bu asbobni ikki yarim yil o'ylasa bo'ladimi. Men kutyapmanmi, kutmayapmanmi unga baribir. Mening ishim ijodiy ish ekanini tushunib yetmaydi-da! Bormotograf ham, albatta, murakkab as-

bob. O'zi murakkab asbobni yana murakkablashtirishning nima keragi bor?

– U hali murakkablashtirib qo'yganmi? – deb achinib so'radi Murvatvoy.

– Albatta, murakkablashtirgan! Unga allaqanday chang shimiradigan asbobni tirkab yasagan. Qani aytinch-i, bu chang shimiradigani menga nimaga kerak? Buning uchun bir yarim yil ortiqcha vaqt ketdi. Ha, mayli, zararsiz! – qo'lini siltadi Fahmdor. – Endi u menda bor-u, arzimagan narsa yetishmay turibdi.

– Yozuvchining o'rniga o'ylaydigan mashina chiqaril-sa yaxshi bo'lardi, – dedi Tuzatvoy.

– To'g'ri aytasiz, – deb qo'shildi Fahmdor.

Do'stlarimiz derazadan oftobning ufqqa qarab og'ayotganini ko'rib, xayrlashishdi. Kavsharlagichni olib, ko'chaga chiqishdi. Murvatvoy:

– Qaytadigan vaqtimiz bo'ldi. Yo'lda qorong'iga qolmaylik deb qo'rqaman, – dedi.

– Hechqisi yo'q, oshnalar, bir zumda mashinada olib borib qo'yaman. Ammo oldin jindak ovqatlanib olsak yomon bo'lmasdi, – dedi-da Kulchavoy Murvatvoy bilan Tuzatvoyni ovqatlantirgani uyiga olib ketdi.

Yigirmanchi bob

BO'YOQVOYNING RASM ISHLAGANI

Murvatvoy bilan Tuzatvoy Varrakxonani kezi-b, kavsharlagich topib kelishguncha, Yashil shaharda muhim voqealar bo'lib o'tdi. Bo'yoq-vo-y O'ppog'oyning suratini ertalabdan chiza boshlagan edi. U bu ishga ikki soatcha vaqtini ketkazdi,

shuning uchun ham rasm xuddi o'ziday jonli bo'lib chiqdi. O'ziga judayam o'xshar edi. Ko'plar Oppog'oyning surati o'zidan ham yaxshi chiqibdi deyishdi, ammo bu to'g'ri emasdi. Oppog'oy, umuman, rassomning ortiqcha bezab yuborishiga muhtoj emasdi. Agar Bo'yoqvoy suratda uning go'zalligini yanada ravshan va yanada jozibali ko'rsata olgan bo'lsa, bu xuddi chinakam san'at talabiga mos keladi va rassom shunday bo'lishi kerak ham. Ko'rishni istovchilar tomosha qilsin deb suratni pastki xonaga osib qo'yishdi. Shuni ham aytish kerakki, ko'rishni istovchilar oz emasdi. Suratni ko'rganlarning hammasi Bo'yoqvoyga suratlarini oldirishni istashardi. Bo'yoqvoy Ko'kko'zning rasmini ishlayotganidan Oppog'oy yuqori xonaga hech kimni kirgizmadi, nega deganingizda, unga xalaqit berishlari mumkin edi.

Bilmasvoy ham tepada sandiraqlab yurar, o'zini rassomchilikdan xabardor qilib ko'rsatish uchun Bo'yoqvoyga har xil keraksiz maslahatlar berardi. U pastdan kelayotgan shovqinni eshitib qoldi.

– Bu qanaqa shovqin o'zi? Nimaning shovqini? – deb zinadan tusha turib baqirdi u. – Qani, uy-uylaringga jo'nalaring-chi!

Bechora qizaloqlar shunaqa qo'pol gap eshitishsa-da, rassomning oldiga kirish istagi zo'rligidan ranjishni xayollariga ham keltirishmadi. Aksincha, ular Bilmasvoyni o'rtaga olib, uni «mehribon Bilmasvoy» deyishar va bizni haydamang deb o'tinishardi.

– Qani, navbatga turinglar! – deb baqirdi Bilmasvoy va qizaloqlarni itarib, devorga qisib qo'ydi. – Navbatga turinglar deyapman, bo'lmasa, hammangni haydab yuboraman.

– Voy, anuvini, siz judayam qo'pol ekansiz-ku, Bilmasvoy! – dedi Oppog'oy, – shunaqayam bo'ladimi? Sizning shunaqa qilganingizdan judayam uyalib ketdim.

- Hechqisi yo'q, - deb javob berdi Bilmasvoy.

Shu paytda shov-shuvdan foydalanib, xonaga tag'in bitta qizaloq g'izillab kiritib, ro'paradagi zinadan lip etib chiqib boshladi. Bilmasvoy ko'rib, uning ketidan yugurdi. Qo'llidan ushlab tortmoqchi edi, ammo qizaloq unga o'q-raydi-da, barmog'ini uning burniga yaqinlashtirib silkkidi: - Ey, ey, sekinroq! Men navbat kutmayman, shoiraman! - dedi kekkeyib.

Bunday qarshilikni kutmagan Bilmasvoy og'zini ochib ang'rayib qoldi. Shoir bo'lsa, Bilmasvoyning dovditrab qo'lishidan foydalanib, zinadan astagina chiqib ketdi.

- U nima dedi? U kim o'zi? - hayron bo'lib zina tomonni ko'rsatib so'radi Bilmasvoy.

- Shoir. She'ryozadi, - deb tushuntirishdi qizaloqlar. - A... - dedi cho'zib Bilmasvoy. - Shunga shuncha vahimami? Bizning ham shoirimiz bor, mening ilgari shogirdim. Men unga she'ryozishni o'rgatgan edim, endi o'zi yoza oladi.

- E, juda ajoyib-a! Bundan chiqdi, siz ham shoir bo'lganmisiz?

- Bo'lganman!

- E, juda qobiliyatli ekansiz-a! Siz ham rassom bo'lgansiz, ham shoir...

- Ham choig'uchi, - deb qo'shib qo'ydi gerdayib Bilmasvoy.

- Bitorta she'ringizni o'qib bering.

- Keyin, keyin, - deb javob berdi Bilmasvoy sira vaqti yo'q odamdek.

- Shoiraringizning oti nima?

- Uning oti Gulshaniy.

- Voy, qanday yaxshi-ya! - deb chapak chalishdi qizaloqlar. - Sizlarning shoiringiz Gulshaniy bo'lsa, bizning shoirimiz - Gulig'uncha, o'xshab ketadi, rost-a?

– Sal-pal o'xshaydi, – deb go'shildi Bilmasvoy.

– Bu nom sizga yoqadimi?

– Chakki emas.

– U bir she'rlar yozadiki! – deyshdi qizaloqlar, – eh,

qanqanangi ajoyib she'rlar! Yuqoriga chiqing-a, ehtimol o'z she'rlarini o'qib berar. Juda giziq, sizga albatta yoqadi.

– Ha, mayli, chiqsam chiqqa qolay, – deb rozilik berdi Bilmasvoy.

U yuqoriga chiqqanda Bo'yoqvoy ko'kko'zning sura-tini tugatgan edi. Gulig'uncha bo'lsa, divanda Mashshoq-voyl bilan musiqaga qilib, xona bo'ylab yurar va masvoy go'ltini orqasiga qilib, xona bo'ylab yurar va ahyon-ahyonda shoira tomonga ko'z qirini tashlab go-yardi.

– Nega siz bu yerda nuqul soat milliday yurgani-ngiz-yurgan? – dedi Gulig'uncha Bilmasvoyga. – O'tirib oling, yuraverganingizdan odamning ko'zi jimirlashib ketdi.

– Siz buyruq bermay go'ya qoling, – deb to'ng'illadi Bilmasvoy. – Sizning suratingizni ishlamastingizni Bo'yoq-voygga tayinlayman hozir!

– Hali shunqamiz? U sizga buyruq bera oladimi? – deb Gulig'uncha Bo'yoqvoyga qaradi.

– Bera oladi. U hamma narsani qila oladi, – deb javob berdi Bo'yoqvoy ishdan boshini ko'tarmay. U Bilmas-voyni nima deganini payqagani ham yo'q edi.

– Albatta, buyruq bera olaman, – deb tasdiqladi Bil-masvoy. – Hammasi meniga itoat qiladi, nega deganingiz-da, men boshliqman.

Bilmasvoyni bolalar orasida obro'yi borligini eshit-gan Gulig'uncha, uning ko'nglini ovlamog bo'lib: – Havo pufagini o'ylab topgan siz shekilli-a? – dedi. – Bo'lmasa kim bo'lardi!

– Bir kunmas-bir kun sizning haqingizda she'r yozaman.

– Juda zor ekanman-da! – deb to'ng'illadi Bilmasvoy.

– Unday demang! – muloyim qilib gapirdi Gulg'uncha.

– Siz axir, mening qanaqa she'r yozishimni bilmaysiz-da. Birorta she'r o'qib beraymi, eshitasizmi?

– Mayli, o'qiy qoling, – dedi Bilmasvoy ham yumshab.

– Men sizga yaqinda yozgan chivin haqidagi she'rimni o'qib beraman. Quloq soling:

Men ushlayman chivinni,

Inni, inni va inni!

Chivinchani sevaman

Juda, juda, juda man!

Ammo xafa chivinjon,

Chatoq chivincha holi.

Bas, o'zimga eng oson,

Tuta qolay chumoli.

Chumolicha ham hayron,

O'yinni yaxshi ko'rar.

Bo'lmasdan doim sarson:

– Kitob o'qisam bo'lar.

– Ofarin! Ofarin! – dedi Bo'yoqvoy va hatto chapak ham chalib yubordi.

– Juda yaxshi she'r, – deb ma'qulladi Mashshoqvoy.

– Bu she'rda faqat chivin haqidagina emas, hatto kitob o'qish haqida ham gapiriladi. Bu juda foydali she'r.

– Mana tag'in bittasini eshitinglar, – dedi shoira va she'r o'qib berdi. O'qigan she'ri chivin haqida bo'lmay, ninachi haqida bo'lib, uning oxiri kitob o'qish kerak degan so'zlar bilan tugamay, «ko'ylak tikish kerak», degan so'zlar bilan tamomlangandi.

Uning ketidan o'qilgan mayda pashsha haqidagi she'rning oxiri ham «qo'lni yuvish kerak» degan so'zlar

bilan tugagandi. Oxirida polni tozalash kerakligi haqidagi she'r o'qildi.

Bu orada Bo'yoqvoy Ko'kko'zning suratini ishlab tugatdi. Hamma rasm atrofiga to'planib, o'z quvonchini izhor qildi:

– Ajoyib! Chiroyli! Juda soz!

– Jonginam, mening ham rasmimni shunday havorang ko'ylakda ishlay olasizmi? – deb murojaat qildi Gulg'uncha Bo'yoqvoyga.

– Siz yashil ko'ylakdasiz-ku, qanday qilib havorang ko'ylak ishlab bo'ladi? – deb so'radi Bo'yoqvoy hayratda qolib.

– Voy, jonginam, axir sizga baribir-ku! Ko'ylak yashil bo'lsa, siz havorangga bo'yaysiz uni. Men ham bilganimda havorang ko'ylak kiyib kelardim, qarang Ko'kko'z havorang ko'ylakda juda ham yaxshi chiqqan.

– Mayli, – deb rozi bo'ldi Bo'yoqvoy.

– Ko'zimni ham, marhamat qilib, ko'kka bo'yang.

– Ko'zingiz qo'yko'z-ku axir? – dedi Bo'yoqvoy.

– Voy, jonginam, bu sizga hech gapmas! Siz yashil ko'ylak o'rniga havorang ko'ylak qila olganingizdan keyin, nega qo'yko'z o'rniga ko'kko'z ishlay olmas ekan-siz?

– Farqi bor-da, – deb javob berdi Bo'yoqvoy. – Siz xohlasangiz, havorang ko'ylak kiya olasiz, ammo siz ming istaganingiz bilan o'zingizga ko'kko'z qo'ya olmaysiz.

– Voy, shunday deng! Ha, unday bo'lsa, qo'yko'z qila qoling, lekin sal kattaroq qilib ishlang.

– Ko'zingiz shundoq ham juda katta.

– Mayli, xiyol kattaroq-da! Men yana kattaroq bo'lishini istayman. Kipriklarimni ham sal uzunroq qilib ishlang.

– Xo'p bo'ladi.

– Sochimni oltin soch qiling. Sochimning o‘zi ham oltin rangda-ku axir! – yumshoq tovush bilan so‘radi Gulg‘uncha.

– Bu mumkin, – deb rozi bo‘ldi Bo‘yoqvoy.

U shoiraning rasmini ishlay boshladi. Shoir bo‘lsa, hadeb o‘rnidan turib ketar, suratining oldiga yugurar va:

– Ko‘zim sal kattaroq bo‘lsin! Tag‘in, tag‘in, tag‘in! Kipriklarimni ko‘paytiring. Og‘zim xiyol kichik bo‘lsin... Tag‘in! Sal, tag‘in, sal! – deb baqirardi.

Surat bitdi. Ko‘zi hech qayerda uchramaydigan juda katta ko‘z bo‘ldi, og‘zi to‘g‘nag‘ichning boshiday, sochi esa toza tilladan qilinganday edi. Surat sirayam egasiga o‘xshamasdi. Ammo shoiraga bu rasim juda yoqdi. U bundan boshqa surat menga sira ham kerak emas, dedi.

Yigirma birinchi bob

MURVATVOY BILAN TUZATVOYNING QAYTISHGANI

Gulg‘uncha o‘z suratini avaylab ushlab pastga tushdi. Uni shu zahotiy oq qizaloqlar o‘rab olishdi. Uning surati go‘zallikda Oppog‘oynikidan ham, Ko‘kko‘zlikidan ham ancha ustunligini, ammo o‘xshash-o‘xshamaslikka kelganda ulardan past turganini hamma unga gapirdi.

– Tentaklar-ey, – dedi Gulg‘uncha. – Siz uchun go‘zallik muhimmi yo o‘xshashlikmi?

– Albatta, go‘zallik! – deb javob berdi barcha.

Shunda xonaga Qaldirg‘och bilan Moshxon halloslab yugurib kirishdi.

- Voy, qanday tentaklik bo'ldi! - deb baqirishdi ular. - Voy, biz hozir yiqilib tushamiz.

- Nima bo'ldi o'zi? - deya cho'chib ketdi hamma.

- Biz bugun kasalxonaga borgandik... - deb gapira boshladi Qaldirg'och.

- ...Chiqarilgan bolalarni uyimizga olib bormoqchi edik, - deb gapirib qoldi Moshxon.

- ...Ammo Asalxon bolalarni allaqachon chiqarib yubordim, dedi, - deb uning so'zini bo'ldi Qaldirg'och.

- ...Keyin biz boshqa bolalardan chiqarib bering deb, o'tindik, - dedi-da, Moshxon. so'zimni Qaldirg'och bo'lib qo'ymasin deb yana tez-tez gapirdi: - Shundan keyin Asalxon bizga Agarqul bilan Shoshqaloqni berdi. Ularni ko'chadan boshlab kelayotganimizda bizdan qochib, daraxtga chiqib ketishdi.

- Ular bizni tarbiya qiladi deb qo'rqishyapti, bildingizmi? - deb shoshilib gap qo'shdi Qaldirg'och va kulib qo'ydi.

- Bunaqalarni tarbiyalash bizga juda zarur ekan-da! - deya ijirg'anib yuzini burishtirdi Moshxon.

- Ular hozir qayerda? - deb so'radi Ko'kko'z.

- Daraxt tepasida qolishdi, - dedi Qaldirg'och. - Ular yana olmani ham uzishar!

- Qani, borib ko'raylik, - dedi Oppog'oy.

Aytganday, Agarqul bilan Shoshqaloq daraxt shoxida o'tirib rostdanam olma uzishga urinishardi. Bandidan uzish uchun olmani aylantirishardi. Birdan ular ko'chada, sal uzoqroqda to'xtab bularga qiziqib qarab turgan bir to'da qizaloqlarni ko'rib qolishdi. Agarqul bilan Shoshqaloq qizaloqlarning bunaqa e'tibor berib qarab turishganini payqashib, yana ham zo'r berib olmani aylantira boshlashdi. Agarqul olmaning bandini, hatto tishi bilan uzishga urinardi.

– Voy, hali bitta ham olma uzishmabdi-ku! – degan tovush eshitildi pastdan.

Agarqul bilan Shoshqaloq pastga qarashib, bularga kulib turgan ko'k ko'zli qizaloqni ko'rishdi.

– Sen gapirma, ey, ko'kko'z! – deb valdiradi Agarqul. – Uzish oson deb o'ylaysan-a?

– Agar sizlarga arra bersak, oson bo'lar-a?

– Gapir-a! Ko'p valdiramay bizga arra topib ber!.. – deb javob berdi Shoshqaloq.

Ko'kko'z qo'shni uyga g'izillab kirib, Shoshqaloqqa arra olib chiqdi. Bir lahzadan keyin olmaning bandi aralanib, olma do'p etib yerga tushdi.

– Qani, qizaloqlar, olmani tashib olaylik! – deb baqirdi Ko'kko'z. – Bolalar bizga yordam beradigan bo'lishdi.

Bir necha qizaloq yerda yotgan olmaning yoniga kelib, uni yaqindagi hovliga qarab dumalatishdi.

Yashil shahardagi har bir hovlida meva va sabzavot saqlaydigan tagxona bo'lardi. Qizaloqlar olmani dumalatib kelib, yer bilan baravar qilingan eshikni ochishdi-da, olmani shu eshikdan ichkariga itarib yuborishdi. Eshik oldida taxtadan qilingan ko'prikcha bo'lardi, bu ko'prikdan olmalar o'zidan-o'zi tagxonaga dumalab tushib ketaverardi. Qizaloqlar ishni bajarib orqaga qaytishar, yo'lda esa olma dumalatib kelayotgan boshqa qizaloqlarga duch kelishardi.

Ish qizidi. Qayerdandir arra topib olgan Ninachi yugurib kelib qoldi. U ko'ylak o'rniga egniga voleybol o'ynaganda kiyadigan libosini kiyib olgan edi. Ninachi ham daraxtga chiqib ketdi. Agarqul uning qo'lidagi arrani ko'rib:

– Hov, qani, mumkin bo'lsa, arrani buyoqqa cho'z-chi. Sen arralolmaysan, – dedi.

- Bitta sen bilasan-a! - tajang bo'lib javob berdi Ninachi.

U shoxga o'tirib oldi-da, labini tishlab olma bandini arralay boshladi. Agarqul unga havasi kelib qarab turdi-da:

- Kel, ikkalamiz birga ishlaymiz, oldin sen arralay-san, ungacha men dam olib turaman, keyin men arralay-man-da, sen dam olib turasan, - dedi.

- Xo'p, - deb rozi bo'ldi Ninachi.

Bu orada garajli hovlidan qizaloqlar yugurib kelib qolishdi. Murvatvoy bilan Tuzatvoyning g'oyib bo'lishi haqidagi xabar endigina ma'lum bo'ldi. Qizaloqlar Murvatvoy bilan Tuzatvoy ertalab vaqtli Varrakxonaga ketib, haligacha qaytib kelmaganini aytib berishdi.

- Ana ko'rdinglarmi, - deb bidirladi Qaldirg'och. - Men, axir, aytgan edim! Yaqin orada hamma bolalar Varrakxonaga qochib ketishadi. Ular bizning shaharda turishni xohlashmaydi.

- Qochsa-qocha qolsin, - dedi Ko'kko'z. - Biz hech kimni zo'rlab olib qolmaymiz.

Murvatvoy bilan Tuzatvoyning ayyorligi haqida gap kechga qadar cho'zildi. Qaldirg'och bilan Moshxon hatto ularning ketib qolganidan mamnun bo'lishib, hasad bilan kulishdi.

Murvatvoy bilan Tuzatvoyning qaytib kelishidan umid uzishgandi, lekin birdan ko'chaning u boshida mashina ko'rinib qoldi. Mashina ko'chadan g'achir-g'uchur qilib kelardi, qizaloqlar ishlarini tashlab, uning ketidan yugurishdi. Moshxon bilan Qaldirg'och bo'lsa hammadan oldin yugurib:

- Murvatvoy bilan Tuzatvoy qaytib keldi! Ular qaytib keldi! - deb baqirishardi. Keyin to'xtab:

– Sekinroq! Mashinaning orqasidan chopmanglar. Bolalarga odobsiz bo'lib tuyulamiz, – deyishdi.

Qizaloqlar garajga kelib qarashsa, Murvatvoy bilan Tuzatvoydan tashqari yana Kulchavoy ham kelgan ekan.

– Bu kim? – deb hayron bo'lib so'radi Moshxon. – Bu, ehtimol varrakxonalik Kulchavoydir? Siz, Kulchavoy, nega keldingiz? Sizni chaqirganimiz yo'q-ku!

– Uni qara-ya! – deb javob berdi Kulchavoy. – Chaqirasiz, deb o'lib o'tirgan ekanman-da!

– «Uni qara-ya» degani nimasi! – dedi Qaldirg'och, – biz siznikiga bormaymiz, siz ham biznikiga kelmang-da.

– Borsangiz-boravering. Sizni haydamaymiz.

– Qanaqasiga haydamas ekansiz? Archa bayramiga o'zlaring taklif qilib, keyin qorbo'ron qildilaring-ku.

– Nima qilibdi? Sizlar bilan qorbo'ron o'ynamoqchi edik-da. Siz ham bizni qorbo'ron qilishingiz kerak edi.

– Qizaloqlar qor ushlashni yoqtirmasligini bilishlaring kerak edi-da.

– Ha, jinday xato qilibmiz, – deb yelkasini qisib qo'ydi Kulchavoy. – Sizlarning ko'z yoshi qilib, bir umr xafa bo'lishlaringizni hisobga olmabmiz.

– Yo'q, bizni bir umr xafa qilgan sizlarning o'zingiz! Nega bizga Mixvoyni yubordinglar? U bu yerda qanday be'maniliklar qilganini bilasizmi?

– Mixvoy uchun biz javobgar emasmiz, – dedi Kulchavoy. – U biz tomonda ham bo'lmag'ur ishlar qilib yuradi. Shuncha urinsak ham uni sira tarbiya qilolmayapmiz. Uni biz yuborganimiz yo'q. Bu yerda u o'z bilganicha ish yuritgan.

– «Ish yuritgan!» – deb piqilladi Moshxon. – Qilgan bema'nigarchiligini ish deb yuribdi-ya! Yo'q, endi biz sizlar bilan ovora bo'lib yurmaymiz. Sizlarga zor bo'lib o'tirganimiz yo'q. Endi o'zimizning mitti bolalarimiz bor.

– Men ham sizlar bilan ovora bo'lmayman. Suf, sizdaqalarga, suf deyman. Murvatvoy bilan Tuzatvoyni olib kelgandim, xolos. Hozir mashinamga o'tirib qaytib ketaman.

Kulchavoy jahli chiqib, nariroqqa ketdi. Ammo ketib qolmadi. U Murvatvoy bilan Tuzatvoyning mashinani tuzata boshlaganini ko'rib, ularga yordamlashishga kirishdi. Hamma shofyorlar shunday qilishadi. Agar shofyorlardan biri, kim bo'lmasin, mashinasini tuzatayotganini ko'rsa bormi, u ham, albatta, uning yoniga borib u yerbu yerini kovlaydi, murvatini yoki gaykasini buraydi, hech bo'lmasa maslahat berib turadi.

Uchalasi tun qorong'isigacha kuymalanishdi. Ammo mashina qattiq ta'mirga muhtojligi uchun baribir batamom tuzatisha olmadi.

Yigirma ikkinchi bob

MEXANIZATSIYA MO'JIZASI

Ko'kko'z ertasi kuni ertalab Asalxonning oldiga kelib, kasalxonadan chiqarilgan bolalar ko'chada janjallashmay, aksincha, o'zlarini juda yaxshi tutib yurishganini, hatto qizaloqlarga olma terishga yordam berishayotganini aytib berdi. Bolalarga mos ish topganlaringiz juda soz bo'libdi. Bugun chiqariladigan Magarqul bilan Dovdirni ham ishga jalb qilinglar, – dedi Asalxon.

– Tag'in bitta-yarimtasini chiqarishning iloji yo'qmi? – deb iltimos qildi Oppog'oy. – Ularni qiziqtiradigan ish tunganda bekorga qamalib yotishibdi.

- Men kechagina Agarqul bilan Shoshqaloqni navbat-siz chiqarib yubordim-ku, axir, bular ham ozlik qiladimi sizlarga? - dedi Asalxon.

- Ozlik qiladi.

- Unday bo'lsa, Indamasni ham chiqarish mumkin. U juda ham mo'min, biron iltimos qilib mening jonimga ham tekkani yo'q.

- Tag'in kim bor?

Asalxon ko'zoynagini taqib ro'yxatni ko'ra boshladi:

- Yana Bo'g'irsoq bilan Sharbatjonni ham chiqarsa bo'ladi. Ular ham mo'mingina. Aytganday, bor gapdan ko'z yumish to'g'ri emas. Bo'g'irsoqni chiqarmaslik kerak edi, nega deganingizda u juda ko'p shirinlik yeydi. Men uning bu yaramas odatini tashlata olmadim. U yeb qo'ya qolsa mayliydi-ya! Hammadan yomoni, cho'ntaklarini shirinlikka to'ldirib oladi, yana yostig'ining tagiga ham bekitib qo'yadi. Ha, mayli, zararsiz, zora ochiq havoga chiqqandan keyin ishtahasi bo'g'ilib qolsa. Sharbatjonni bo'lsa, hadeb gazli shirin suv ichgani uchun ushlab turishga to'g'ri keladi. Lekin bular men bilan yaxshi muomalada bo'lishgani uchun chiqara qolaman.

Asalxon yana ro'yxatni ko'ra boshladi:

- O'qtoyni chiqarishga hali vaqt bor, - dedi u, - hali uning oyog'i tuzalgani yo'q. O'qtoy rostakam kasal.

- Sergapni-chi? - deb so'radi Ko'kko'z.

- Yo'q-yo'q! - deb unamadi Asalxon. - Sergap juda bema'ni odam! U doim g'ingshiydi, doim nimadandir norozi. Bilasizmi, u hammaniyam joniga tegdi. Juda beso'naqay bo'lgani uchun yota tursin bu yerda. Rostini aytganda, men undan hamda yaramas Dorijondan jon deb qutulardim. Dorijon o'zini vrach deb hisoblab, doim mening davolash yo'limni noto'g'ri deb isbotlashga urinadi.

- Joningizga tegmasin desangiz chiqarib yubora qoling-da ularni, - dedi Ko'kko'z.

- Nima deyapsiz! Hech-da! Siz bilasizmi, jonginam, u yaramas Dorijon menga nima dedi? Kasallarni tuzatish o'rniga, sog'larni kasal qilarmishman. Bu qanaqa nodonlik! Yo'q, men uni lozim bo'lgan kungacha saqlayman. U sira vaqtli chiqolmaydi. Sergap ham shunday!

Shunday qilib, Ko'kko'z kasalxonadan Dovdir va Magarquldan boshqa yana Indamas, Bo'g'irsoq va Sharbatjonlarni chiqarishga muvaffaq bo'ldi. Kasalxonada O'qtoy, Sergap va Dorijonlargina qolishdi. O'qtoy oyog'i og'rib turgani uchun chidab turdi. Ammo Sergap bilan Dorijon bu xo'rlikdan sochlarini yulishga ham tayyor edi, agar kechgacha chiqarmasalar, qochamiz, deyishdi.

Murvatvoy, Tuzatvoy va Kulchavoy g'ira-shirada turib yana avtomobilni tuzatishga kirishdi. Oxiri mashina g'ing'illab, motori ishlay boshlaganda kun ancha yuqoriga ko'tarilib qolgandi. Uchala do'st mashinaning yurishini sinab ko'rmoqchi bo'lishdi. Uy atrofida chang ko'tarib, g'ildiratib yurishdi-da, keyin darvozadan chiqib ko'cha bo'ylab haydashdi. Shu chog' ko'chada meva yig'ib yurgan qizaloqlarni ko'rib qolishdi. Olma tepasida Shoshqaloq, Dovdirvoy hamda Agarqul bilan Magarqullarni ko'rishdi. Olma yonidagi nok tepasida bo'lsa Mashshoqvoy, Indamas va Ninachilar ishlashardi. Qayoqqa qarasang, qizaloqlarning olma yumalatib ketayotganini ko'rish mumkin.

Bilmasvoy ishlovchilarning orasida u yoqdan-bu yoqqa izg'ir va zavqlanib buyruq berardi:

- Beshtangiz u yoqqa, beshtangiz buyoqqa! Anovi olmani olib, yumalatinglar! Bu yerga hozir nok tushadi, chetroq turinglar, bo'lmasa, ustlaringga tushib ketadi. Ey, yuqorida turganlar, ogohlantiringlar-da! Chetroq turinglar, tushib ketsa, men aybdor emasman.

Bularni shovqin-suronsiz ham qilish mumkin-ku, ammo Bilmasvoy shovqinini to'xtatsa, jamiki ishi to'xtab qoladi, deb o'ylardi.

Sharbatjon bilan Bo'g'irsoq ham ishlashdi – nok yumalatishdi. Ular nokni yumalatish kerak bo'lgan to-mongamas, teskari tomonga qarab yumalatishardi. Nokning tuzilishi olmaga o'xshagan yumaloq emasligi-ni hamma biladi. Agarda uni yumalatmoqchi bo'lsangiz, bir doirada aylanib turaveradi. Buning ustiga noklar juda yumshoq edi. Daraxtdan to'kilayotib ular zararlanib qolishgandi. Sharbatjon bilan Bo'g'irsoq yumalata-verib, nokning yonini ezib yuborishdi. Shuning uchun ularning hamma yog'i shira bo'lib ketdi, nuqul qo'llari-ni yalashardi.

– Nega nokni hadeb bir joyda yumalatib turibsiz? Ezib yubordinglar-ku! – deb ularga baqirdi Bilmasvoy. – Yoki undan sharbat qilmoqchimisiz? Sharbat qilishni ko'rsatib qo'yaman sizlarga!

Murvatvoy bilan Tuzatvoy avtomobilni to'xtatib, ularga qarab tomosha qilib turishdi.

– Ey Bilmasvoy! – deb baqirdi Murvatvoy. – Nega siz-da mexanizatsiya yo'q?

– Qo'ysang-chi! – deb qo'l siltadi Bilmasvoy. – Olmani qo'yadigan joy yo'q-ku o'zi, tag'in u mexanizatsiya dey-di-ya!.. Mexanizatsiyani qayoqdan olaman sizga?

– Mana bitta mashina bor-ku, – deb javob berdi Kul-chavoy.

– Hali mashina – mexanizatsiyami?

– Albatta mexanizatsiya-da! Olma-noklarni mashina-da tashiyimiz.

– Bo'пти! – dedi Bilmasvoy. – Topdik! Qani daraxtning tagiga olib kel-chi, olmani birato'la mashinaga tushira qolamiz.

– Shoshma, hunday bo'lmaydi, – dedi Murvatvoy. – Olmani bunaqa qilib mashinaga tashlansa, olma ham eziladi, mashina ham sinadi.

– Nima deysan, seningcha, olmani daraxtdan qo'lda ko'tarib tushish kerakmi?

– Nega qo'lda bo'lar ekan! Arqon bilan tushiramiz-da.

– Bo'пти!.. – deb baqirdi Bilmasvoy. – Qani, qizaloqlar, tezda buyoqqa arqon olib kelinglar.

Qizaloqlar darrov arqon olib kelishdi. Bilmasvoy arqonni olib, uni aylantira boshladi-da, nima qilishini bilmay qarab turdi. Keyin bir nima o'ylab topganday bo'lib, arqonni Murvatvoyga uzatdi:

– Qani, buni ishga sol! – dedi.

Murvatvoy arqonni olma shoxiga otib ilintirdi-da, Shoshqaloqqa arqonning uchini olmaning bandiga bog'lashni buyurdi, bir uchini esa bir qancha qizaloqlarga ushlab turinglar, dedi.

– Endi arrala! – deb qichqirdi Shoshqaloqqa.

Bir necha minutdan keyin olmaning bandi arralanib, olma arqonga osilib qoldi. Murvatvoy Kulchavoyga mashinani osilgan olmaning tagiga keltiring, dedi. Qizaloqlar arqonni asta-sekin bo'shatisha boshlashdi. Olma to'ppa-to'g'ri mashinaning yukxonasiga tushdi. Arqonni olmaning bandidan yechishdi, olmani uyga mashinada olib ketishdi.

– Hozir ikkinchi mashinani olib kelamiz, – dedi Kulchavoy.

Ular mashinaga tushishib, Kulchavoyning mashinasi qolgan garajga jo'nashdi. Bir necha daqiqadan keyin ikkita mashina bilan kelib qolishdi. Bitta mashina olma, bittasi nok tashiy boshladi.

– Mexanizatsiyaning mo'jizasini ko'rdinglarmi? – deb maqtanib gapirdi Bilmasvoy. – Qizaloqlar, ehtimol, bu-naqa usul tushingizga ham kirmagandir!

Yigirma uchinchi bob

KASALXONADAN QOCHISH

Mexanizatsiya mehnatni ancha yengillashtirib, ishlar juda qizib ketdi. Ikkala mashina u yoqdan-bu yoqqa g'izillab yurib, yerto'laga meva tashidi. Olma va noklarni bir donadan, olxo'rilarni esa beshtadan tashishdi. Mexanizatsiyaning yordami tufayli ko'pgina qizaloqlar ishdan ozod bo'lishdi, ammo qo'l qovushtirib o'tirishgani yo'q, ular ko'chaga ikkita kapa tikishdi. Bitta chodirga gazli shirin suv, boshqasiga esa pirog, har xil shirinkulcha, o'ramakulcha va qand-qurslar keltirib qo'yishdi. Endi har bir ishlovchi bo'sh paytida istaganini yeyishi, ichishi mumkin edi.

Bo'g'irsoq o'sha zahotiyuq chodirga kirib olib, pirog va qandlarni yeya boshladi. Sharbatjon bo'lsa, gazli shirin suvga yopishib oldi. Ikkalasini ham kapadan hech ketkizib bo'lmasdi.

To'satdan kutilmagan hodisa ro'y berdi. Uzoqdan kimningdir qattiq chinqirgan ovozi eshitildi, hamma ishlovchilar ko'chaning u boshida chopib kelayotgan doktor Dorijonni ko'rishdi. Uning ketidan kasalxonaning Asalxon boshliq barcha xizmatchilari quvib kelishardi. Dorijon yalang'och, faqat kalta ishton va ko'zoynagi bor edi, xolos. U daraxt tagiga kelib, tirmashib tez yuqoriga chiqdi.

– Nega qochdingiz, bemor? – deb baqirdi daraxt tagiga yetib kelgan Asalxon.

– Men bemor emasman, – deb javob berdi Dorijon va kuchining horicha yana yuqoriga intildi.

– Qanaqasiga bemor bo'lmas ekansiz? Biz hali chiqishingizga ruxsat berganimiz yo'q-ku! – dedi Asalxon, chopib kelganidan nafasi og'ziga tiqilib.

– Chiqishga o'zimga o'zim ruxsat berdim, – dedi kulib Dorijon va Asalxonga tilini ko'rsatib qo'ydi.

– Voy, siz hali beodoblik ham qilasizmi? Baribir kiyim-boshingizni bermaymiz.

– Kerak emas, – deb kulib javob berdi Dorijon.

– Shamollab, kasal bo'lib qolasiz.

– Kasal bo'lsam-bo'larman, biroq kasalxonangizga bormayman.

– Uyat sizga! – dedi Asalxon. – O'zingiz doktorsiz-ku, tibbiyotni hurmat qilmaysiz.

U boshini viqor bilan ko'targanicha qayrilib ketdi. Uning izidan butun xizmatchilar ham ketishdi.

Dorijon endi boshqa xavf yo'qligiga ko'zi yetib, daraxtdan tushdi.

Qizaloqlar uning atrofini o'rab olishdi-da, achinib:

– Sovuq yemayapsizmi? Shamollab qolasiz-ku, – deyishdi. – Sizga kiyim-bosh keltiraylikmi?

– Olib kela qoling, – deb rozi bo'ldi Dorijon.

Momiqoy degan qizaloq chopqillab uyiga borib, yengsiz yo'l-yo'l yashil ko'ylak olib keldi.

– Bu nima? – deb hayron bo'ldi Dorijon. – Men yengsiz ko'ylak kiyishni yoqtirmayman. Hamma meni qiz bola deydi.

– Desa nima bo'пти? Qiz bola bo'lish yomon ekanmi?

– Yomon.

– Nega? Bundan chiqdi, biz yomonmizmi?

– Yo'q, sizlar yaxshisizlar-u... – deb gangib qoldi Dorijon, – ammo o'g'il bolalar yaxshiroq...

- Ularning nimasi yaxshiroq ekan, qani aytib bering-chi?

- Albatta yaxshi-da. Bizning Mashshoqvoy degan bolamiz bor. Bilasizmi, u qanday musiqachi? Uning nay chalganini eshitmagansiz-a?

- Eshitganmiz. Bizning qizaloqlarimiz ham chiltor chalishadi.

- Bizning Bo'yoqvoyimiz bor. U shunaqangi suratlar ishlaydiki, bir ko'rsangiz bo'lardi.

- Ko'rganmiz. Ammo, sizda faqat Bo'yoqvoy bo'lsa, bizning hamma qizaloqlarimiz rasm solishni biladi, hatto, har xil rangdagi ip bilan gul sola oladi. Mana, siz ko'ylagim oldidagi qip-qizil olmaxonga o'xshatib tika olasizmi? - deb so'radi Olmaxon.

- Tikolmasdim, - deb tan berdi Dorijon.

- Mana ko'rdingizmi, hamma narsa qo'limizdan keladi. Xohlasak, olmaxon, xohlasak, quyoncha tikamiz.

- Ha, mayli! - deb qo'lini siltadi Dorijon va yengsiz ko'ylakni kiya boshladi.

Uni kiydi-da, qo'lini yozib, oyog'ini ko'tardi. O'zining u yoq-bu yog'iga qaradi. Bilmasvoy Dorijonni bunaqa g'aroyib kiyimda ko'rib piqilladi, keyin boshqa bolalar ham kulishdi.

- Uyat emasmi sizga! - deb jahli chiqdi Moshxonning. - Hech qanday kuladigan joyi yo'q.

Ammo kulgi to'xtamadi. Dorijon qayoqqa qarasa, hamma kulayotibdi. U yengsiz ko'ylakni yecha boshladi.

- Nega bunaqa qilyapsiz?.. - deb uni ko'ndirishga kirishdi qizaloqlar.

- Kerak emas! - deb qat'iy gapirdi Dorijon. - Tezda kiyim-boshimni olib kelib qolishadi.

- Asalxon bermaydi, u juda qattiqqo'l.

Dorijon indamay, kulib qo'ydi.

Asalxon bilan xizmatchilar kasalxonaga qaytib kelishganda, Sergapning ham g'oyib bo'lganini darrov sezib qolishdi. Ular omborga yugurib kirib kiyimlar yo'qolganini bilishdi. Omborda faqat O'qtoyning kiyimigina qolgandi.

Shunday qilib, Sergap bilan doktor Dorijonning oldindan o'ylagan qochish rejasi aniqlandi. Bu rejaga ko'ra, doktor Dorijon yalang'och holda derazadan qochishi lozim edi. Kasalxonaning butun xizmatchilari Dorijon ketidan quvadi-da, Sergap ombordan o'zining va Dorijonning kiyim-boshini bemaolol o'g'irlab chiqadi, deb o'ylashgan. Reja ikir-chikirigacha to'g'ri o'ylangan ekan, amalga oshdi.

Asalxon kiyim-boshlarni o'g'irlagan Sergapni uzoq qidirib yurdi. Bu vaqtda Sergap qariqiz o'tining bargi ostida bekinib yotardi. Bu yerda o'tirish uncha ko'ngilli bo'lmasa-da, Sergap ozodlikka chiqib olganidan o'zida yo'q shod edi. U tiniq, zangori osmonga, yam-yashil o'tlarga maza qilib qarardi. Uning yuzida hatto tabasum ham paydo bo'lgandi. Agar u tag'in kasalxonaga tushib qolmasa, umr bo'yi sira g'ingshimaslikka, dunyodagi barcha narsalardan sira nolimaslikka qasamyod qildi.

Sergap Asalxonning kasalxonaga kirib ketganini ko'rdi. Keyin bekingan joyidan astagina chiqib ketdi. Dorijonni topdi-da, kiyimlarini unga berdi.

- Kiyim-boshingni ol, sho'rlik oshna, - dedi Sergap qo'lidagi tugunchani Dorijonga uzata turib.

Dorijon oshnasining quchog'iga tashlandi. Ular kasalxonada ekanliklarida bir-birlari bilan juda qalin oshna bo'lib qolishdi. Dorijon birpasda kiyinib oldi.

Dovdirvoy, Agarqul, Murvatvoy va boshqa bolalar Sergapni o'rab olishib, kasalxonadan eson-omon qayti-

shī bilan tabriklashdi. Uning xushchaqchaqligini ko'rib, hamma hayron qolishardi.

- Sergapning kulganini birinchi marta ko'rib turishim! - dedi Bo'g'irsoq.

Qizaloqlar ham Sergapga atrofdan qiziqib qarab turishardi.

- Otingiz nima? - deb so'radi Momiqoy.

- Sergap.

- Hazil qilmang-ey!

- O'lay agar! Nega bunaqa deysiz?

- Sizning chehrangiz mehribon va yoqimli. Bunaqa nom sizga yarashmaydi.

Sergapning og'zi sal bo'lmasa qulog'iga yetayozdi.

- Mening ismim jismimga to'g'ri kelmaydi, - deb qochirib qildi u.

- Daraxtga chiqasizmi? - dedi unga Moshxon.

- Chiqsam bo'ladimi?

- Nega bo'lmas ekan? Sizga ham arra olib kelamiz, boshqalar bilan birga ishlaysiz.

- Menga ham arra ola kelinglar, - dedi doktor Dorijon.

- Sizga bermasak ham bo'lardi, chunki qizaloqlarni kamsitdingiz, lekin mayli, biz kechiramiz, - dedi Moshxon.

Qizaloqlar tag'in ikkita arra olib kelishdi, Sergap bilan Dorijon ham ishga kirishib ketishdi. Sergap bo'lsa, Asalxonning iznida qamalib yotgandan ko'ra, daraxtga chiqib yurish ancha maza ekanligini aytdi.

- Buning ustiga, anchagina foydali ham, - deb qo'shib qo'ydi doktor Dorijon.

U pastga qaraganda yuqoridagi havo birmuncha toza va kislorodga mo'l deb hisoblardi. Shuning uchun Sergap bilan Dorijon daraxtning eng baland shoxiga chiqib ishlashardi.

Yigirma to'rtinchi bob

BO'YOQVOYNING IXTIROSI

Ertasi kuni ham olma va nok terish davom etdi. Shahar ko'chasida uchinchi mashina paydo bo'lib qoldi, bu Buramavoyning bug' bilan yuradigan sakkiz g'ildirakli avtomobili edi.

Varrakxona shahrida Kulchavoyning g'oyib bo'lganini sezib qolishdi. U yerdagi odamlar Kulchavoyni Murvatvoy bilan Tuzatvoy Yashil shaharga olib ketganligini bilishardi. Ammo Kulchavoy safardan qaytib kelavermagach, hamma biror ko'ngilsiz voqea ro'y bermaganmikin deb, xavotir bo'lib, Buramavoydan xabar olib kelishni iltimos qilishdi. Buramavoy Yashil shaharga kelib, Kulchavoyning o'z mashinasida meva tashiyotganini ko'rdida, u ham jim turolmay ishga kirishib ketdi.

Varrakxonadagilar Buramavoyni kechga qadar kutishdi, ammo u ertasi kuni ham qaytib kelmadi. Shahar bo'ylab har xil bo'lmag'ur shov-shuvlar tarqala boshladi. Ba'zilar Yashil shahar yo'lida yalmog'iz kampir paydo bo'lib, kimni ko'rsa yeb qo'yayotganmish, deb aytishdi. Boshqalari bo'lsa, bu yalmog'iz kampir bo'lmay, O'lmas Koshchey¹ emish der, yana ba'zilari bahslashar va O'lmas Koshchey bo'lmaydi, bu uch boshli ajdar, Yashil shahar yo'lida emas, Yashil shaharning o'zginasida o'r-nashib olganmish, deb ishontirishardi. Bu ajdar har kuni bitta qizaloqni yer ekan, agar shaharda o'g'il bola ko'rinib qolsa, shu zahoti yeb qo'yar ekan, negaki, qiz boladan ko'ra o'g'il bola yaxshiroq emish-da.

¹ *Koshchey* - rus xalq ertaklari qahramoni, ko'p xazinaga ega bo'lgan va o'lmaslik sirini bilgan yovuz kishi (*muh.*).

O'sha uch boshli ajdar haqida gap tarqalgandan keyin varrakxonadagilardan hech kim qizaloqlar shahrida nima bo'layotganini bilishga yuragi betlab horolmadi. Har kim ham uyimda tinchgina o'tirganim yaxshiroq derdi. Ammo tez orada bir jasur topilib qoldi. U borib hamma narsani bilib kelaman dedi. Bu ancha mashhur bo'lgan Mixvoy edi. Uning kimligi haqida yuqorida gapirilgan edi. Mixvoyning beboshligini va yebto'ymas ajdarning og'ziga ham kirib chiqa olishini u yerning aholisi bilardi.

Hamma unga bormagin, deb nasihat qila boshladi. Ammo Mixvoy quloq solmadi. U qizaloqlar oldida juda aybdorligini, endi vijdoni qiynalayotganini aytib berdi. Shu sababli u o'z gunohini yuvish uchun shaharga borib, o'sha ajdarning xuddi dumiga tupurmoqchimish, ajdar bo'lsa o'lib qolarmish, degan gapni Mixvoy qayoqdan olganini aytmadi.

Mixvoy jo'nadi. Ba'zi birovlar juda achinib, halitdan yig'lab olishdi. Boshqalari bo'lsa, unga unchalik achinishning hojati yo'q, bitta bezori kamayib, shahar ancha tinchib qoladi, deyishdi.

- Lekin uni qayta tarbiyalay olmaganimiz uchun o'zimiz aybdormiz-da, - deyishdi birinchi gapirganlar.

- Bunaqalarni tarbiyalab bo'psan! - deb javob berishdi ikkinchilari. - Uni tarbiya qilish o'limdan ham qiyin.

Bu gapdan ma'lum bo'lishicha, birinchilar hali Mixvoydan unchalik yomonlik ko'rishmagan edi, ikkinchilarning esa Mixvoy xiyla dodini bergan edi.

Xuddi kutilganiday Mixvoy qaytib kelmadi. Shundan keyin shaharda hamma ajdar haqidagi shov-shuvga ishondi. Aqlga sig'maydigan uydirma gaplarni gapirib boshlashdi. Har bir odam bu ajdarga bittadan yangi bosh qo'shardi, sekin-asta uch boshli ajdar yuz boshli ajdarga aylanib ketdi.

Albatta, bu gaplarning bari uydirma edi. Ba'zi bir aqlli kitobxonlar Mixvoyning nima uchun qaytib kelmaganini ehtimol payqashgandir. Ba'zi payqamay qolganlarga tushuntirish mumkin, Mixvoyni ajdar yutib yuborgani yo'q, ajdar hech kimni yutgani ham yo'q. Hech qanday ajdar-pajdar bo'lmagan ham. Mixvoy ishga berilib ketdi, xolos. Uning ham daraxt ustiga chiqib, arra bilan ishlagisi keldi. Axir bu juda qiziq ish-da, buning ustiga xavfli ham. Biror o'g'il bola xavf oldida chekinarmishmi?

Bu kunlarda faqat Bo'yoqvoygina uyda o'tirib rasm ishlardi. Har bitta qizaloqning suratli bo'lgisi kelardi, ular Bo'yoqvoyning joniga tegishdi. Yana hammaning rasmga eng chiroyli bo'lib tushgisi kelardi. Bo'yoqvoy ularga har kim o'zicha chiroyli ekanini, hatto kichik ko'zlar ham chiroyli bo'lishi mumkinligini isbot qilishga urinib ko'rdi. Bo'lmadi! Har bir qizaloq ham ko'zi albatta katta, kipriklari uzun, qoshi yoyday va og'zi kichkina bo'lishini talab qilardi. Bo'yoqvoy oxiri bahslashishni yig'ishtirib, ular talab qilganday chiza boshladi. Bu anchagina qulay tushib, hech qanday tortishuv bo'lmadi. Uning ustiga, Bo'yoqvoy surat ishlash usuliga yangilik kiritishi mumkinligini sezib qoldi. Hamma ham bir xil-da talab qilgandan keyin, andaza ishlatishni mo'ljalladi. Bir bo'lak qalin qog'oz oldi-da, undan ikkita katta ko'z qirqdi, uzun, egilgan qosh, ixchamgina burun va kichkinagina lab, salgina chuqurchasi bor iyak, ikki tomonga nozikkina bir juft quloq o'ydi. Yuqorisidan hurpaygan soch qilib qirqdi, pastdan esa ingichka bo'yin va uzun barmoqli ikkita qo'l ishladi. Bunday andazani tayyorlab bo'lib, nusxa olishga kirishdi.

Nusxaning nimaligi hozir hammaga ayon bo'ladi. Bo'yoqvoy andazani bir bo'lak qog'oz ustiga qo'ydi-da, qizil bo'yoqni olib, andazadagi qirqilgan labni bo'yay

boshladi. Qog'ozda birdaniga labning shakli paydo bo'ldi. Undan keyin burunni, quloqni, qo'lni badan rangidagi bo'yoqqa bo'yadi-da, so'ngra sochini qora yoki sariqqa, ko'zlarni zangori yoki qo'ng'ir rangga bo'yadi. Mana shu usulda nusxa paydo bo'ldi.

Bo'yoqvoy bunaqa nusxalardan bir qanchasini tayyorladi. Qaysi bir qizaloqning ko'zi ko'k, sochi sariq bo'lsa, u ko'kko'zli va sariq sochli nusxani olar, salpal o'xshatib, suratni tayyorlab beraverardi. Qaysi bir qizaloqning ko'zi va sochi qora bo'lsa-chi, bunaqasiga ham nusxa topilardi.

Bunaqa bir nusxadagi suratlardan Bo'yoqvoy talayini ishlab tashladi. Bu yangiligi ishni tezlashtirdi. Buning ustiga, Bo'yoqvoy tajribali ustaning qo'lidan chiqqan andaza bilan har qanday mitti bola ham nusxa tayyorlay olishini kashf etdi. Bu ishga Agarqulni jalb qildi. Agarqul ham andaza nusxalarini kerakli bo'yoqlar bilan shunday bo'yadiki, u tayyorlagan nusxalar Bo'yoqvoy ishlaganlaridan sirayam qolishmasdi. Bo'yoqvoy bilan Agarqul o'rtasidagi mehnat taqsimoti ishni yana ham tezlatib yuborgani juda yaxshi bo'ldi, chunki surat buyuruvchilarning soni kamaymay, kundan-kunga osha bordi.

Agarqul o'zining yangi vazifasidan juda mamnun edi. G'ururlanib Bo'yoqvoy bilan o'zini: «Biz – rassomlarmiz», derdi. Ammo Bo'yoqvoy o'zining ishidan ko'ngli to'lmay, buni nimagadir ko'chirmakashlik deb atardi. U yashil shaharda ishlagan hamma suratlari orasida Oppog'oy bilan Ko'kko'zning portretinigina haqiqiy san'at asari deb hisoblash mumkin, boshqalari esa shunchaki qilingan, derdi.

Bu fikrga surat egalari qo'shilishmadi. Chiroyli chiqqani hammalariga ham ma'qul edi, o'xshashining uncha zarurati yo'q, deyishardi. Har narsaga har kim turli munosabatda bo'ladi-da.

*Yigirma beshinchi bob***O'QTOYNI DAVOLASHGANI**

Sergap bilan Dorijon qochib ketgandan keyin kasalxonaning hutun xizmatchilari yakka-yu yagona kasal O'qtoyni davolash bilan mashg'ul bo'ldilar. U o'ziga bo'lgan alohida diqqat-e'tiborni ko'rib, juda ham tantiqlanib ketdi. Ba'zan u tushlik ovqatga qand, sho'rva va marmeladdan atala qilib berishlarini talab qilib qolar, ba'zida esa qulupnaydan qo'ziqorin solingan qiymago'sht buyurib qolardi, ammo bunaqa qiymago'sht bo'lmasligini hamma ham biladi-ku, axir. Ba'zida olma pyure olib kelishni talab qilardi, olib kelishgunday bo'lsa, nokdan qilingan kvas talab qilardi, kvas olib kelishsa, undan piyoz hidi anqiyapti derdi-da, yana allaqanday mashmasha chiqarardi.

Hamma hamshiralar ham uning injiqligidan charchashdi. Ular bunaqa kasalni hech ko'rmaganmiz, u kasal bo'lmay, turgan-bitgani azob-uqubat-ku, tuzal-sa-tuzala qolsin, deb gapirishardi.

Har kuni ertalab u bitta hamshirani shahar bo'ylab Ko'ktoyning itini qidirib kelishga jo'natardi. Shaharda yura berib horigan hamshira kasal o'z itini esidan chiqargandir, degan umidda qaytib kelsa, O'qtoy, albatta, undan:

- Topdingmi? – deb so'rardi.
- Hech qayoqda yo'q ekan.
- Yaxshilab qidirmagansan-da!
- O'lay agar, hamma ko'chalarni qidirib chiqdim!
- Nega bo'lmasa, men chaqirganingni eshitmadim?

Qani, tag'in borib qidirib kel-chi!

Bechora hamshira darvozadan chiqib qayoqqa borishini bilmasdan, o'qtin-o'qtin:

– Ko'ktoy, Ko'ktoy! Oting o'chgur! – deb baqirardi.

U bunaqa baqirishning foydasi yo'qligini bilsa ham, O'qtoyning talabini bajarardi, uning fikricha, kasalni bu sal tinchlantirarmish.

O'qtoy boshqa bir hamshirani qolgan bolalar nima qilishayotganini bilib kelishga yuborardi, u O'qtoyga bu haqda kuniga uch marta – ertalab, tushda, kechqurun hisob berardi. Uchinchi bir hamshirani ertadan-kech-gacha ertak aytib berishga majbur qilardi. Agar ertagi qiziq bo'lmasa, uni haydab yuborib, durustroq ertak bi-ladiganini yuborishni talab qilardi. Agar o'rtoqlaridan bitta-yarimtasi ko'rgani kelmasa, tozayam jahli chiqar-di. Birov kelgunday bo'lsa-chi, ertak eshitishga xalaqit beryapsan deb haydab yuborardi.

Asalxon kasalning fe'l-atvori kundan-kunga rasvola-shayotganini ko'rdi. O'qtoyning fe'l-atvori Sergap bilan Dorijonnikini qo'shib hisoblaganda ham yigirma marta battar bo'lib ketibdi, derdi. Kasalga yordam berish uchun uni kasalxonadan chiqarishdan boshqa chora yo'q edi, lekin uning oyog'i haliyam og'rirdi. Ustiga-ustak, O'qtoy o'zini-o'zi mayib qilib qo'ydi.

U bir kuni ertalab uyg'onsa, oyog'i og'rimayotgan ekan. O'rnidan irg'ib turib xona bo'ylab yugurib qoldi, lekin o'n qadam yurar-yurmas oyog'i qayrilib ketib, yiqilib tushsa bo'ladimi! Sho'rlikni ko'tarib o'rniga yotqizib qo'yishdi. Birdaniga oyog'i shishib ketdi, kechqurun esa issig'i ham ko'tarildi.

Asalxon mijja qoqmasdan tun bo'yi uning oldida o'tirib chiqdi. Uning qilgan dori-darmoni tufayli shish qaytdi. Ammo bu voqeadan keyin oyog'ini davolash ancha cho'zilib ketdi.

Oxiri kasalga o'rnidan oz-oz turishga ruxsat berishdi. O'qtoy qo'ltiqtayoqqa tayanib bir qo'li bilan devorni ush-

lab palatada asta-sekin yurishni o'rgana boshladi. Keyin bir soat-yarim soat hovliga chiqib yurishga ruxsat berishdi, uni hamshira kasalxonaning atrofida aylantirib yurardi. Kasalning injiqligi biroz tuzaldi, jahli kam chiqadigan bo'lib qoldi, ammo palataga qaytadigan vaqt bo'lganda, O'qtoy o'zini unutib qo'yardi-da, «Kirmayman!» – deb baqirar va hamshiraga qo'ltiqtayoqni o'qtalardi. So'ngra kasalni qo'ltiqlab olib, zo'rg'a o'rniga yotqizishardi.

Qat'iy choralar qo'llanib, davolash ancha yaxshi bo'ldi. Tez orada O'qtoyni bir kundan keyin kasalxonadan chiqaramiz deb e'lon qilishdi. Bunday yaxshi xabarni mittioylar va mittivoylar eshitishib xursand bo'lishdi.

Belgilangan kuni butun aholi kasalxona oldiga to'plandi. Hamma kasalni tuzalishi bilan tabriklar, gullar taqdim etar, u bo'lsa:

– Mana endi hammamiz topishdik, – derdi, – faqat Bilag'on bilan mening Ko'ktoyingina yo'q.

– Hechqisi yo'q, – deb uni yupatishdi qizaloqlar, – ehtimol, Bilag'oningiz ham kelib qolar, Ko'ktoy ham topilib qolar.

– Qanday qilib ular o'zidan-o'zi topilar ekan? – dedi O'qtoy, – qidirish kerak-da ularni.

– Rost, – dedi Bilmasvoy, – o'sha tentak Bilag'onni qidirish kerak, bo'lmasa bizsiz holi xarob bo'ladi.

– Nega u tentak bo'lar ekan? – dedi norozi bo'lib doktor Dorijon.

– Albatta, tentak-da, yana qo'rqqoq ham, – dedi Bilmasvoy.

– U hecham qo'rqqoqmas-ku... – deb boshlagan edi Sergap, ammo Bilmasvoy uning so'zini bo'ldi:

– Jim o'tir! Sen boshliqmi, yo menmi? Yo tag'in kasalxonaga tushging kelyaptimi?

Kasalxonaning daragini eshitib Sergap jim bo'ldi. Op-pog'oy shunday dedi:

– Yakshanba kuni jami kasallarning tuzalishi sharafiga bazm qilmoqchimiz, undan keyin tentak Bilag'oningizni qidirishga boraverasizlar. Uni topganlaringizdan keyin, tag'in bir marta bazm uyushtiramiz. Bu juda ajoyib bo'ladi.

– Juda soz! Juda soz! – deb sevindi barcha.

Ular Bilag'onni topishga sevinishdimi, yo unga atab yana bir marta bazm uyushtirilishigami, bilib bo'lmasdi.

Meva terish tugagan edi. Hamma yerto'lalar limmo-lim to'lsa ham daraxtlarda olma, nok va olxo'rilar hali ko'p edi. Qolgan mevalarni varrakxonalik bolalarga sovg'a qilishmoqchi bo'lishdi.

Hamma bazmga tayyorgarlikka kirishib ketdi. Aholi-ning bir qismi raqs maydonchasining o'tlarini yular, boshqa bir bo'lagi esa, maydoncha atrofiga o'rindi qurardi. Shoshqaloq, Indamas va Mixvoy bolta olib maydonchani yoniga cholg'u ahli uchun ikki qavatli shiyponcha qurishardi. Boshqa bolalar bo'lsa gazli suv, muzqaymoq va boshqa shirinliklarga do'koncha qurishardi. Bu ishlarni musiqa sadosi ostida qilishardi, nega deganingizda, Mashshoqvoy chiltor asbobida eng yaxshi chaladigan qizaloqlardan o'ntasini ajratib olib, cholg'u guruhi tuzgan edi. Ular shu yerda mashq qilishardi.

Mixvoyning juda hafsala bilan ishlayotgani hammadan ham qiziq edi. Unga nima buyurilsa, hech qanaqa nayrang qilmasdan, barchasini bajarardi. Go'yo u qayta tug'ilganday edi.

– Bizga yordam berayotganingiz juda yaxshi ish bo'libdi-da! – dedi unga Moshxon.

– Nega yordam bermas ekanman? – deb javob berardi Mixvoy. – Yordam kerak ekan, boshim yorilsa ham qilaman dedim – qilaman.

– Siz juda berilib ishlayapsiz, ko'rib quvonasan kishi, – dedi Qaldirg'och. – Ishni yaxshi ko'rishingiz ko'rinib turibdi.

– Juda yaxshi ko'raman ishlashni, – deb iqrор bo'ldi Mixvoy. – Men doim biror ish qilishni yaxshi ko'raman. Hech qanaqa ish bo'lmasa-chi, nima qilishni bilmay, keraksiz ishlarni ham qilaveraman. Bundan hech nima chiqmaydi, hatto tanbeh ham yeyman.

Mixvoy «piq» etib burnini tortdi-da, qo'li bilan artganday bo'ldi.

– Ya'ni qanaqa tanbeh, – deb so'radi Moshxon.

– Po'stakni qoqish-da!

– Po'stakni qoqishi nimasi?

– Shunchaki do'pposlash-da.

– Voy, bechora! – deb achindi Moshxon, – siz bo'lmag'ur ishlarni qilmang, qo'ying. Yaxshisi, biz tomonga kela qoling-da. Bizda yo taxta devor tuzatish, yo singan deraza ko'ziga oyna qo'yish kabi har xil ishlar topilib turadi...

– Ma'qul, – deb rozi bo'ldi Mixvoy.

– Biznikiga bazmga kelasizmi?

– Kelsam maylimi?

– Nega maylimas ekan? Faqat yaxshilab yuvining va sochlaringizni tarang-da, undan keyin keling. Biz sizni taklif qilamiz.

– Yaxshi, men kelaman. Rahmat.

Mixvoyning hurmat bilan gaplashgani, hatto rahmat degani Moshxonga juda ham yoqib tushdi. U mamnunligidan yuzlari qizarib, yugurib Qaldirg'ochning oldiga bordi:

– Endi uni tarbiyalash juda oson bo'ladi, – deb shivirladi.

– Uni tez-tez maqtab turish kerak, – dedi Qaldirg'och.

– Bu unga foyda beradi. Sho'xlik qilg'uday bo'lsa, uri-

shish lozim, bordi-yu yaxshi ish qilsa, maqtash kerak, chunki u yana maqtashsin deb yaxshi ish qilishga urinadi. Yana uni yaxshi odatlarga o'rgatish kerak, u bo'lsa juda beo'xshov burun tortadi.

– Ustiga-ustak, uning gapi ham g'alati, – deb qo'shib qo'ydi Moshxon, – «Kalla-malla», «bema'ni», «boplab!» degan so'zlar o'zi qanaqangi so'z? Uni gaplashishga o'rgatib, asta-sekin xunuk so'zlarni yodidan chiqarish kerak.

Mixvoy bo'lsa, ularning maqtaganidan juda mamnun bo'lib, yanada qiziqib ishlay boshladi. Axir, maqtov kimga yoqmaydi!

Yigirma oltinchi bob

MIXVOYNING QAYTISHI

Mixvoy uyga qaytmagandan keyin Yashil shaharga borishga varraxonaliklardan hech kimning yuragi betlamadi. Yuz boshli ajdar tez orada qizaloqlarni yeb bo'lib, keyin Varraxonaga kelib, bolalarni ham yuta boshlarmish degan shov-shuv tarqaldi. Ammo ancha vaqt o'tsa-da, ajdardan darak bo'lmadi. Uning o'rniga bir kuni ertalab Varraxonada notanish bir bola paydo bo'ldi. U havo pufagida o'z o'rtoqlari bilan uchishgani, pufak pasayib qolgandan keyin parashut bilan sakrab tushganini aytib berdi. U qorong'i o'rmonga tushib qolgandan keyin pufak uchib ketgan tomonga qarab o'rtoqlarini qidirib dala, o'rmonlarni toza kezib yuribdi.

Ehtimol, ba'zi bir eng topag'on kitobxonlar, bu notanish bolaning Bilag'on ekanini allaqachon bilib olishgan-

dir. Bilag'on bo'lsa, uyiga qaytib ketmay o'rtoqlarini topishga qaror qildi.

Varrakxonadagilar esa bundan bir necha kun ilgari, havo pufagida uchib, keyin yiqilib tushgan boshqa bolalarning ham Yashil shaharda paydo bo'lganini Bilag'onga aytib berishdi. Ulardan ikkitasi Varrakxonaga kavsharlagich qidirib kelishib, keyin shofyor Kulchavoy bilan yana Yashil shaharga qaytib ketishganini ham aytishdi. Bilag'on bu ikkita bolani surishtira boshladi. Unga bolalarning qiyofasi va charm kamzul kiyishganini aytib berishganda, Bilag'on ularning Murvatvoy va Tuzatvoy ekanini angladi. Yozuvchi Fahmdor ham bormotografi bilan shu yerda edi. U bu gapni eshitib, o'sha bolalarning oti rostdan ham Murvatvoy va Tuzatvoy ekanini tasdiqladi.

Bilag'on juda sevinib ketdi. U shu zahotiyiq Yashil shaharga jo'namoqchi bo'lib, yo'lni ko'rsatib qo'yishlarini iltimos qildi. Lekin bu yerdagilar uning gapini eshitib xafa bo'lishdi. Ular Bilag'onga Yashil shaharga borib bo'lmasligini, u yerda yuz boshli ajdar paydo bo'lib, qizaloqlarnigina emas, hatto o'g'il bolalarni ham yutib yuborayotganini aytib berishdi.

- Men yuz boshli ajdarni umrimda uchratmaganman! - deb ishonmay kulib qo'ydi Bilag'on.

- Nima deyapsiz o'zi! - deb unga qo'l siltashdi. - Bizning Kulchavoyni kim edi? U Murvatvoy bilan Tuzatvoyni Yashil shaharga olib ketganiga bir necha kun bo'ldi, haliyam qaytib kelgani yo'q.

- Buramavoyni kim yedi? - deyishdi boshqalar. - U Yashil shaharga Kulchavoyni qidirib ketuvdi, uyam qaytib kelmadi. U juda ajoyib mexanik edi-da! Hamma narsa qo'lidan kelardi.

– Mixvoyni kim yamladi? – deb so‘rashdi yana boshqalar. – Lekin, ochig‘ini aytganda, u bolaga achinmasa ham bo‘ladi, negaki, u yaramas bola edi. Shundoq, bo‘lsa ham, uni nimadir yegan bo‘lishi kerak-da, axir.

Bilag‘on o‘ylab qoldi. Keyin:

– Yuz boshli ajdar borligi fanga ma‘lum emas. Bundan chiqdi, bu – bo‘lmagan gap, – dedi.

Fahmdor bo‘lsa:

– Ajdarlarning yo‘qligi haqida ham fanda hech qanday ma‘lumot yo‘q, bundan chiqdi, ajdarlar bor ekan-da, – dedi. – U haqda gapirishgandan keyin, nimadir borda.

– Yalmog‘iz kampir haqida ham gaplar bor, – dedi Bilag‘on.

– Nima, sizningcha Yalmog‘iz kampir ham yo‘qmi?

– Albatta, yo‘q.

– Qo‘ying-e cho‘pchagingizni!

– Bu ertakmasmi! Yalmog‘iz kampir ertak-da. Shaharliklar Bilag‘onni shuncha aynitishsa ham, u o‘z so‘zida turib, borishga qat‘iy qaror qildi. Nima ham qilishsin, bolalar uni ovqatlantirishdi, keyin shahar chetiga boshlab chiqib, Yashil shaharga boradigan yo‘lni ko‘rsatib qo‘yishdi. Ular, bu so‘zsiz halokatga ketyapti deb, u bilan ko‘zyosh qilib xayrlashdilar.

Shu orada uzoqdan osmonga ko‘tarilgan chang-to‘zon ko‘rindi. U tezda yaqinlashdi-da, kattalashib ketdi. Mittilar qochib, uy-uylariga bekinib olishdi va derazalardan mo‘ralashdi. Ularning hammasi yuz boshli ajdar chopib kelyapti deb o‘ylashdi. Faqat Bilag‘on qo‘rqmasdan ko‘cha o‘rtasida qoldi.

Tez orada ular birin-ketin uchta mashinaning shaharga yaqinlashib kelayotganini ko‘rishdi. Yo‘lda chang ko‘tar-

gan shular ekan. Birinchi mashinaga bir tomoni qip-qizil kattakon olma, ikkinchisiga pishgan nok, uchinchi mashinaga esa beshtacha olxo'ri ortilgan edi. Mashinalar Bilag'onning oldiga kelib to'xtashdi-da, ichidan Kulchavoy, Buramavoy va Mixvoylar tushishdi. Mittilar bularni ko'rishib uy-uylaridan yugurib chiqishib, Kulchavoy, Buramavoy va, hatto, Mixvoy bilan ham quchoqlashib ko'rishib ketishdi. Barchasi ajdarni so'rashdi, hech qanaqa ajdar-pajdar yo'qligini eshitishib, juda ham hayron qolishdi.

- Nega sizlar ancha vaqt yo'qolib ketdinglar? - deb so'rashdi.

- Meva terishdik, - deb javob berdi Mixvoy.

Hamma kulib yubordi.

- Boshqalar ishlagandir-u, sen bo'lsang devormadevor oshib, oyna sindirgandirsan-da! - deb masxara qilib gapirdi Fahmdor.

- Unaqa qilganim yo'g'-e! - deb o'pkaladi Mixvoy. - Men ham ishladim. Men anovi... nima derdi... aytganday tuzalib qoldim, ha!

Buramavoy bilan Kulchavoy bo'lsa Mixvoyning haqiqatdan ham tuzalib qolganini, qizaloqlar uning ishidan mamnun bo'lishganini tasdiqlashdi va shu sababli varrakxonaliklarga bir qancha olma, nok va olxo'ri sovg'a qilishganini ham aytishdi. Bolalar mevani yaxshi ko'rishgani uchun juda xursand bo'lishdi.

Kulchavoy Bilag'onning Yashil shaharga ketayotганиni eshitib, o'z mashinasida olib borib qo'ymoqchi bo'ldi va tezda jo'nab ketishdi.

Varrakxonaliklar ko'chalarda juda xursand bo'lib yurishardi. Barcha bolalar ajdarning yo'qligidan, Kulcha-

voy bilan Buramavoyning topilganidan va hammadan ham Mixvoyning tuzalغانidan xursand edi. To'g'ri, ba'zilar uning tuzalغانiga shubha bilan qarab yurishar va tag'in oyna sindirishni boshlab yubormasin deb qo'rqishardi. Bir kuni Mixvoyni daryo bo'yida ko'rib qolishdi. U faqat kalta ishton kiyib olib, kiyimlarini yuwardi.

– Nega birdaniga kiyimlaringni yuvish kerak bo'lib qoldi? – deb so'rashdi undan.

– Ertaga bazmga boraman, – dedi Mixvoy. – Kiyimlarim ozoda, sochlarim taralغان bo'lishi kerak-da.

– Qizaloqlar tomonda bazm bo'ladimi?

– Ha. Kulchavoy bilan Buramavoy ham boradi. Ularni ham taklif qilishgan.

– Sen meni ham taklif qilishdi demoqchimisani? – deb ishonmay so'rashdi bolalar.

– Nega endi taklif qilishmas ekan? Albatta taklif qilishadi-da.

– Shunaqa de! – deb boshlarini qimirlatishdi bolalar. – Agar qizaloqlar uni bazmga taklif qilishgan bo'lsa, bundan chiqdi, u rostdanam tuzalibdi. Kim shunday deb o'ylardi-ya!

Yigirma yettinchi bob

KUTILMAGAN UCHRASHUV

Bazmga tayyorgarlik juda qizigan edi. Cholg'u guruhi uchun shiyponcha va raqs maydonchasi atrofidagi kapalarni qurib bo'lishdi. Bo'yoqvoy ayvonchani juda ham g'alati naqshlar bilan be-

zah yubordi, qolgan bolalar chodirlarni har xil ranglarga bo'yashdi. Qizaloqlar ham maydonchani gullar bilan bezashdi va turli rangdagi chiroqcha, bayroqchalar osishdi. Bilmasvoy bo'lsa, u yoqdan-bu yoqqa sandiraqlab yurar va zo'r berib buyruq berardi.

Go'yo uningcha ish juda sust ketardi. U baqirar, hovliqardi-da, nuqul boshqalarga xalaqit berardi. Yaxshiyam, har kim usiz ham nima ish qilishini bilardi.

Kimdir maydoncha atrofiga o'rindiq qurish kerak deb qoldi, ammo taxta yo'q edi. Bilmasvoy alam qilganidan sochlarini yulayozdi.

- Eh, - deb baqirdi u, - nahotki ortiqcha taxta olib kelisholmasa! Endi hamma mashina Varrakxonaga ketib qoldi! Qani, kelinglar, birorta kapani buzamiz-da, undan o'rindiq yasaymiz.

- To'ppa-to'g'ri! - deb baqirdi Agarqul va qo'lga bolta olib kapaga tashlanib qoldi.

- Nima qilyapsan? - dedi Bo'yoqvoy. - Shuncha qilib, shuncha bo'yab, endi buzamizmi?

- Ishing bo'lmasin! - deb baqirdi Agarqul. - O'rindiq ham kerak-da.

- Birini quraman deb, ikkinchisini buzish kerakmas-da!

- Sen nega buyruq beryapsan? - deb aralashdi Bilmasvoy. - Kim boshliq - senmi yo menmi? Buz deyildimi, demak, buzish kerak!

Kim biladi, bu janjal nima bilan tugagan bo'lardi, lekin shu payt uzoqdan mashina ko'rinib qoldi.

- Kulchavoy qaytib keldi! - deb sevinib baqirdi barcha. - Endi taxta olib kelish mumkin, kapani buzmasa ham bo'ladi.

Mashina yetib keldi. Kulchavoy tushdi. Uning ketidan yana bitta bola tushdi. Hamma unga hayron bo'lib qarab turardi.

- Voy, og'aynilar, bu bizning Bilag'onimiz-ku! - deb baqirib yubordi doktor Dorijon.

- Bilag'on keldi! - deb bo'kirdi Dovdirvoy.

Bolalar shu zahotiyuq Bilag'onni qurshab olishdi-da, uni o'pib quchoqlay boshlashdi.

- Oxiri biz seni topib oldik-a, - deyishdi ular.

- Qanaqasiga sizlar meni topibsizlar? - hayron bo'ldi Bilag'on. - Menimcha, sizlarni men topdim!

- Ha-ha, rost, bizni sen topding, sen bizni tamom tashlab ketding, deb o'ylovdik.

- Men sizlarni tashlab ketibmanmi? - deb yana hayron bo'ldi Bilag'on. - Menimcha, sizlar meni tashlab ketdinglar!

- Axir, sen parashutdan sakrading, biz bo'lsak, u yerda qoldik-da, - deb javob berdi Bo'g'irsoq.

- Nega sakramay qoldingizlar? Men axir hamma-ga sakrang deb buyruq bergandim-ku. Mening ketimdan sakrashlaring lozim edi, baribir shar uzoqqa uchib borolmasdi, sizlar esa yuraksizlik qilib qo'rqqansizlar-da.

-Ha-ha, qo'rqdik... - deb bosh qimirlatishdi barcha bolalar.

- Albatta, qo'rqdik! - dedi Bilmasvoy. - Sakrashdan cho'chidik. Kim birinchi bo'lib qo'rqoqlik qilgan ekan, bilsak yaxshi bo'lardi?

- Kim ekan? - deb so'radi Magarqul. - Ehtimol, avvalo, o'zing qo'rqoqlik qilgandirsan?

- Menmi? - deb hayron bo'ldi Bilmasvoy.

- Albatta sen-da! - deb baqirdi barcha. - Sakramanglar endi, deb aytgan kim edi? Sen emasmi?

- Ha, mayli, men, - deb iqrор bo'ldi Bilmasvoy. - Nega bo'lmasa, o'zlaring mening gapimga kirdilaring?

- To'g'ri-da! - deb kulimsiradi Bilag'on. - Xo'p boshliq bo'ladiganni topibsizlar-da! Bilmasvoyning eshak ekanini go'yo bilmaysizlar-a?

- Ana xolos, - deb qo'lini yoydi Bilmasvoy, - bundan chiqdi, men eshak ekanman-da!

- Ham qo'rqoqsan, - deb qo'shib qo'ydi Sharbatjon.

- Buning ustiga, yolg'onchisan, - deya qo'shildi Bo'g'irsoq.

- Men qachon aldabman? - deb hayron bo'ldi Bilmasvoy.

- Pufakni men o'ylab topganman deb aytgan kim edi? - deb so'radi Bo'g'irsoq.

- Unaqa gapingni qo'ysang-chi! - deb qo'lini siltadi Bilmasvoy. - Men hech qanaqa pufakni o'ylab topganim yo'q. Pufakni Bilag'on topgan.

- Bularga boshliq menman deb aytgan kim ekan? - deb Bilmasvoyga yopishdi Sharbatjon.

- Qanaqasiga men boshliq ekanman! Men shunchaki... Ha, shunchaki. Men hech kim emasman, - deb o'zini oqladi Bilmasvoy.

- Biz endi basharangga tuf, deymiz! Endi bizning boshlig'imiz Bilag'on, - deb baqiraverdi Sharbatjon.

Bu gaplarning hammasini eshitib turgan mittivoylar gurr etib kulishdi. Bilmasvoyning g'irt yolg'onchiligini ular ham bilishdi.

Zag'chaxon bilan Do'mbog'oy Bilmasvoyning yolg'onchi ekanini va sharni u emas, Bilag'on o'ylab topganini hamma yoqqa yoyish uchun yugurib ketishdi.

Ko'kko'z Bilmasvoyning oldiga kelib:

– Nega bizni aldadingiz? – deb jerkidi. – Sizning gaplaringizga ishonib, rostdanam, sizni aqlli, qoʻrqmas va oqkoʻngil deb oʻylabmiz, siz boʻlsangiz gʻirt yolgʻonchi, yana rosa qoʻrqoq ekansiz!

U viqor bilan Bilmasvoydan yuzini oʻgirdi-da, atrofini qizaloqlar oʻrab olgan Bilagʻonning oldiga keldi. Uni koʻrish va uning gapini eshitishga hamma ham qiziqardi.

– Qani menga ayting-chi, havo pufagida uchganda yer pastda pirogga oʻxshab koʻrinishi rostmi? – deb soʻradi Olmaxon Bilagʻondan.

– Yoʻq, bu toʻgʻri emas, – deb javob berdi Bilagʻon. – Yer juda ham kattakon, havo pufagida yuqori koʻtarilganing sari yer yuzi yana keng boʻlib koʻrinadi, goʻyo tagʻin ham kattaga oʻxshab ketadi.

– Qani, menga aytib bering-chi, bulut juda ham qattiq ekanmi, uchgan vaqtingizda uni bolta bilan chopib yoʻl ochganingiz toʻgʻrimi? – deb soʻradi Koʻkkoʻz.

– Bu ham toʻgʻri emas, – deb javob berdi Bilagʻon. – Bulut ham havoga oʻxshab yumshoqqina, nega deganingizda, u tumandan hosil boʻladi, uni bolta bilan chopishning hech hojati yoʻq.

Qizaloqlar Bilagʻondan havo pufagi bugʻ bilan toʻldirilganmi, havo pufagi oyogʻi osmondan boʻlib uchi-shi mumkinmi, uchishgan paytda sovuq ming-u yana oʻndan bir daraja boʻlgani toʻgʻrimi, deb soʻrashdi. Bilagʻon bularning hammasi yolgʻon deb javob berdi-da:

– Bunaqangi ahmoqona gaplarni kim aytdi sizlarga oʻzi? – deb soʻradi.

– Buni gapirgan Bilmasvoy, – deb javob berdi Quyuncha kulib.

Hamma Bilmasvoyga qarab, xoxolab yubordi. U xijolat bo'lganidan qizarib ketdi, yer yorilsa, yerga kirib ketguday bo'ldi, ura qochib, o'sib yotgan qoqigulning ichiga bekinib oldi.

«Qoqigulning ichida yotaman-da, ular bu voqeani eslaridan chiqargandan keyin chiqaman», deb o'yladi Bilmasvoy.

Bilag'on Yashil shaharni ko'rgisi keldi. Ko'kko'z, Op-pog'oy va boshqa qizaloqlar shaharning eng mashhur joylarini ko'rsatish uchun u bilan birgalashib ketishdi. Bilag'on daryo ustiga qurilgan ko'priikka sinchiklab qaradi, keyin qamish vodoprovodni ko'rdi. Uni vodoprovod va favvora qurilishi juda ham qiziqtirdi. Qizaloqlar unga vodoprovod qanday qilib qurilganini va favvora qanday qilinganini, favvora uchun suv pastda bo'lmay yuqorida bo'lishi zarurligini gapirib berishdi. Qizaloqlar shahridagi tartib va haddan tashqari ozodalik Bilag'onga juda ham yoqib tushdi. U yo'lkalarga ham sholcha solib qo'yishganini maqtadi. Qizaloqlar xursand bo'lishganidan Bilag'onni o'z uylarini ko'rishga taklif qilishdi. Uylarining ichi ham tashqi ko'rinishiga o'xshagan chiroyli edi. Bilag'on bir uyda kitob javonini ko'rib qolib, uyiga qaytganda u ham o'ziga kitob javoni qilmoqchi bo'lganini aytdi.

– Hali sizning kitob javoningiz yo'qmi? – deb so'rashdi qizaloqlar.

– Yo'q! – deb bo'yniga oldi Bilag'on.

– Kitoblaringiz qayerda saqlanadi bo'lmasa?

Bilag'on qo'lini siltab qo'ya qoldi, xolos. Kitoblarim stol ostida, stol ustida va, hatto, karavotning tagida yotadi deb tan olishga uyaldi.

Bilag'on, turgan gap, tarvuzlarga ham qiziqdi. Qizaloqlar unga Maysaoy haqida gapirishdi. Bilag'on u bilan tanishib olmoqchi bo'ldi. Qizaloqlar Maysaoyni topishib, Bilag'on bilan tanishtirib qo'yishdi. Bilag'on undan o'zini qiziqtirgan hamma narsalarni so'ray boshladi. Maysaoy unga turli meva va sabzavotlar yetishtirganini aytib berdi. Bilag'on uning gapini juda diqqat bilan tingladi, hatto ba'zi narsalarni yondaftarchasiga yozib ham oldi.

– Mana bu juda aqlli bola, – deyishdi qizaloqlar. – Darrov bir nimani o'rganib olishga intilgani ko'rinib turibdi.

Bilmasvoyning bo'lsa qoqigulning ichida o'tiraverishga sabri chidamadi, albatta. U o'qtin-o'qtin chiqqanda shunday holga tushganidan rosa ezilardi. Qizaloqlar go'yo u olamda yo'qday, unga sira e'tibor qilishmadi. Ammo bolalar bo'lsa unga sira kun berishmadi.

– Bilmasvoy yolg'onchi! – deb baqirishardi ular. – Bilmasvoy maqtanchoq! Bilmasvoy qo'rqqoq!

«Yo'q, hali unutishmabdi!» – deb alam qilib o'ylardi Bilmasvoy va yana o'zini qoqigulning ichiga urardi.

Bir qancha vaqtdan keyin u tag'in chiqqan edi, yana boyagidek qilishdi. Oxiri u:

– Endi sira chiqmayman! So'zda turish kerak. Bu yerda ertagacha qimirlamay o'tiraman. Bazm boshlanganda chiqaman, – dedi.

*Yigirma sakkizinchi bob***YARASH-YARASH**

Ertasi hamma sabrsizlanib kutgan bazm boshlandi. Raqs maydonchasi atrofidagi yasatilgan kapalar juda chiroyli bo'lib, yaltirab turardi. Maydoncha ustidan tortilgan arqonchalarga esa turli chiroq va bayroqchalar osilgan edi. Shunaqa bayroqcha va chiroqlar atrofdagi daraxtlarda ham bor edi. Har bir daraxt bezatilgan yangi yil archasiga o'xshardi.

Gullar bilan bezatilgan shiyponchaning ikkinchi qavatiga o'n qizaloqdan iborat cholg'u guruhi joylashgandi, har bitta qizaloq chiltor chalardi. Bu yerdagi chiltorlar qo'lda ko'tarsa bo'ladigan chiltorlar edi. Tizzaga qo'yib chaladigan chiltorlar ham bor edi, shuningdek, polda turadigan chiltorlar ham qo'yilgandi. Bitta juda kattakon chiltorni esa zinaga chiqib chalishga to'g'ri kelardi.

Hali shom tushmasdan barcha maydoncha atrofiga to'planib, Varrakxonadan keladigan mehmonlarni kutishardi. Birinchi bo'lib Mixvoy keldi. U ozoda ko'ylak kiygan, toza yuvingan va tarangan edi. To'g'ri, faqat boshining tepasidagi ozgina sochi xo'rozning tojiga o'xshab dikkayib turardi. Ammo Mixvoyning hafsala bilan tarangani sezilardi.

– Mana endi yaxshi bola bo'libsiz, – dedi unga Moshxon. – Bunaqa yasanib, ozoda bo'lib yurish o'zingizga ham yoqsa kerak.

– Albatta, – deb qo'shildi Mixvoy, ko'ylagini tuzatib. Mixvoyning ketidan Buramavoy bilan Kulchavoy keldi,

ularning ortidan varrakkxonalik boshqa bolalar paydo bo'la boshladi. Ularni hech kim taklif qilmagan bo'lsa-da, ammo har biri yuborilgan meva uchun minnatdorchilik bildirishga kelganini aytdi. Ularni shu zahoti bazmga qolishga taklif qilishdi.

Bilmasvoy bo'lsa, rostdan ham qoqigul orasida bazni boshlanguncha o'tirdi. Ochig'ini aytganda, u o'sha joyda o'tirgandan ko'ra ko'proq yotdi, to'g'risi, uxladi, ammo bolalarning yig'ila boshlaganini ko'rgan zahoti o'tning ichidan chiqa solib, to'g'ri maydoncha tomon yo'l oldi.

Bolalar uni ko'rib qolib baqirishdi:

- E, yolg'onchi, sen ham kelibsan-da! Qani, buyoqqa kelib oyog'ing osmondan bo'lib uchganingni aytib ber-chi!

- Qani, sharbat o'rnida bulutni yeganingni aytib ber-chi! - deb uning oldiga sakrab kelib baqirdi Bo'g'irsoq.

Bilmasvoy qattiq xafa bo'ldi. U burilib boshi oqqan tarafga jo'nadi. Bolalar uning ketidan allanimalar deb baqirishdi, kulishdi, lekin bular uning qulog'iga kirmadi.

U yo'lning farqiga bormay, yuraverib, shaharning chetiga chiqib qoldi. Taxta devorga qoqilib tushib, peshonasini g'urra qilib oldi, To'xtadi-da, boshini ko'tarib devorga qaradi va «Bilmasvoy ahmoq» degan yozuvga ko'zi tushib qoldi.

- Ana xolos! - dedi Bilmasvoy. - Halitdan mening to'g'rimda devorga yoza boshlashibdi.

Uning shunaqayam xo'rliги keldiki, aslo aytib bo'lmaydi. U devorga boshini tirab ho'ng-ho'ng yig'ladi.

- Oh, men qanday baxtsizman-a! - dedi u. - Endi hamma mendan kuladi! Hamma meni masxara qiladi! Dunyoda meni hech kim, hech kim yoqtirmaydi!

U devorga boshini tiragancha uzoq vaqt turib qoldi, ko'z yoshi sira to'xtamasdi. Birdan u yelkasiga kimningdir qo'l tekkizganini sezib qoldi. Keyin:

– Qo'ying, yig'lamang, Bilmasvoy! – degan yoqimli ovozni eshitdi.

U bunday qarab, Ko'kko'zni ko'rdi.

– Yig'lashning hojati yo'q, – deb qaytardi u.

Bilmasvoy undan o'girilib, devorga yopishib, yanada qattiqroq yig'lay boshladi. Ko'kko'z indamasdan uning yelkasini siladi. Bilmasvoy uning qo'lini olib tashlash uchun yelkasini qimirlatdi, hatto yer tepinib ham qo'ydi.

– Qo'ying, qo'ying, bunaqa jahldor bo'lmang, – deb erkalab gapirdi u. – Siz, axir, muloyim, yaxshi bolasiz. Siz yanada yaxshi ko'rinish uchun maqtangansiz, aldagansiz, xolos. Ammo endi siz sirayam bunaqa qilmaysiz-a, shunaqami? Bunaqa qilmaysiz-a?

Bilmasvoy g'iq etmadi.

– Endi bunaqa qilmayman, deb ayting. Siz axir yaxshisiz-ku!

– Yo'q, men yomonman!

– Ammo bundan yomonrog'i ham bo'ladi.

– Yo'q, men eng yomonman...

– Bekor gap! Mixvoy sizdan ham battar edi. Mixvoyga o'xshab yaramas ishlar qilganingiz yo'q-ku, axir. Oxiri u ham tuzalib qoldi. Bundan chiqdi, istagingiz bo'lsa, siz ham, turgan gap, yaxshi bo'la olasiz. Ikkinchi bunaqa ish qilmayman deng-da, boshqatdan yaxshi bo'la boshlang. O'tgan gaplarni endi sira esga olmaysiz.

– Mayli, endi bunaqa qilmayman! – deb qovog'ini solib to'ng'illadi Bilmasvoy.

- Ana, qarang, qanday yaxshi-ya! - deb sevinib ketdi Ko'kko'z. - Siz endi rostgo'y, qo'rqmas va aqlli bo'lishga urining. Yaxshiroq ko'rinaman deb bo'lmag'ur narsalarni to'qimasangiz, yaxshi-yaxshi ishlar qila olasiz. To'g'rimi?

- To'g'ri, - deb javob berdi Bilmasvoy.

U xo'rsinib Ko'kko'zga qaradi-da, ko'z yoshlari aralash jilmaydi. Ko'kko'z uning qo'lini ushladi:

- Yuring. odamlarning yoniga boramiz.

Birpasda raqs maydonchasiga yetib borishdi. Bo'g'irsoq Bilmasvoyning Ko'kko'z bilan birga kelayotganini ko'rib, bor ovozi bilan baqirdi:

- Bilmasvoy aldoqchi! Bilmasvoy ahmoq!

- Bulutni qanday qilib yutganingni aytib ber-chi, - deb qichqirdi Sharbatjon.

- Uyat, sizlarga, bolalar! - dedi Ko'kko'z. - Nega uni masxara qilaszlar?

- Nega o'zi aldadi bo'lmasa? - dedi Bo'g'irsoq.

- Voy, u hali sizlarni aldadimi? - deb hayron bo'ldi Ko'kko'z. - U bizni aldaganda, indamagansiz, bundan chiqdi, siz ham unga sheriksiz!

- Sizlar ham undan yaxshimassiz! - dedi Oppog'oy. - Sizlar uning yolg'on gapirganini, maqtanganini ko'ra-bila turib, hech biringiz yo'ldan qaytarmagansiz. Hech qaysingiz, bu yaxshimas, demagansiz! Qanaqasiga siz yaxshisiz?

- Biz o'zimizni yaxshi deyayotganimiz yo'q-ku! - deb yelkasini qisdi Bo'g'irsoq.

- O'zingiz yaxshi bo'lmaganingizdan keyin, uni masxara qilmanglar-da, - deb gappa aralashdi Moshxon. - Sizning o'rningizda boshqalar bo'lganda uning tuza-lishiga allaqachon yordamlashgan bo'lardi.

Bo'g'irsoq bilan Sharbatjon uyalganidan Bilmasvoyni masxara qilishmay qo'yishdi.

Qaldirg'och ularning oldiga kelib:

– Bechoragina-ya! Yig'ladingizmi? Sizni masxara qilishdimi? – dedi. – Bolalar shunaqa esi past, hovliqma bo'lishadi. Sizni xafa qildirmaymiz. Endi sizni masxara qilishlariga sira yo'l qo'ymaymiz. – U chetroqqa chiqib, qizaloqlarga shivirladi:

– U bilan muloyim gaplashish kerak. Ayb ish qilib qo'yib, jazolandi, ammo u endi ta'zirini yeb, tavba qildi, bundan buyon o'zini yaxshi tutib yuradi, albatta! – deb qo'shib qo'ydi Moshxon. – Masxara qilish – yaxshi emas. Jahli chiqib, yana battar bo'ladi. Agar unga rahm qilsanglar, o'z aybini chuqur his qiladi-da, tez tuzalib qoladi.

Qizaloqlar Bilmasvoyning atrofini o'rab olishib, unga achina boshlashdi. Bilmasvoy bunday dedi:

– Men oldinlari o'g'il bolalar yaxshi deb, qizaloqlarga qo'shilmadim. Endi bilsam, bolalar sirayam yaxshi emas ekan. Bolalar nuqul meni masxara qilishdi. Qizaloqlar bo'lsa mening yonimni olishdi. Endi doim qizaloqlar bilan ahil bo'laman.

*Yigirma to'qqizinchi bob***BAZMDA**

Musiqa yangradi-yu hamma raqsga tushib ketdi. Shoshqaloq qorasoch Zag'chaxon bilan chirpirak bo'lib aylandi, Bilag'on Oppog'oy bilan raqs tushdi, Sergap Qaldirg'och bilan. Qarang, kimning xayoliga kelibdi deysiz – doktor Dorijon Asalxon bilan raqsga tushib ketsa bo'ladimi-ya! Asalxon ham bazmga kelgan edi. U hamma ko'raverib ko'nikib qolgan oq xalatda emas, chiroyli guldor ko'ylak kiyib olgan edi. Kasalxonasida o'z hukmini o'tkazadigan Asalxonga sira ham o'xshamasdi. U Dorijonning yelkasiga qo'lini qo'yib aylanarkan, jilmayib turib:

– Bizning davolash usulimiz siznikidan ko'ra ancha yaxshiligini, har holda, tan olsangiz bo'lardi, – dedi, – turli yara, shilingan, tirnalgan joylar, g'urra va, hatto, chipqonga ham asal surtib qo'ysa, yaxshi bo'ladi. Asal – juda yaxshi, toza tutuvchi modda, shuningdek, yiringdan ham saqlaydi.

– Gapingizga qo'shila olmayman, – deb bahslashdi doktor Dorijon. – Hamma yaralarga, tirnalgan va shilingan joylarga yod surish lozim. Yod ham juda yaxshi, toza tutuvchi moddadirki, u ham yiringdan saqlaydi.

– Har holda baribir fikringa qo'shilsangiz bo'lardi, sizning yodingiz terini kuydiradi, asal bilan davolasa, sira achishtirmaydi.

– Asal bilan davolash faqat mittioylarga to'g'ri keladi, desangiz, qo'shilishim mumkin. Ammo mittivoylarga asalingiz hecham to'g'ri kelmaydi.

- Nega endi? - dedi hayron qolib Asalxon.
- Siz o'zingiz asal bilan davolasa, achishtirmaydi dedingiz-ku.
- Sizga, albatta yarani achishtirish shartmi?
- Albatta, achishtirishi shart, - deb javob berdi doktor Dorjon. - Agar birorta bola devordan oshib oyog'i shillini ketasa, unda oyog'iga yod surtib kuydirish kerak, toki devordan oshish shunaga xavfli ekanini esidan chiqarmasin, o'shanda boshqa safar devordan oshmaydi.
- Unda, boshqa safar devordan oshmaydi-yu, tomga chiqadi-da, yiqilib boshini yoradi, - dedi Asalxon.
- Unda, yodni boshiga surtamiz, tomga chiqish ham xavfli ekanini unutmaydi. Yod - bag'oyat tarbiyaviy ahamiyatga ega.
- Doktor tarbiyaviy ahamiyatni emas, kasalning azobini yengillatishni o'ylashi kerak, - deb javob berdi Asalxon.
- Yodingiz bilan kasalni battar azobga solasiz.
- Doktor hammasini ham o'ylashi kerak, - dedi Dorjon. - Qizaloqlarni davolaganda hech nimani o'ylamas-lingiz ham mumkin, ammo bolalarni davolaguday bo'lsangiz-chi...
- Keling, yaxshisi, boshqa narsa haqida gaplashaylik, - deb uning gapini bo'ldi Asalxon. - Siz bilan sirayam raqs tushib bo'lmayapti.
- Yo'q, siz bilan raqsqa tushib bo'lmayapti! - Siz unchalik odobli emassiz!
- Ha, biroq mening to'g'rimda shunaga bema'ni gaplarni gapirsa, odobsiz bo'lib qolaman.

– Bema’ni gaplarni gapirayotgan o’zingiz! Siz doktor-mas, shunchaki tabibsiz.

– Siz-chi... Siz!..

Alam qilganidan Dorijon hech nima deyolmadi.

U raqs maydonchasining o’rtasida to’xtab, suvdan chiqqan baliqday og’zini ochib, esi og’ib qoldi. Juft-juft bo’lib raqs tushayotganlar unga tegib ketishardi. Asalxonni ham turtib yuborishdi. U Dorijonning qo’lidan tortib:

– Qani, raqs tushing! Nega to’xtab qoldingiz? Boshqalarga xalaqit beryapmiz! – dedi.

Dorijon qo’lini siltadi-da, keyin ikkovi yana o’yinga tushib ketishdi. Oldiniga indamasdan raqs tushishdi, keyin tag’in davolash usuli haqida janjallashib ketishdi.

Bo’g’irsoq Do’mbog’oy bilan raqs tushardi. Ular o’rtasida tamoman boshqacha gap borardi.

– Qandni yaxshi ko’rasizmi? – deb so’radi Bo’g’irsoq.

– Judayam, – deb javob berdi Do’mbog’oy. – Siz-chi?

– Men ham. Hammasidanam xamirli taomni yaxshi ko’raman.

– Men-chi, olamda hammasidanam muzqaymoqni yaxshi ko’raman.

Murvatvoy Olmaxon bilan raqsga tushdi.

– Men avtomobil haydashni o’rganishni orzu qilaman, – dedi Olmaxon. – Bizning ancha qizaloqlarimiz o’rganib olishgan, demak, men ham o’rgana olar ekanman-da.

– Bu juda oson gap, – deb tasdiqladi Murvatvoy, – tirkovichni bosib, keyin gaz berish kerak, xolos.

Bilmasvoy Ko’kko’z bilan raqs tushdi. Ammo, uni shunchaki nomiga raqs tushdi desa ham bo’laveradi.

Deyarli, Ko'kko'zning o'zi raqs tushdi, Bilmasvoy bo'lsa echkiga o'xshab sakrardi, xolos. U Ko'kko'zning oyog'ini bosib olar va nuqul boshqalarni turtib yurardi.

Oxirida Ko'kko'z:

- Keling, yaxshisi, o'tira qolamiz, - dedi.

Ular kichkina o'rindiqqa o'tirishdi.

- Bilasizmi, - dedi Bilmasvoy, - men, axir, sirayam raqs tushishni bilmayman.

- Buni o'zingiz bo'yingizga olganingiz juda yaxshi, - dedi Ko'kko'z. - Sizning o'rningizda boshqa birov bo'lganda yo oyoq, yo qo'lim og'riyapti deb, qop-qop yolg'onni do'ndirardi. Siz bo'lsangiz, bilmayman, deb ochig'ini aytdingiz. Siz bilan do'stlashsa bo'lar ekan.

- Albatta, bo'ladi, - deb rozi bo'ldi Bilmasvoy.

- O'g'il bolalar bilan do'stlashish menga yoqadi, - dedi Ko'kko'z, - qizaloqlarni ko'p yoqtirmayman, chunki ular haddan tashqari o'z husnlariga bino qo'yishadi-da, oyna oldida o'ralashgani-o'ralashgan.

- Oynaga qarashni yaxshi ko'radigan bolalar ham bo'ladi, - deb javob berdi Bilmasvoy.

- Axir, siz unaqamassiz-ku, a, Bilmasvoy? To'g'ri, siz unaqa emassiz-a?

- Yo'q, men unaqa emasman, - deb javob berdi Bilmasvoy.

U hozir aldadi. U ham ba'zan hech kim yo'g'ida boshqa bolalarga o'xshab o'z ko'rkiga bino qo'yib, oyna oldida aylanishardi.

- Sizning shunaqa emasligingizdan juda xursandman, - dedi Ko'kko'z. - Ikkalamiz do'st bo'lamiz. Mening juda qiziq taklifim bor. Keling, bir-birimizga xat yozishamiz. Oldin siz xat yozing, keyin men sizga yozaman.

«Ana xolos!» – deb o‘yladi Bilmasvoy. U faqat bosma harflar bilan yozgani uchun o‘zining savodsizligini aytishdan uyaldi.

– Xatning nima keragi bor? – deb sarosimada to‘ng‘illadi u. – Biz unchalik olisda turmaymiz-ku. Shundoq gaplashib tursak ham bo‘laveradi.

– Voy, siz judayam kamhafsala ekansiz-a, Bilmasvoy! Siz mening ko‘nglimga yoqadigan biron ish qilishni xohlamaysiz-a. Xat olish juda qiziq-ku, axir!

– Ha, mayli, – deb rozi bo‘ldi Bilmasvoy. – Xat yozaman. Tez orada qorong‘i tushdi. Atrofda yuzlarcha rang-barang chiroqlar yaraqladi. Chiroqlar daraxtlarda ham, kapalarda ham porlardi. Ba‘zi joylarda daraxt ostidagi o‘tlar orasiga ham chiroqchalar yashirib qo‘yishgandi, bu chiroqchalar yonib, go‘yo o‘tlarning o‘zi allaqanday sehrli nur sochayotganga o‘xshardi. Cholg‘uchilar joylashgan shiyponchaning pastiga chiroyli havorang parda tutilgandi. Parda birdan ochildi-yu hamma sahna borligini ko‘rib qoldi.

Sahnaga shoira Gulg‘uncha chiqdi-da:

– Tinchlaning, tinchlaning! Diqqat! Hozir konsert bo‘ladi! – deb e‘lon qildi.

Hamma o‘rindiqlarga o‘tirib, konsert ko‘rishga tayyorlandi.

– Diqqat! – dedi yana Gulg‘uncha. – Sahnaga birinchi bo‘lib o‘zim chiqaman. Men sizlarga do‘stlik haqidagi yangi she‘rimni o‘qib beraman.

Qizaloqlar va bolalar gulduros chapak chalishdi. Chapaklar to‘xtashi bilan Mashshoqvoy o‘zining dirijorlik tayoqchasini ko‘targan edi, birdan kuy yangradi. Gulg‘uncha o‘zining do‘stlik haqidagi yangi she‘rini mu-

siqa sadosi ostida o'qiy boshladi. Bu she'r ham Gulg'un-chaning boshqa she'rlari kabi yaxshi edi. U: «Hammaning do'sti bo'lishi kerak, kerakdir do'stlikni mahkamlash!» degan so'zlar bilan tugadi.

Hammaga ma'qul bo'lgan she'rxonlikdan keyin sahnaga raqs ansambli chiqdi. Har xil rangli chiroyli ko'ylak kiyib, lenta taqib yasangan o'n ikkita qizaloq har turli o'yinga tushdi, ularning ichida eng yaxshisi «sholg'om» raqsi edi. Tomoshabinlar o'sha «sholg'om» o'yini yana ikki marta qaytarilmaguncha hadeb qichqirib, chapak chalaverishdi. Raqs ansamblidan keyin Varrakxona shahar bolalar jo'ri chiqdi. Jo'r bir qancha qo'shiq ijro etdi.

Jo'r sahnadan tushishi bilan Mashshoqvoy o'z cholg'u guruhini qoldirib, ikkinchi qavatdan ustunga osilib pastga – sahnaga tushdi-da:

– Buyoqqa chiqinglar, oshnalar! Buyoqqa! – deb qichqirdi. Bilag'on, Shoshqaloq, doktor Dorijon va Bilag'onning boshqa o'rtoqlari sahnaga chiqishdi.

– Diqqat! – deb baqirdi Mashshoqvoy. – Hozir Gulzor shahar bolalar jo'ri chiqadi.

U nayini chaldi, bolalar baravariga shoir Gulshaniy yozgan chigirtka haqidagi qo'shiqni ijro etishdi:

Chigirtka bor o't ichida,
Bodringchaday kichik juda.
Juda ko'm-ko'k edi-da u,
Juda ko'm-ko'k edi-da u.

Yeyar edi nuqul ko'kat,
Qo'ng'izlarga tegmas faqat.
Oshna edi pashshalarga,
Oshna edi pashshalarga.

Qarab uyoq va buyoqqa,
 Kelib qoldi och qurbaqa,
 Chigirtkani yutdi-qo'ydi.
 Chigirtkani yutdi-qo'ydi.

O'ylamagan hech qachon u,
 Va kutmagan hech zamon u,
 Shunday bo'lar deb oxiri,
 Shunday bo'lar deb oxiri!

Qo'shiq g'amgin bo'lganidan, oxirida ashulachilarning o'zlari ham toqat qilisholmay ho'ng-ho'ng yig'lashdi. Ochko'z qurbaqa yutib qo'ygan bechora chigirtkaga hamma achindi. Ko'zlaridan duv-duv yosh to'kishdi.

- Juda yaxshi chigirtka edi bechora, - dedi xo'rsinib Dovdirvoy.

- Sirayam hech kimga tegmasdi, pashshalar bilan ham ahil edi, - dedi Shoshqaloq.

- Shuning uchun ham uni qurbaqa yeb qo'ydi-da! - qo'shib qo'ydi Murvatvoy.

Faqat Bilag'on yig'lamasdan o'rtoqlarini ovutdi:

- Yig'lamanglar, oshnalar! Qurbaqa chigirtkani yegani yo'q. Bu to'g'ri emas. Qurbaqa pashshani yeydi. O'lay agar, pashshani yeydi!

- Baribir, - deb xo'rsindi Murvatvoy, - men pashshaga ham achinaman.

- Pashshaga achinishning nima keragi bor? Ular kasal yuqtirib, hammaning joniga tekkani-tekkan. Endi bir kamlaring pashshaga achinishmidi!

- Men umuman pashshaga yig'layotganim yo'q! - dedi Sergap. - Men uyda ekanligimizda bu qo'shiqni

aytganimizni esladim, xolos. Shu orada Bilmasvoy shunday qattiq uvillab yubordiki, yig'lab turganlar hayron qolishib, yig'isini ham to'xtatib, uni ovutishga tushishdi. Hamma undan nega bunaqa qattiq yig'laganini so'rashdi. Ammo Bilmasvoy piqillab, hech nima demadi. Oxirida xo'rsinib:

– Men Dum... Men anovi... Dumbulvoyni sog'indim! – dedi.

– Rostdan-a? – deb hayron qoldi barcha, – sog'inmay yurib-yurib, birdaniga sog'inibsan-da!

– Ha! – deb injiqlik qilib javob berdi Bilmasvoy. – Men bu yerdaman, Dumbulvoy bo'lsa, uyda qoldi!

– Qo'yaver, sensiz Dumbulvoy yo'qolib qolmaydi, – dedi Shoshqaloq.

– Yo'q, yo'qoladi! Men bilaman, u ham meni sog'inib qolgan. Dumbulvoy – mening eng yaxshi og'aynim, biz havo pufagida uchganimizda, men hatto u bilan xayrlashmagan edim.

– Nega xayrlashmading?

– U bilan urishib qolganim uchun xayrlashgim kelmovdi. Biz uchgan mahalda u nuqul menga qarab qo'lini silkiy bergan edi, men jo'rttaga yuzimni teskari o'girib olib, unga qaramovdim. Havo pufagida uchayotganimdan juda mag'rur edim-da. Endi bo'lsa meni qiynayapti anovi... Nimaydi?..

– Vijdonmi? – dedi doktor Dorijon.

– Ha-ha, og'aynilar, vijdon! Agar xayrlashganimda edi, menga ancha oson bo'lardi. Og'aynilar, uyga qaytib borgach, men Dumbulvoy bilan yarashaman-da, keyin xayrlashaman.

– Agar qaytib borsak, xayrlashish emas, salomlashish kerak bo'ladi, – dedi Bilag'on.

– Baribir, oldin xayrlashaman-da, keyin salomlashaman, hammasi joyida bo'ladi.

– Do'stlar, qaytib ketishimizga to'g'ri keladi, – dedi Mashshoqvoy. – Bilmasvoyning uyga ketgisi kelib qoldi.

– To'g'ri, og'aynilar, mening ham uyga ketadigan vaqtim bo'ldi, – dedi Dorijon. – Men bo'lmasam, Gulzor shahrida bitta-yarimtasi kasal bo'lib qolishi mumkin, tuzatadigan hech kim yo'q, axir.

– Bo'ldi-da, shuncha o'ynaganimiz yetar endi! – deb javob berdi Bilag'on. – Qachon bo'lmasin, uyga qaytishimiz kerak-da. Ertaga yo'lga chiqamiz.

Bazm tamom bo'ldi. Ko'kko'z Bilmasvoyning oldiga keldi.

– Mana, ikkalamiz xayrlashamiz endi, – dedi xafa bo'lib u.

– Ha, – deb asta javob berdi Bilmasvoy. – Uyga ketadigan vaqtimiz bo'ldi.

– Bizning shaharda juda oz turdinglar.

– Mening yana ancha qolgim bor-u, ammo uyga ketgim kelyapti, – dedi Bilmasvoy boshini quyi solib.

Ko'kko'z nimanidir o'ylab turdi-da, keyin:

– To'g'ri, albatta, uyga borishlaring kerak, – dedi. – Uyda qolgan do'stlaringiz, ehtimol, sizdan xavotir olishayotgandir. Do'stlaringizni unutmayotganlaringiz yaxshi.

Ikkovi ham anchagacha indamay turishdi. Bilmasvoy nimadir demoqchi edi-yu, lekin tomog'i bo'g'ilib, ovozi chiqmay qolsa bo'ladimi! U boshini egib poshnasi bilan yerni kavlati, Ko'kko'zga qarashga jur'at etolmadi.

U ko'zimdagi yoshni ko'rib qoladi deb qo'rqqan edi. Nihoyat, ular boshlarini ko'tardilar, ko'z-ko'zga tushdi.

– Men sizga yo'lga xalta tikib beraymi? – dedi Ko'kko'z.

– Mayli.

Ertasi kun Bilag'on bilan o'rtoqlari yo'lga tushishdi. Yayov sayohat qilishga qaror qilishdi. Havo pufagi yorilgan, uni tuzatish qiyin edi, buning ustiga o'sha tomonga shamol ham esmasdi. Hammadan oldinda qo'lga kompas ushlagan Bilag'on borardi. Uning ketidan doktor Dorijon, keyin Murvatvoy bilan Tuzatvoy, ularning ketidan esa qolgan mitti bolalar ketishardi. Bilmasvoy hammadan keyinda borardi. Bolalarning orqasida yukxalta bor edi. Bu xaltalarni qizaloqlar tikib berishgandi. Yukxaltalarda yo'l uchun piroglar va, shuningdek, Gulzor shahrida bo'lmaydigan meva, sabzavot va gul urug'lari bor edi. Sharbatjonning hamma cho'ntagida bittadan tarvuz urug'i bor edi.

Hamma qizaloqlar bolalarni kuzatgani chiqishdi. Ko'plar yig'lashdi.

– Yig'lamanglar, – dedi ularga Bilag'on. – Bir kunmas-bir kun biz tag'in havo pufagi yasaymiz-da, siz tomonga uchib kelamiz.

– Ko'klamda olma gullaganda uchib kelinglar, – deb qichqirishdi qizaloqlar. – Bizda bahor juda chiroyli bo'ladi.

Qizaloqlar shahar chetida qolishdi, bolalar esa may-salar va dala gullari o'sib yotgan yo'ldan ketishdi.

– Xayr! Xayr! – deb qichqirishdi qizaloqlar va qo'llarini silkishdi.

– Xayr! Xayr! – deb javob berishdi bolalar. Ko'kko'z indamasdan qo'l silkib qoldi.

Bolalar darrov olisga ketib qolishdi, qizaloqlarning ovozi ularga zo'rg'a eshitilardi.

– Bilmasvoy! Bilmasvoy! – deb qichqirdi Ko'kko'z bir-daniga.

Bilmasvoy qayrilib qaradi.

– Xat, Bilmasvoy, xat!

Bilmasvoy boshini qimirlatdi va qalpog'ini silkiy boshladi.

– U eshitibdi! – deb sevinib ketdi Ko'kko'z.

Sayyohlar tez orada ko'z ilg'ar-ilg'amas nuqtaga o'xshab qolishdi. Yo'l burilgandan keyin esa butunlay g'oyib bo'lishdi. Qizaloqlar uy-uyiga tarqaldilar. Hamma g'amgin edi.

O'ttizinchi bob

QAYTISH

Bilag'on bilan o'rtoqlari qancha-qancha o'rmon va dalalardan o'tib, oxiri o'z qadrdon yurtlariga qaytib kelishdi. Ular baland bir tepalikka kelib to'xtashdi. Gulzor shahri bo'lsa, bor chiroyi bilan ko'zga ko'rinib turardi. Yoz tugay deb qolgan, ko'chalar-da esa eng chiroyli gullar: oq xrizantemalar, qizil kartoshkagullar, rang-barang qo'qongullar chaman-chaman bo'lib ochilib yotardi. Hovlilarda esa turli-tuman kapalakgullar ochilgan edi. Qip-qizil cho'g'day tovlangan gullar chekka joylarda, uylarning devorlarida va, hatto, tomlarda ham ochilib yotardi. Mayin shabada oqgul va kapalakgullarning yoqimli hidini olib kelardi.

Bilag'on bilan o'rtoqlari suyunganidan bir-birlarini quchoqlab olishdi.

Ko'p o'tmasdan ular o'z shaharlarining ko'chalaridan yurib ketishdi. Hamma uylardan odamlar chiqib say-yohlarni tomosha qilishdi. Bilag'on va o'rtoqlari ko'p yurib qorayib qolishganidan, ularni oldiniga hech kim tanimadi.

Kimdir birdan qichqirib yubordi:

– Og'aynilar, axir bu Bilag'on-ku! Ana, qaranglar, hammadan oldinda kelyapti!

Atrofdan:

– Ana, doktor Dorijon! Ovchi O'qtoy! Ana, Dovdirvoy! Bo'g'irsoq! – degan ovozlari eshitildi.

Odamlar sevinganidan:

– Ura! – deb qichqirib yuborishdi.

Bilag'on bilan o'rtoqlari Chuchmoma ko'chasiga burilishganda shunaqa qiziq bo'ldiki, asti qo'yavering! Bu yerda ularning qo'shnilari va yaqin tanishlari bor edi. Butun ko'chani mittilar tutib ketdi. Bolalar botir sayo-hatchilarni quchoqlar, o'par, qizaloqlar bo'lsa, butun yo'llarga dastorgullarni sochishardi.

Birdan qayoqdandir bir kuchukcha chopib kelib qoldi. U vovullar, ovchi O'qtoyning atrofida sakrab yurib, uning qo'lini yalardi.

– Og'aynilar, bu mening Ko'ktoyim-ku axir! – deb qichqirdi O'qtoy.

Bolalar havo pufagida uchib ketgandan keyin bir necha kun o'tgach, Ko'ktoy uyga qaytib kelganini qo'shnilari aytib berishdi. Ular kuchukni ko'rib, O'qtoy bilan o'rtoqlari halok bo'libdi, deb o'ylashibdi, hech kim bularni tirik ko'ramiz, deb o'ylamagan ekan.

O'qtoy Ko'ktoy kuchugini qo'lga olib, silab-siypalay boshladi.

– Voy, mening vafodor kuchukkinam! – dedi u. – Demak, sen o'lmagan ekansan-da? Men senga achinib yuribman!

Shu payt ko'chaning u boshida mittilarning yangi to'dasi ko'rindi. Hammadan oldinda shoir Gulshaniy yugurib kelardi.

– She'r! – deb qichqirdi barcha. – Hozir she'r o'qiladi! Qizaloqlar qattiq chapak chalishdi. Bir necha bola bo'lsa, allaqayoqdan bo'sh bochka topib kelishib, uni to'nkarib qo'yishdi. Kimdir:

– Gulshaniy, bochkaga chiq-da, she'r o'qi! – deb qichqirdi. Gulshaniyning qo'ltig'idan ko'tarib bochkaga chiqarib qo'yishdi. Gulshaniy birpas o'ylab turdi, ozroq yo'taldi, keyin Bilag'onga va o'rtoqlariga qo'lini cho'zib, shu yerda – bochkaning ustida to'qigan she'rini berilib o'qiy boshladi:

Biz iliq ko'rishamiz jasur sayyohlar bilan!
Ular uchib ketgandi katta havo shar bilan.
Pufak-mufaksiz ular –
Qaytib kelishdi: – Ura!

– Ura-a-a! – deb atrofdan hayqirishdi mittilar. Gulshaniyni shu zahotiy oq bochkadan tushirishdi. Uni qo'llarida ko'tarib uyiga olib ketishdi. Qizaloqlar uning ketidan yugurib kelishib, dastorgul sepishdi.

Gulshaniy bu she'ri tufayli o'zi ajoyib sayohatga borib kelganday shuhrat qozondi.

Jasur sayohatchilarimiz eshiklarini ochib, talay kun bo'sh qolgan uylariga kirishdi. Ko'chada faqat Bil-

masvoyning yolg'iz o'zi qoldi. U uzoqlashib borayotgan to'daning ketidan ma'yus qarab turdi, keyin kimnidir qidirgandek atrofga alangladi. Ko'cha bo'm-bo'sh edi. Go'yo hammani shamol uchirib ketganday. Bilmasvoy ma'yuslanib yana atrofga qaradi. Shu payt ko'chaning narigi betida devor soyasida ko'zini katta ochib, unga baqrayib qarab turgan qandaydir bolani ko'rib qoldi,

- Dumbulvoy! - deb qichqirdi Bilmasvoy o'z do'stini tanib va qo'lini cho'zdi.

Dumbulvoy sevinganidan chinqirib, Bilmasvoyga qarab yugurdi. Bilmasvoy bo'lsa unga qarab otildi. Ikkala oshna boshini boshiga urib olishiga sal qolib, ko'cha o'rtasida to'xtashdi. Dumbulvoy mashhur sayyoh bo'lib qolgan o'z do'stiga faxr va muhabbat bilan qarar, Bilmasvoy bo'lsa aybdor kishiday unga jilmayib boqib turardi. Ular bir-biriga tikilganicha ancha turib qolishdi, to'lqinlanib ketishganidan biror so'z deyisholmasdi. Keyin ular bir-birini mahkam quchoqlab olishdi, ko'zlaridan dud-dud yosh oqdi.

Ana shunday diydor ko'rishishdi.

Shu bilan Bilag'on va o'rtoqlarining mashhur sayohatlari tamom bo'ldi. Gulzor shahridagi hayot ilgarigiday oqa boshladi... Yo'q, yo'q, ilgarigiday deb ham bo'lmaydi.

Jasur sayohatchilarimiz shaharga qaytib kelgandan beri hamma nuqul ular haqida gapiradi. Shahar aholisi, mittioylar va mittivoylar kechalari Bilag'onning uyiga kelib, sayohatchilarning boshidan kechirganlari va Yashil shahardagilarning hayoti haqidagi hikoyasini eshitishardi.

Bo'g'irsoq qizaloqlar uni mazali piroglar bilan mehmon qilganini eslashni yaxshi ko'rardi. Sharbatjon bo'l-

sa, rosa ichgan gazli shirin suvlari bilan maqtanardi. Bilag'on ham qamish vodoprovodni, favvoralarni hamda qizaloqlarning daryoga ajoyib ko'prik solganlarini, shuningdek, katta-katta tarvuzlar yetishtirganlarini aytib berardi. Sharbatjon shunda cho'ntagidan tarvuz urug'ini chiqarib:

– Mana shu urug'dan bir necha bochka sharbat olsa bo'ladi deb, kim ham o'ylabdi! – der edi.

Agarqul bilan Shoshqaloq ayniqsa qizaloqlar bilan birga hosil yig'ishtirishganini hikoya qilishardi. Murvatvoy bilan Tuzatvoy mexanizatsiya haqida, o'z shofyor do'stlari Kulchavoy haqida, hamma ishi tugmacha bilan bitadigan mexanik-ixtirochi Buramavoy to'g'risida gapirishardi. O'qtoy bo'lsa, kasalxonada uni qanday qilib davolashganini, chiqqan oyog'ini juda yaxshilab tuzatgan ajoyib vrach Asalxonni hammadan ham ko'proq yodga olishni xush ko'rardi. U hozir yurish-ku yurish, hatto chopar va sakray olardi ham. So'zining dalili uchun O'qtoy chiqqan oyog'ida bir oyoqlab sakrab ko'rsatdi.

Hamma ham o'zining qizaloqlar bilan bo'lgan do'stligini so'zlar edi. Hatto kamdan-kam, bitta-yarimta so'zni zo'rg'a gapiradigan Indamas ham:

– Men-chi, og'aynilar, oldinlari qizaloqlar bilan ham bolalardek yaxshi do'stlashsa bo'ladi deb o'ylamasdim, chin so'zim, – deb gapirdi.

– Yaxshisi, indamay qo'ya qol! – deb javob berdi Bilmasvoy. – Men sening u yerda bitta-yarimta bilan do'stlashganingni payqaganim yo'q.

– Sen do'stlashdingmi bo'lmasa? – deb so'rashdi bolalar.

– Men Ko'kko'z bilan do'stlashdim, – dedi gerdayib Bilmasvoy.

– Senga ishonib bo'pmiz! – dedi Munchog'oy. – Sen hatto do'sting Dumbulvoy qizaloqlar bilan do'stlashgani uchun u bilan urishgansan-ku!

– Hech unaqamas-da! Men Dumbulvoy bilan allaqachon yarashganman, endi o'zim ham qizaloqlar bilan ahil bo'laman.

– Nega oldin do'stlashmagansan? – deb so'radi Moychechak.

– Oldin men juda tentak edim. Qizlarga qo'shilsam, bolalar meni masxara qilishadi deb qo'rqardim.

– Sen endiyam qo'rqarsan, – dedi Chivinoy.

– Yo'q, endi aqlim kirdi. Sen bilan ham do'stlashaman, maylimi? Kim agar mendan kulsa, peshonasiga tushiraman.

– Meni deb urishish senga juda zarurmidi? – dedi Chivinoy.

– Yo'q, urishmayman. Kulganiga sira e'tibor bermay qo'ya qolaman.

Bilmasvoy Chivinoy bilan do'stlashdi. Shundan beri agarda kimda-kim qizaloqlarni xafa qiladigan bo'lsa, uning oldiga kelib:

– Sen nega qiz bolani xafa qilding? Ko'zingni och, ikkinchi shunaqa qilganingni ko'rmayin! Biz qizaloqlarni xafa qilmaylik, – derdi.

Shuning uchun qizaloqlar uni hurmat qilishadigan va Bilmasvoy umuman yomon bolamas, deyishadigan bo'lishdi. Bilmasvoyni maqtashlari boshqa bolalarga alam qildi-da, ular ham qiz bolalarning yonini oladigan bo'lib qolishdi. Gulzor shahrida qiz bolalarni xafa qi-

lishni butunlay yo'q qilishdi. Agarda bitta-yarimta bola musht o'qталib qolgunday yoki qizaloqqa ranjitadigan so'z aytgunday bo'lsa, barcha undan kular, uni beodob deb, nozik muomalani bilmagan qo'pol, der edi.

Agar mittioylar mittivoylar bilan o'ynamoqchi bo'lishsa-chi, endi hech kim ularni haydamaydigan, aksincha, o'yinga taklif qiladigan bo'lishdi.

Bilag'on tez orada Gulzor shahrida ham qamish vodoprovod qilishni o'yladi va hozircha har bir ko'chaga bittadan bo'lsa ham bir necha favvora qurmoqchi bo'ldi. Bundan tashqari, o'rmonga o'tish uchun Bodring daryosiga ko'prik qurishni taklif qildi. Qizaloqlar o'g'il bolalar qatori ishga kirishib ketdilar. Barcha ertalabdan tushgacha ko'prik qurdi, vodoprovod o'tkazishdi, favvora qurishga urinishdi. Tushdan keyin hamma o'yinga – birov bekinmashoq, birov futbol yoki voleybol o'ynagani ketib qoldi.

Faqat Bilmasvoy o'yinga juda kam qatnashardi. U:

– Endi o'ynagani vaqtim yo'q. Men hozir amal-taqal qilib o'qiy olaman, yozishni esa hosma harflar bilangina yozaman. Albatta, chiroyli yozuvga o'rganishim kerak. Negaligini o'zim yaxshi bilaman, – derdi.

Futbol yoki chillak o'ynashga borish o'rniga Bilmasvoy o'tirib olib o'qirdi. U har kuni bir betdan o'qirdi, bu juda foydali edi, albatta. Ba'zan bugunlik va ertalik uchun deb ikki betdan ham o'qib qo'yardi. O'qishni tugatgach, daftarini olib yozuv bilan shug'ullanardi. U endi hosma harflar bilan emas, yozma harflarda yozardi, ammo oldiniga unchalik chiroyli chiqmadi. Avvallari uning daftarida harflar emas, allaqanday qing'ir-qiyshiq shakllar paydo bo'lib qolardi, lekin

Bilmasvoy asta-sekin chiroyli qilib katta va kichik harflarni yozishni o'rganib oldi.

Bilmasvoy daftariga tez-tez siyoh tomizar, ozoda qilib yozolmasdi. Siyoh tomishi bilan darrov tili bilan yalardi. Shuning uchun tomgan siyoh uzun dumli bo'lib qolardi. Bunaqa dumlarni Bilmasvoy «Dumli yulduz» deb atardi. Bunaqangi «Dumli yulduzlar» daftarining har bir betida uchrab turardi. Ammo Bilmasvoy umidsizlanmadi. Chunki u chidam va mehnat «Dumli yulduz»lardan qutilishiga madadkor bo'lishini yaxshi bilardi.

MUNDARIJA

<i>Birinchi bob.</i> Gulzor shahrining mittilari	3
<i>Ikkinchi bob.</i> Bilmasvoyning karnaychi bo'lgani	9
<i>Uchinchi bob.</i> Bilmasvoyning rassom bo'lgani	12
<i>To'rtinchi bob.</i> Bilmasvoyning she'r to'qigani	17
<i>Beshinchi bob.</i> Bilmasvoyning gazli suv bilan yuradigan avtomobilda kezgani	21
<i>Oltinchi bob.</i> Bilag'onning havo pufagi o'ylab topgani	26
<i>Yettinchi bob.</i> Sayohatga tayyorgarlik	33
<i>Sakkizinchi bob.</i> Sayohat	39
<i>To'qqizinchi bob.</i> Bulutlar ustida	43
<i>O'ninchi bob.</i> Falokat	50
<i>O'n birinchi bob.</i> Yangi joyda	56
<i>O'n ikkinchi bob.</i> Yangi tanishlar	62
<i>O'n uchinchi bob.</i> Stol atrofidagi suhbat	68
<i>O'n to'rtinchi bob.</i> Shahar bo'ylab sayohat	75
<i>O'n beshinchi bob.</i> Kasalxonada	82
<i>O'n oltinchi bob.</i> Konsert	89
<i>O'n yettinchi bob.</i> Murvatvoy bilan Tuzatvoyning varrak- xona shahriga sayohati	94
<i>O'n sakkizinchi bob.</i> Varrakxonada	99
<i>O'n to'qqizinchi bob.</i> Fahmdornikida mehmonda	104
<i>Yigirmanchi bob.</i> Buyoqvoyning rasm ishlagani	110

<i>Yigirma birinchi bob. Murvatvoy bilan Tuzatvoyning qaytishgani</i>	116
<i>Yigirma ikkinchi bob. Mexanizatsiya mo'jizasi</i>	121
<i>Yigirma uchinchi bob. Kasalxonadan qochish</i>	126
<i>Yigirma to'rtinchi bob. Bo'yoqvoyning ixtirosi</i>	131
<i>Yigirma beshinchi bob. O'qtoyni davolashgani</i>	135
<i>Yigirma oltinchi bob. Mixvoyning qaytishi</i>	140
<i>Yigirma yettinchi bob. Kutilmagan uchrashuv</i>	144
<i>Yigirma sakkizinchi bob. Yarash-yarash</i>	151
<i>Yigirma to'qqizinchi bob. Bazmda</i>	156
<i>O'ttizinchi bob. Qaytish</i>	166

22. 200.50'14.

Adabiy-badiiy nashr

Nikolay NOSOV

**BILMASVOY
VA DO'STLARINING
SARGUZASHTLARI**

Roman-ertak

<i>Muharrir</i>	Saidmurod XOLBEKOV
<i>Badiiy muharrir</i>	Bahriddin Bozorov
<i>Texnik muharrir</i>	Dilmurod JALILOV
<i>Sahifalovchi</i>	Madina ABDULLAYEVA
<i>Musahhih</i>	Nigora G'ANIYEVA

Nashriyot litsenziyasi AJ № 315. 24.11.2017.
2018-yil 7-iyunda bosishga ruxsat etildi.
Bichimi 84x108 ¹/₃₂, Cambria garniturası.
Ofset bosma. 5,5 bosma taboq. Nashr tabog'i 8,18.
Adadi 10000 nusxa. 138-raqamli buyurtma.
Bahosi shartnoma asosida.

YOSHLAR NASHRIYOT UYI.
Shayxontohur tumani, Navoiy ko'chasi, 11-uy.

«Print line group» XK da chop etildi.
«Yoshlar matbuoti» MCHJda muqovalandi.
100113. Toshkent, Chilonzor-8, Qatortol ko'chasi, 60.



ISBN 978-9943-5529-1-3



9 789943 552913